

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“BOSHLANG‘ICH TA'LIM” KAFEDRASI

“ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI”

fanidan
MA'RUZA MATNLARI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Bakalavr yo'nalishi:	5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish (II kurs)

QO'QON – 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM” KAFEDRASI

“ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI”

**fanidan
MA‘RUZA MATNLARI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Bakalavr yo‘nalishi:	5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish (II kurs)

QO‘QON – 2020

Ushbu ma'ruza matnlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018- yil 25- avgustdagi 744- sonli buyrug'ining 2- ilovasi bilan fan dasturlari ro'yxatida tasdiqlangan, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018- yil 8- avgustdagi 4- sonli bayonnomasi va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan hamda tavsiya qilingan (2018- yil 28- iyundagi 11- sonli majlis bayonnomasi) fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Z.S.Isaqov – “Boshlang'ich ta'lim” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Y.Isaqova – “Boshlang'ich ta'lim” kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

D.Jamoliddinova – “Boshlang'ich ta'lim” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Sh.T.Akramov – “O'zbek tili” kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti Kengashining 2020- yil __- avgustdagi 1- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

I semester uchun

1- ma'ruza. Fe'l. Fe'lning grammatik xususiyatlari (morfologik belgilari, sintaktik vazifalari).
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, bo'lishsizlik ma'nosining ifodalanishi

Reja:

1. Fe'lning ma'nosi va grammatik belgilari.
2. Fe'lning tuslanishli va tuslanishsiz shakllari.
3. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.
4. O'timli va o'timsiz fe'llar

Tayanch so'zlar: mustaqil fe'l, ko'makchi fe'l, yetakchi fe'l, analitik shakl, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilma, harakat tarzi shakli, harakat tarzi lug'aviy shakli, to'liqsiz fe'l, bog'lama, kesimlik ko'rsatkichi, fe'lning kesimlik va nokesimlik shakllari, tuslanishli fe'l, tuslanishsiz fe'l, kategorial forma, nokategorial forma, nisbat, daraja, bo'lishli fe'l, bo'lishsiz fe'l, ritorik so'roq gap, inkor yuklamasi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O', Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Keys. Prezidentimizning 2017- yil 7- fevraldagi qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmonida mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish.
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish.
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Fe'ning ma'nosi va grammatik belgilari

Predmetning harakatini va jarayon tarzidagi holatini bildirgan mustaqil so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'l nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi: *sakramoq, yugurmoq, ko'tarmoq, yozmoq, uchmoq* (harakat); *mudramoq, turmoq, o'ylamoq* (holat); *gullamoq, ko'karmoq, sarg'aymoq, qizarmoq, qovjiramoq, o'smoq* (biologik jarayon).

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

O'zbek tilida harakat va holat ma'nosi doimo fe'llar orqali ifodalanavermaydi. Otlar ham mavhum harakat va holatni anglatadi: *saylov, uchrashuv, kurash* kabi. Ot harakatni uning nomi sifatida bajaruvchi va zamon bilan bog'lanmagan tarzda ifodalaydi. Fe'llar esa ish-harakatning biror bajaruvchi tomonidan ma'lum vaqtda bajarilganligini bildiradi: *Ayriliqdan so'ng do'stlar yana uchrashdi.*

Yuzlaringni mayliga yashir,
Kerak emas, nozlar, imolar.
Go'zallikning qoshida axir,
Cho'kka tushgan hatto xudolar.

Harakat bilan bajaruvchi orasidagi bu aloqa gapda fe'ning shaxs-son shakllari orqali egaga nisbatan hokimligini ko'rsatadi. Fe'l biror holat, belgining o'zgarishini bildirish jihatidan sifatga zid qo'yiladi. Fe'l faol o'zgarish jarayonidagi harakat va holatni ma'lum vaqt bilan bog'liq tarzda ifodalaydi, bu uning zamon shakllarida ko'rinadi. Sifat esa ma'lum narsaga xos turg'un, doimiy belgini bildiradi. Bu umumiy leksik ma'noli fe'l va sifatni chog'ishtirganda, buni yana ham ochiq ko'rish mumkin: *Daraxtning bargi ko'kardi – Daraxtning bargi ko'k.* Bunda fe'l o'zgarish jarayonini (ko'kardi – ko'k bo'ldi) anglatrsa, sifat shu predmetga xos belgini bildiradi.

Fe'llar lug'aviy jihatdan quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. Yurish-harakat fe'llari: *yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o'tmoq.*

2. Nutq fe'llari: *gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so'zlamoq, so'ramoq, yalinmoq, o'tinmoq, yolvormoq, vaysamoq, surishtirmoq, baqirmoq, o'shqirmoq, ming'irlamoq, to'ng'illamoq, aytmoq.*

3. Tafakkur fe'llari: *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol qilmoq, tasavvur qilmoq, hukm chiqarmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, gavdalanmamoq, fikr qilmoq.*

4. Natijali faoliyat fe'llari: *chizmoq, yozmoq, yasamoq, qurmoq, yaratmoq, bino qilmoq, asos solmoq, bo'yamoq, tozalamoq, yiqmoq, yemoq, artmoq, sayqal bermoq, o'chirmoq, nobud qilmoq.*

5. Holat fe'llari: *uxlamoq, kulmoq, yig'lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, isimoq, qizarmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo'lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo'lmoq, og'rinmoq.*

Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar.

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,

Kiydi ko‘k qilib sunbul zulfini parishonlar,
Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog‘imkim,
Ranj-u g‘ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Fe‘l gap tuzishda ot kabi sintaktik asos bo‘lib xizmat qiladi. Fe‘llarda uyushtiruvchilik xususiyati kuchli bo‘lib, ko‘pincha boshqa so‘zlarni o‘ziga ergashtirib, uni boshqarib keladi. Otning kelishik bilan turlanishi fe‘lda ifodalangan ma‘no talabi bilan bo‘ladi: *maktabni bitirmoq, muzeyga bormoq, ishdan chiqmoq*.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari – hol va to‘ldiruvchi asosan fe‘lga bog‘lanadi. Bular fe‘lda nutq elementlarini birlashtiruvchilik xususiyati kuchli ekanligini ko‘rsatadi.

Fe‘l turkumi boshqa so‘z turkumlariga nisbatan boy va murakkab kategoriyalar sistemasiga ega.

Hozirgi o‘zbek tilida fe‘lga xos grammatik kategoriyalar quyidagilar:

1. Nisbat (daraja). 2. Mayl. 3. Zamon. 4. Shaxs-son.

Fe‘lning mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalari predikativ munosabat ifodalanishining asosiy shakllariga kiradi, bu ko‘rsatkichlar sintaktik vazifani belgilashga asos bo‘lganligi uchun fe‘lning sintaktik munosabat shakllari sanaladi.

Fe‘lning o‘timli-o‘timsizligi, bo‘lishli-bo‘lishsiz shakllari ham fe‘lning alohida belgilaridandir.

Fe‘llarning o‘ziga xos morfologik shakllari bo‘lishi bilan birga quyidagi grammatik xususiyatlari ham mavjud:

1. Fe‘l boshqa turkumlardan yasaladi (ammo qo‘shimcha qo‘shish orqali fe‘l o‘zakdan fe‘l yasalmaydi): *sana, yangila, ikkilan, sensira, ko‘pay, dukurla, voyla, yo‘qla*.

2. Fe‘llar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy shakllarga ega: o‘qimoq, ishlamoq, qaror qilmoq, aytdi-qo‘ydi, aytib-aytib.

Yetakchi va ko‘makchi fe‘l istilohi bilan yuritiluvchi shakl mavjud bolib, ularni qo‘shma fe‘l nomi bilan yuritib bolmaydi: *qiyinalibroq qoldi, o‘qib chiqdi, o‘qib chiqib qo‘ya qol, javob berib tur*. Bu shakllarni tushilish jihatdan qanday nomlagan ma‘qul? Adabiyotlarda bu haqda qanday fikrlar keltiriladi?

Juft shakllar ba‘zan boshqa turkum so‘zlarini yasashga xizmat qiladi: *ur-yiqit, oldi-berdi, bordi-keldi*.

3. Sof fe‘llar va ravishdosh otlashmaydi, lekin sifatdosh otlashadi, harakat nomi otlar kabi turlanadi.

4. Fe‘llarda qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra barcha turlari: so‘z yasovchi va shakl yasovchilar mavjud.

5. Fe‘llar mustaqil ma‘nosini yo‘qotib yordamchi fe‘lga (*yiqila yozdi*), fe‘l ko‘makchiga (*uyga qarab, daryo bo‘ylab*), modal so‘zga (*aytmoqchi, deylik, aytaylik, demak*) ko‘chadi.

6. Fe‘lning grammatik shakllarsiz ifodalanadigan shakli doimo aniq nisbat, bo‘lishli, buyruq-istak mayli, kelasi zamon, 2-shaxs birlikda bo‘ladi: *bor, kel, ol*.

7. Fe‘lda morfemalar tartibi quyidagicha: asos+nisbat+bo‘lishsizlik+mayl+zamon+shaxs-son.

8. Fe‘llarning asosiy sintaktik vazifasi kesim. Fe‘lning xoslangan shakllari gapning barcha bo‘laklari vazifasida kela oladi: Karimjon *o‘qigan*. *O‘qigan* yutar. *O‘qigan* odam elda aziz. Bola *shoshib* gapirdi. *O‘qimoqni* istayman.

Fe‘llar grammatik aloqaga kirishmaydigan bo‘lak – kirish so‘z ham bo‘lib keladi: *Aytmoqchi, u keldimi?*

Fe‘lning tuslanishli va tuslanishsiz shakllari

Fe‘lning shaxs-son shakli bilan o‘zgarishi *tuslanish* deyiladi. Tuslanish sistemasiga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra fe‘llar ikki turga bo‘linadi: 1. Tuslanishli fe‘llar. 2. Tuslanishsiz fe‘llar.

Tuslanishli fe‘llar tuslanish sistemasi doirasida bo‘ladi, ya‘ni tuslanishli fe‘l mayl yoki zamon kategoriyasiga mansub shakl hisoblanadi; ma‘lum bir fe‘l shakli biror mayl yoki zamon ma‘nosini ifodalasa, tuslanishli fe‘l hisoblanadi: *yozing, kelsin (buyruq-istak mayli), olyapman (ijro mayli, hozirgi zamon)* kabi.

Fe'ning mayl yoki zamon shaklini hosil qilmaydigan shakllar ham bor. Ular tuslanish sistemasida bo'lmaydi va shunga ko'ra *tuslanishsiz fe'l* deyiladi. Bular sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi shakllari bo'lib, sifatdosh fe'ning sifatga xos vazifaga moslashgan shakli (*yorishgan osmon*), ravishdosh ravishga xos vazifaga moslashgan shakl (*shoshib keldi, o'qiy-o'qiy zerikdi, aytib chiqqach, olgani keldi*), harakat nomi fe'ning otga xos vazifaga moslashgan shaklidir (*yozishni biladi, o'qimoqni xohlamoq*). Sifatdosh va ravishdosh yasovchi ayrim affiks(-b, -ib, -a, -y; -gan, -digan, -r, -ar, -mas, -ajak)lar zamon shakllari bilan shakldoshlik hosil qiladi: *Avvalgi kun borganman. Ishga shoshibdi.*

Yuborilgan xat (yuborilgan – sifatdosh, tuslanishsiz shakl), *xat yuborilgan* (yuborilgan – ijro mayli, uzoq o'tgan zamon fe'li, tuslanishli shakl), *hovliqib kirdi* (hovliqib – ravishdosh, tuslanishsiz shakl), *bola hovliqibdi* (ijro mayli, o'tgan zamon hikoya fe'li, tuslanishli fe'l). Harakat nomi shakli mayl, zamon, shaxs-son affikslarini umuman qabul qilmaydi. -ish qo'shimchasidan so'ng tuslovchi ishlatilsa (*kelishdi*), bu forma harakat nomi emas, balki birgalik nisbat shakldagi fe'ning tuslangan ko'rinishidir.

Ravishdoshlar -(i)b, -a(y), -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani) affikslari bilan hosil qilinadi.

Ravishdoshning -(i)b, -a(y) shakllari o'tgan zamon hikoya fe'li (*shoshibman*), hozirgi-kelasi zamon fe'li (*yozaman, o'qiyman*) zamon qo'shimchalari bilan omonimlik hosil qiladi. -gach (-kach, -qach), -guncha(-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani) affiksli ravishdoshlar zamon shakllari bilan shakldoshlik hosil qilmaydi.

O't qo'yubon kuyduradurg'on o'zim,
Hokiming-u o'lduradurg'on o'zim.

Sifatdosh -gan(-kan, -qan), -digan, -yotgan, -r(-ar), -mas, -ajak, -gusi, -g'usi, -(u)vchi affikslari bilan hosil qilinadi.

Sifatdoshning -gan(-kan, -qan), -digan, -yotgan, -r(-ar), -mas shakllari uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon maqsad, o'tgan zamon davom, kelasi zamon gumon va maqsad fe'llari, -ajak aniq kelasi zamon shakli zamon shakllari bilan omonimlik hosil qiladi (*shoshganman, boradigan edim, olayotgan edi, o'qirman, yozajakman*); -gusi, -g'usi, -(u)vchi affiksli shakllari zamon qoshimchalari bilan shakldoshlik hosil qilmaydi.

Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Fe'ning bo'lishli shakli harakatning bajarilish haqidagi tasdiqni bildirib maxsus ko'rsatkichga ega emas, bo'lishsiz shakl esa harakatning bajarilishi haqidagi inkorni bildiradi va quyidagi grammatik vositalar orqali hosil qilinadi:

1. Fe'l asosga **-ma** affiksini qo'shish bilan. Bu affiks inkor ma'nosini ifodalovchi asosiy qo'shimcha hisoblanadi, harakat nomi va maqsad ravishdoshiga qo'shilmaydi: *boraman – bormayman, otganman – otmaganman, aytibman – aytmabman* kabi.

Ravishdoshda bo'lishsizlik *-may, -mayin, -masdan*; sifatdoshning -r, -ar shakli *-mas* orqali bo'lishsizlik ifodalaydi.

Qadimgi turkiy tilda ravishdoshning bo'lishsiz shakli *-mazib, -madin, -mayin* tarzida ishlatilgan.

Harakat nomining bo'lishsiz shakli *-maslik* affiksi orqali yasalsa, maqsad ravishdoshining bo'lishsiz shakli haqida fikrlar har xil. Ulug' Tursunov darsligida: "*Maqsad ravishdoshlarida bo'lishsizlik emas to'liqsiz fe'li orqali ifodalanadi: Siz bizdan yordam olgani emas, bizga rahbarlik qilgani kelgansiz*" desalar, A.Hojiyevning fikricha¹ "*ma... Faqat maqsad ravishdoshi (aytgani ketdi) bilan qo'llanmaydi. Lekin bundan maqsad ravishdoshi bildirgan harakat inkor etilmaydi degan xulosa chiqmaydi. Bu ravishdosh anglatgan harakat inkori ikki usulda ifodalanadi: 1) asosiy fe'ning bo'lishsiz formasi orqali: ko'rgani kelmadi, bilgani keldi; 2) emas to'liqsiz fe'li orqali: Toqqa o'ynagani emas, ish bilan chiqdik*" deyilsa, shu darslikning 380-betida "*Bu turdagi (-gani nazarda tutilyapti) ravishdoshning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning bo'lishsiz formaga ega emasligidir*" deyiladi.

¹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi. – 1980. – 448 b.

Ritorik so‘roq gaplarda ba‘zan -ma affiksi tasdiq ma‘nosini anglatadi: *Vatanni kim sevmaydi?* Ritorik so‘roq gaplarda bo‘lishli shakl bo‘lishsizlik ma‘nosini ifodalaydi: *Sizdan yordamimni ayarmidim?*

-ma affiksi yetakchi va ko‘makchi fe’llarga quyidagicha qo‘shiladi:

a) yetakchi fe’lga: *uxlamay chiqdi, tanimay qoldi;*

b) ko‘makchi fe’lga: *o‘qib ko‘rmadi, yozib olmadi;*

d) yetakchi va ko‘makchi qismning har ikkisiga: *aytmay qo‘yma, olmay kelma, ko‘rmay qo‘yma.* Ikki fe’lga qo‘shilgan bo‘lishsizlik tasdiq ifodalaydi: *Botirjon kitobni o‘qimay chiqmaydi.*

2. **Emas** yordamchisi asosan -gan affiksli sifatdash va -moqchi affiksli kelasi zamon fe’lining bo‘lishsiz shaklini hosil qiladi: *kutgan emas, olmoqchi emas.* Emas fe’ldan tashqari ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi so‘z turkumlariga ham qo‘shilishi mumkin: *akam emas, yaxshi emas, o‘nta emas, bu emas, oz emas.*

3. **Yo‘q** yordamchisi bilan hosil qilinadi. Bu yordamchi asosan -gan, -yotgan affiksli sifatdashlarga qo‘shilib, bo‘lishsizlik shakli hosil qiladi, bu paytda sifatdash egalik affiksini oladi: *Ko‘rganim yo‘q, olgani yo‘q.*

Gap yo‘q! ritorik so‘roq gapida yo‘q tasdiq ma‘nosini ifodalaydi.

4. **Na... na** inkor yuklamasi yordamida. Bu yuklama bo‘lishli fe’l bilan ishlatilsa, bo‘lishsizlik ma‘nosi ifodalanadi: *Na bordi, na ko‘rdi.* Bu yuklama inkor shaklidagi gaplar tarkibida kelsa, bo‘lishsizlik ma‘nosini yanada kuchaytiradi: *Na zulmat, na bo‘ron, na ofat haqiqat yo‘lini to‘solmas.*

Inkor yoki tasdiq ma‘nosini ifodalanishida so‘roq bildiruvchi so‘z, yuklamalar va ohangning ham vazifasi bor. Bunda inkor shakl tasdiqni, tasdiq inkorni ifodalashi mumkin:

– *Uy ishini bajardingmi? – Bajaradi-ya, bajaradi.*

– *Bajarmadi-ya, bajarmadi.*

– *Bu gapni aytib bo‘pman* tipidagi gapda ham inkor munosabat aks etgan.

Bo‘lishsizlik olmoshi qatnashgan har qanday gap bo‘lishsiz shaklda bo‘ladi: *Bu xabarni hech kim eshitgan emas.*

O‘zbek tilida inkorning ifodalanish usullari va inkorni ifodalovchi vositalar ko‘p, ammo fe’lning bo‘lishsizlik formasini yasovchi vositalar uchta: **-ma** affiksi, **emas** va **yo‘q** yordamchilaridir.

Til tarixida bilmon – bilmayman, bilmam shaklli bo‘lishsizlik ishlatilgan.

O‘timli va o‘timsiz fe’llar

Fe’l anglatgan harakat va holatning obyektga munosabati turlicha bo‘ladi. Bir xil fe’llar harakatning biror narsaga o‘tganligini bildiradi; predmet – obyekt esa tushum kelishigidagi ot bilan ifodalanadi: *kitobini ko‘rdim, rasmni chizding* kabi. Ba’zi fe’llar esa harakatning predmet – obyektga o‘tmaganligini bildiradi, ular tushum kelishigidagi so‘zni boshqarib kelmaydi: *Bola ketdi. Ahmad yuvindi.* Fe’llar harakat-holatning predmet va obyektga munosabatiga qarab ikki turga bo‘linadi: 1.O‘timli (obyektli) fe’llar. 2.O‘timsiz (obyektsiz) fe’llar.

O‘timli fe’l tushum kelishigidagi so‘zni boshqarib keladi, biror predmetga o‘tgan harakatni, predmetga qaratilgan va unda biror o‘zgarish yuzaga keltiradigan harakat hamda holatni bildiradi: *Tong shamoli sochlarimni siladi.* Fe’l anglatgan harakat va holat narsaning bir qismiga o‘tganligi tasdiqlansa, o‘timli fe’l chiqish kelishigidagi otni boshqarib keladi: *Suvni(suvdan) ichdi, olmani (olmadan) oling, nonni (nondan) edi.*

O‘timsiz fe’llar tushum kelishigidagi so‘zni boshqarib kela olmaydi, odatda, boshqa narsaga o‘tmagan, bajaruvchining o‘zida qolgan harakatni bildiradi: *Salima indamay o‘rnidan turdi.* Ayrim fe’llar kontekstda qanday so‘zlar bilan bog‘lanib kelishiga qarab o‘timli ham, o‘timsiz ham bo‘lib kela oladi. Bunday fe’llarda o‘timli-o‘timsizlik gap ichida shu fe’lning o‘z yoki ko‘chma ma‘noda qo‘llanishiga qarab aniqlanadi:

a) o‘timli: *Ahvolini qara. Bobur masalani ishladi.*

b) o‘timsiz: *Ular bir-birlariga mehribonlik bilan qaradilar. Bobom bog‘da ishladi.*

Fe’ldagi o‘timli-o‘timsizlik nisbat kategoriyasi bilan uzviy bog‘langan, chunki nisbat yasovchi affiksni olgan fe’lning o‘timli-o‘timsizligida quyidagicha o‘zgarish yuz beradi:

1) o'timli fe'l o'timsiz fe'lga aylanadi, o'timsizlashadi (o'zlik va majhul nisbatlarda): *yuvdi – yuvindi, kiydi – kiyindi, yozdi – yozildi, ochdi – ochildi* kabi;

2) o'timli fe'ldan yana o'timli fe'l hosil qilinadi (orttirma nisbat shaklida): *ichdi – ichirdi, yozdi – yozdirdi, o'qidi – o'qitdi*;

3) o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanadi, o'timlilashadi (orttirma nisbat shaklida): *keldi – keltirdi, uxladi – uxladi, kuldi – kuldirdi*.

Demak, o'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar faqat o'timsiz (*kiyindi, otlandi, sudraldi, osildi*), orttirma nisbat shaklli fe'llar faqat o'timli (*chaqirtir, to'xtat, turg'az*), birgalik nisbatdagi fe'llar o'timli (*yozishdi, o'qishdi*) yo o'timsiz (*borishdi, kulishdi, ishlashdi, ketishdi*) bo'lishi mumkin.

O'timli-o'timsizlik analitik shakllarda yetakchi qismga qarab belgilanadi: *bilib oldi, yoza boshladi, o'qib chiqdi – o'timli; kulib qo'ydi, yetib oldi – o'timsiz*.

Agar nisbat qo'llangan bo'lsa, unda manzara quyidagicha bo'ladi: kitobni o'qib chiqdi, kitob o'qib chiqildi, kitobni o'qitib yubordi, mavzuni aytib yuborishdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'llarda qaysi kategoriyalar mavjud?
2. Fe'ning qaysi kategoriyalari belgisiz ifodalanadi?
3. Qo'shma fe'l bilan yetakchi-ko'makchi fe'lni taqqoslang.
4. To'liqsiz fe'l deb qanday fe'lga aytiladi?
5. To'liqsiz fe'llar qaysi qo'shimchalarni olmaydi?
6. *Bo'l* fe'lining ko'makchi yoki mustaqil fe'lligini qanday farqlaysiz?
7. Tuslanishli fe'llar qaysilar?
8. O'timli va o'timsiz fe'lni qanday farqlaysiz?
9. Fe'ning bo'lishsiz shakli morfologik usul bilan qanday yasaladi?
10. Sintaktik yo'l bilan bo'lishsizlik qanday hosil qilinadi?
11. -ma qo'shimchasining omonimligiga misol keltiring.
12. Fe'l shakllarida bo'lishsizlik qanday ifodalanadi?
13. Yetakchi-ko'makchi fe'llarga bo'lishsizlik qanday tartibda qo'shiladi?
14. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

2- ma'ruza. Fe'l nisbat(daraja)lari: aniq, o'zlik, majhullik, birgalik, orttirma nisbatlarining grammatik ma'nosi va shakllari

Reja:

1. Fe'ning nisbat shakllari.
2. O'zlik nisbati shakli.
3. Majhul nisbat shakli.
4. Birgalik nisbat shakli.
5. Orttirma nisbat shakli.

Tayanch so'zlar: nisbat, daraja, obyekt, subyekt, bosh nisbat, aniq nisbat, aniqlik nisbati, bosh daraja, o'zlik nisbati, majhul nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbat, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.

13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
25. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-5- tomlar. – Toshkent, 2006-2008.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma// Toshkent: Akademnashr, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Fe’ning nisbat shakllari

Nisbat shakli – bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini ko‘rsatuvchi fe’l shakli.

Fe’llarda harakat va bajaruvchi munosabatining besh ko‘rinishi ajratiladi:

- 1) harakat bajaruvchisi aniq: *Anvar tuflisini kiydi;*
- 2) bajaruvchi harakatni o‘z ustida amalga oshiryapti: *Anvar kiyindi;*
- 3) harakatning bajaruvchisi noma’lum: *Tuflini kiyildi;*
- 4) harakat jarayonida kimdir orttirilayapti: *Anvar tuflini kiydirdi;*
- 5) bajaruvchi birdan ortiq, birgalikdagi harakat: *Tuflilarini kiyishdi.*

Nisbat shakli fe’ning tasniflovchi lug‘aviy shakli hisoblanadi. Nisbatini yo‘qotgan fe’l fe’ldan chiqib ketadi: *ko‘ra, qaraganda, qaramay, osha, o‘ta, eshitishimcha, aytishlaricha, demak, qarab.* Nisbat shakli fe’lga o‘zak yoki asos – negizdan keyin, ya’ni boshqa shakl yasovchilardan oldin qo‘shiladi. Nisbat shaklining besh turi ajratiladi. Nisbat (daraja) kategoriyasi fe’l ifodalagan harakat bilan uning subyekt (bajaruvchisi) va obyekt (harakat qaratilgan narsa) orasidagi o‘zaro munosabatni ko‘rsatadi. Harakat bilan subyekt va obyekt orasidagi munosabat har xil, shunga ko‘ra o‘zbek tilida fe’l nisbatlari beshta. Fe’l nisbatlari yasovchi qo‘shimchalar so‘z shakli hosil qiluvchi qo‘shimchalar hisoblanadi, chunki ular fe’ning ma’nosini tamoman o‘zgartirmay, unga qo‘shimcha ma’no qo‘shadi.

Bosh (aniq) nisbat

Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe’l shakli: *bildi, ko‘rdi, so‘radi, aytmadi, qaytmadi.*

Bosh nisbat(aniq)da fe’l anglatgan harakatni bajaruvchisi shaxs subyektga teng keladi. Bosh nisbatning maxsus affiksi yo‘q. Bu nisbat ma’nosi fe’l asosi orqali ifodalanadi. Shuning uchun bosh nisbatda o‘timli fe’llar harakat subyekt tomonidan bajarilib, to‘g‘ri obyektga o‘tganligini anglatrsa, o‘timsiz fe’llar bevosita subyekt bilan bog‘langan, uning fazodagi harakatini bildiradi: *Fanda inqilobni biz qildik ilk bor. Onam zavodda ishlaydi.*

O‘zlik nisbati shakli

Bajaruvchining o‘z ustida amalga oshiradigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe’l shakli. Maxsus shakli: *-(i)n, -(i)l – tashlan, ko‘rin, yuvin, taran, so‘kin, suyan, so‘zlan, yutin, kiyin, artin, kavshan, o‘pkalan, tanil, ayiril, qayril, bo‘g‘il, tug‘il, qoril, yig‘il, otil, qiynal, teshil, tikil.*

Ayrim manbalarda o'zlikning *-(i)sh* shakli ham qayd etiladi: *joylashdi, kerishdi, qorishdi*. (Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: pedagogika institutlari filologiya fakulteti studentlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1980. – B. 329)

O'zlik nisbat shakli, asosan o'timli, qisman o'timsiz fe'llardan yasaladi: *kiy(o'timli)in, izlan, shosh(o'timsiz)il*.

Hatto o'timli fe'llarning barchasidan o'zlik nisbat yasalmaydi: **yayra, yashna, qichqir, uxla, bor, kel, o'qi, hayda, ek, min, kes, sug'or, hidla**.

Fe'l yasovchi *-lan* shakli bilan yasalgan *jonlanmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, zavqlanmoq, xezlanmoq* fe'llari aniq nisbat shaklida bo'ladi.

Fe'lning o'zlik nisbati subyekt tomonidan bajarilib, yana subyektning o'ziga qaytgan harakat va holatni bildiradi. Harakatning bajaruvchisi ham, harakat qaratilgan predmet ham bir shaxsning o'zi bo'ladi, ya'ni fe'lning aniq nisbatida harakat subyektdan boshlanib, boshqa predmetga o'tsa, o'zlik nisbatda esa subyektning o'zida qoladi. O'zlik nisbat o'timli fe'ldan yasaladi, o'timli fe'l o'zlik nisbat shaklida o'timsizlashadi.

O'zlik nisbati o'timli fe'l asosiga **-n, -in, -l, -il**, ba'zan **-sh, -ish** affiksini qo'shishdan yasaladi: *kiyin, taran, cho'mil, ishqal, so'rash, joylash*. Fe'l yasovchi murakkab **-lan** affiksi bilan yasalgan fe'llar ham o'zlik nisbat ma'nosida bo'ladi: *afsuslanmoq, shodlanmoq*.

O'zlik nisbat o'timsiz fe'l asosidan umuman yasalmaydi, shuningdek, ayrim o'timli fe'llardan ham yasalmasligi mumkin: **kul, semir, kes, to'qi, yayra, qichqir, uxla, bor**.

O'zlik nisbat quyidagi ma'nolarga ega:

1. Sof o'zlik ma'nosi ifodalanadi. Bunda harakat subyektning o'zida bo'lgan fizik o'zgarishlarni bildiradi, subyekt harakatni o'ziga to'la qabul qiluvchi obyekt ham sanaladi: *yuvin, bezan, yasan, egil, sudral*.

2. Subyektning ruhiy holatidagi o'zgarishlar ifodalanadi. Bunday fe'llar doim o'zlik shaklida qo'llanadi, nisbat affiksini fe'l asosdan ajratib bo'lmaydi: *quvon, seskan, faxrlan, taajjublan*.

3. Subyektning o'rin, joy almashtirish bilan bog'liq o'zlik ma'nosi. Bunda ham harakat bevosita subyektning o'ziga yo'naltirilganligi, uning makondagi harakati, o'rin almashtirish kabi ma'nolar anglashiladi: *buril, silkin, tashlan*.

O'zlik nisbat affiksi yetakchi-ko'makchi shakllarning yetakchi qismiga qo'shiladi: *sevinib ketdi, yuvinib oldi, kiyina boshladi, o'ylanib qoldi*.

Majhul nisbat shakli

Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi nisbat shakli, maxsus shakli *-(i)n, -(i)l*: *tozalandi, takrorlandi, egarlandi, tarjima qilindi, o'qib bo'lindi, olindi; o'qildi, haydaldi, o'raldi, yasaldi, archildi, yugurtirildi, keltirildi, to'xtatildi, yurildi, tushildi, tushirildi, topshirildi*. Bunda harakatni kim bajarishi emas, bajarilishi muhim bo'ladi: *yer haydaldi. Pol yuvildi. Xona tozalandi*.

Majhul nisbat shaklida harakatning subyektiga emas, balki harakatning o'ziga va uning obyektiga ko'proq e'tibor beriladi. Bunda harakat obyektiga bosh kelishik shaklida kelib, gapda ega vazifasini bajaradi. Harakat subyektiga vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi (bunda to'ldiruvchi ko'pincha qo'llanmaydi). Gapda ega vazifasida kelgan so'z harakatni bajarmaydi, balki to'ldiruvchi vazifasidagi subyektning harakatini o'ziga qabul qiladi. *Vazifa Erkin tomonidan bajarildi* gapida harakatni *vazifa* emas, balki *Erkin* bajargan, lekin gapda *Erkin* ega emas, balki to'ldiruvchi; *vazifa* esa ega vazifasida kelgan.

Majhul nisbat o'timli fe'l asosiga **-l, -il, -n, -in** affikslarini qo'shish bilan hosil bo'ladi, o'timli fe'l o'timsizlashadi: *ko'rildi, yuvildi, g'amlandi, damlandi*. Ba'zan o'timsiz fe'llardan ham majhul nisbat yasaladi: *yurildi, tirilsin, borildi*. Majhul nisbat shaklida harakatning egasi noma'lum bo'ladi, shuning uchun ba'zan har uchala shaxs ham ega o'rnida kela oladi: *xat yozildi* (men, sen, u yoki bola tomonidan yozildi).

Rasmiy ish uslubida majhul nisbatdagi fe'l buyruq-istak maylining 3-shaxs shaklida kelsa, 2-shaxs o'rnida keng ishlatiladi: *javob berilsin, talab qondirilsin, yo'l berilsin*.

Majhul nisbat affiksi yetakchi-ko'makchi fe'llarning yordamchi qismiga qo'shiladi: *o'qib tashlandi, yozib berildi, o'qib chiqildi*. Majhul va o'zlik nisbatdagi fe'llar bir xil **-il, -in** orqali

yasaladi. Ularni ko‘proq nutq orqali farqlaymiz: *Sherali tadbirkorlar uyushmasiga yozildi* (o‘zlik). *Xat yozildi* (majhul). *Talabalar qishki sinovlarga puxta tayyorlandi* (o‘zlik). *Mehmonlarga dasturxon tayyorlandi* (majhul). *Rustam erkalanib dadasining yelkasiga osildi* (o‘zlik). *Qishlik olmalar shipga osildi* (majhul).

Birgalik nisbat shakli

Fe‘lning birgalik nisbatida ish-harakat bir necha shaxs tomonidan bajarilganligi anglashiladi. Birgalik nisbat o‘timli va o‘timsiz fe‘l asosiga **-sh, -ish, -lash** affiksini qo‘shish ila yasaladi: *kulishdi, o‘qishdi, ishlashdi, do‘stlashdi, gaplashdi*. Birgalik nisbatdagi fe‘llar quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi.

1. Birgalik-ko‘plik ma‘nosini. Harakat bir qancha shaxs tomonidan bajariladi: *Ismoil, Ikrom dalaga borishdi*.

2. Ko‘maklashish ma‘nosini ifodalaydi. Harakat asosan bir subyekt tomonidan bajarilib, boshqa subyekt unga yordamchi sifatida qatnashadi. Bu vaqtda ko‘pincha asosiy subyektning anglatuvchi so‘z to‘ldiruvchi vazifasida, ko‘maklashuvchi subyektning anglatuvchi so‘z esa ega vazifasida keladi. *Usta romlarni taxladi, Usmon ustaga ko‘maklashdi*.

3. O‘zaro galma-gal bajarilgan harakat ma‘nosini ifodalaydi: *urishdi, quvishdi*. Ko‘plik ma‘nosini ifodalashda ba‘zan birgalik daraja shaklidagi fe‘lning ko‘plik ifodalovchi -lar affiksi bilan qo‘llanish hollari ham uchraydi, bu adabiy til me‘yoriga mos emas: *Ona-bola uzoq yig‘lashdilar, ko‘z yoshlari bitguncha bo‘zlashdilar*. Ma‘no taraqqiyoti natijasida ayrim fe‘llar nisbat shakllarida mustaqil fe‘lga aylanishi mumkin. *Kelishmoq, kirishmoq* kabi fe‘llar ikki xil baholanadi: birgalik nisbatda kelganda o‘zaro birgalikdagi harakatni bildiradi; mustaqil fe‘lga teng bo‘lganida esa *shartlashmoq, bir fikrga kelmoq, harakatni bajara boshlamoq* kabi yangi leksik ma‘nolarni anglatadi: *Bolalar topshiriqni bajarishga kelishdi*.

Birgalik shakli yasovchi **-ish** affiksi fe‘l asosga ikki marta qo‘shilishi mumkin: *xayrlashishdi, ko‘rishishdi, quchoqlashishdi*.

Birgalik nisbat affiksi yetakchi-ko‘makchi fe‘lning ko‘proq ko‘makchi qismiga, ba‘zan yetakchi qismiga qo‘shilib keladi: *o‘qib tashlashdi, ayta olishdi, ko‘rishib chiqdi*.

Ikki fe‘ldan tuzilgan qo‘shma fe‘llarning keyingi qismiga qo‘shiladi: *sotib olishdi, olib ketishdi, olib kelishdi*.

Ba‘zan birgalik nisbati qo‘shimchasi fe‘l yasovchi **-la** qo‘shimchasi bilan yaxlitlanib, bir butunlik hosil qiladi: *go‘zallashmoq, ommalashmoq, hazillashmoq, o‘rtoqlashmoq, tezlashmoq* kabi. Bunday fe‘l aniq nisbatda deyiladi.

Orttirma nisbat shakli

Orttirma nisbatdagi fe‘llar ish-harakatning biror boshqa vosita orqali bajarilganini anglatadi. Harakatni bajarishda, subyektidan tashqari, yana boshqa shaxsning ishtirok etganligi anglatiladi: *qurit, yozdir, oqiz, ko‘rsat*.

Bajaruvchining ta‘siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi nisbat shakli quyidagi shakllar bilan yasaladi:

1) **-ar** – faqat 2 ta fe‘lga qo‘shiladi: *chiqar, qaytar*.

2) **-ir – t, ch, sh** tovushi bilan tugagan fe‘l o‘zagiga: *botir, qotir, bitir, uchir, ichir, qochir, shoshir, oshir, tushir, pishir*.

3) **-giz/kiz/qiz/g‘iz/gaz/kaz/qaz, -giz/g‘iz** jarangli undosh bilan tugagan fe‘lga qo‘shiladi: *yurgiz, kirgiz, turg‘iz, ko‘rgaz*;

-kiz/qiz/kaz/qaz jarangsiz undosh bilan tugagan fe‘lga qo‘shiladi: *ketkiz, o‘tkaz, yutqiz, o‘tqaz*).

4) **-dir/tir** (**-dir** unli va jarangli undosh bilan tugagan fe‘l o‘zagiga qo‘shiladi: *yedir, yoydir, buzdir, kuldir, qoldir, to‘ldir, oldir*; **-tir** – jarangsiz va **r, n, y, l** kabi jarangli undosh bilan tugagan fe‘l o‘zagiga qo‘shiladi: *toptir, ayttir, uqtir, ilintir, oqartir, ko‘paytir, kuchaytir, keltir*)

5) **-t**. bu affiks asosan **a, i** unlisi bilan tugagan fe‘llarga qo‘shiladi: *ishlat, so‘rat, to‘xtat, qurit, cho‘qit, qizit*. **-tir, -t** paralel ishlatiladi: *o‘zgartir – o‘zgart*.

-it: *o‘qit, yurit, kirit*.

6) **-sat**: *ko‘rsat*

7) -iz (-ir -ar affiksning fonetik varianti) – q, m tovushi bilan tugagan ba'zi fe'lga qo'shiladi: oqiz, tomiz, emiz (tegiz).

Bir fe'lning o'ziga orttirma nisbatning birdan ortiq qo'shimchasi qo'shilishi ham mumkin. Bu bajaruvchi va bajartiruvchi soni ortishi bilan belgilanadi: yozdir – yozdirtir, o'qit – o'qittir.

Orttirma nisbat qo'shimchasi bir-biriga ma'nodosh bo'lib kelishi mumkin: bitir – bitkaz, yedir – yegiz, kirgiz – kirit, ko'payt – ko'paytir, to'ldir – to'lg'iz.

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'timsiz va o'timlini fe'lni ham o'timliga aylantiradi: kel – keltir, to'l – to'ldir, o'qi – o'qit.

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'zlik nisbat qo'shimchasidan keyin qo'shiladi: yuvintir, kiyintir.

Orttirma nisbat shakllari yetakchi-ko'makchi fe'llarning yetakchi qismiga qo'shiladi: kuldirib yubor, oqizib ketdi, yozdirib oldi, bitkazib tashladi.

Uslubiy belgilari. O'zlik va majhul nisbat qo'shimchasi shakldosh: yuvildi (majhul), tug'ildi (aniq), yopindi (o'zlik), takrorlandi (majhul). Ularni farqlash uchun kim tomonidan, nima tomonidan so'rog'idan biri berib ko'riladi. Majhul nisbatdagi fe'l bu so'roqni olgan so'zga bog'lanadi: yuvildi (kim tomonidan), poymol qilindi (nima tomonidan).

Ayrim fe'llarning o'zlik yoki majhul nisbatda ekanligi matndan aniqlashadi: Mirkomil xayolga berildi – Mirkomilga mukofot berildi. Salimjon imtihonga tayyorlandi – Mehmonlar uchun joy tayyorlandi.

Fe'l yasovchi -lash murakkab shakli bilan yasalgan aniq nisbatdagi fe'llar shaklan birgalik nisbatga o'xshaydi: go'zallashmoq, ommalashmoq, hazillashmoq, o'rtoqlashmoq, tezlashmoq kabi.

Fe'lga birdan ortiq nisbat shakli qo'shilganda, uning qaysi nisbatda ekanligi oxirgi qo'shilgan nisbat shakliga ko'ra belgilanadi: to'xta+t+il+di, kiy+in+tir+il+di, yugur+tir+il+di (majhul nisbat); art+in+ish+di, kel+tir+ish+di, o'qi+t+tir+ish+di (birgalik nisbati).

Fe'lda qaysi nisbat qo'shimchalari borligi so'ralganda barcha qo'shimcha e'tiborga olinadi: to'xta+t+il+di (orttirma, majhul), art+in+ish+di (majhul, birgalik).

Fe'ldagi nisbat qo'shimchalari birga kelgan vaqtda quyidagi tartibda joylashadi: Fe'l asos + o'zlik nisbati + orttirma nisbati + majhul nisbat + birgalik nisbati: kiy+in+tir+il+ish+di.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'ldagi nisbat kategoriyasi qanday grammatik belgi?
2. O'zlik va majhul nisbatlarni qanday farqlaysiz?
3. Qaysi nisbat shakli o'timli fe'lni o'timsizlashtiradi?
4. Qaysi nisbat shakli o'timsiz fe'lni o'timlilashtiradi?
5. Bir fe'lga bir necha marta qo'shila oladigan fe'l nisbatini aniqlang.
6. Bir fe'lda bir nechta nisbat shakli bo'lsa, fe'l nisbati qanday aniqlanadi?
7. Fe'l nisbati qo'shimchalari yetakchi-ko'makchi va qo'shma fe'llarga qanday holda qo'shiladi?
8. Fe'l nisbat qo'shimchalarining qaysilarida omonimlik mavjud?
9. Fe'l nisbati qo'shimchalari qaysi yozuv tamoyilida ifodalanadi?
10. -ish formasining o'zlik va birgalik nisbatdaligini qanday farqlaysiz?
11. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

3- ma'ruza. Fe'ning vazifadosh shakllari – ma'lum bir sintaktik vazifa bajarishga mos shakllari: sof fe'l, harakat nomi. Sof fe'l, uning kesim vazifasini bajarishga moslashganligi. Harakat nomi, uning grammatik xususiyatlari, yasalishi; fe'lga va otga xos xususiyatlari

Reja:

1. Fe'ning vazifa shakllari.
2. Harakat nomining grammatik tabiati.
3. Harakat nomining sintaktik vazifasi.

Tayanch so'zlar: ravish, ravishdosh, maqsad ravishdoshi, payt ravishdoshi, holat ravishdoshi, sifat, sifatdosh, otdosh, tuslanishli fe'l, tuslanishsiz fe'l, turlanish, sof fe'l, harakat nomi, zamon shakli, bo'lishsizlik, leksik shakl yasovchi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O', Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Fe'ning vazifa shakllari

Fe'l gapda to'rt xil shaklda qatnashadi. Shunga ko'ra, to'rt vazifa shakli ajratiladi: sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi.

Sof fe'l – tuslangan, ya'ni shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor shakliga ega fe'l shakli. Sof fe'l gapda fe'l kesim vazifasida keladi: *Men ishlayapman.*

Fe'ning gapda ma'lum bir vazifani bajarishga moslashgan shakllari funksional(xoslangan) shakllar hisoblanadi, ular quyidagilar:

- 1) harakat nomi;
- 2) ravishdosh;
- 3) sifatdosh.

Harakat nomining grammatik tabiati

Harakat nomi harakat va holatning nomini bildirib, gapda otga xos vazifalarda keladi. Harakat nomi fe'l va otga xos grammatik belgilarga ega, ya'ni bir tomondan fe'l kabi:

- 1) mazmunan harakat bildiradi;
- 2) o'timli-o'timsizlikni ko'rsatadi;
- 3) nisbat kategoriyasiga ega;
- 4) boshqa fe'l shakllari kabi kelishiklarni boshqarib keladi.

Ikkinchi tomondan esa ot kabi;

- 1) kelishik va egalik affiksini olib, turlanadi;
- 2) gapda ot bajargan vazifada – ega, to'ldiruvchi, qaratuvchi va kesim vazifasida keladi.

Fe'l harakatni bajaruvchi shaxs bilan bog'liq holda ifodalaydi. Harakat nomi esa harakatni shaxs va narsaga munosabati orqali emas, balki jarayon holida uning nomini bildiradi. Fe'ldan yasaliib, mazmunan harakat bildirgan otlar: *yig'in, yig'im, o'rim, terim, yamoq* kabilarni harakat nomi bir-biridan keskin farq qiladi. Mazmunan harakat bildirgan otga predmetlik ma'nosi bo'ladi, ular harakatni predmet sifatida bildiradi: *Meva terimi boshlandi*. Harakat nomi esa asosan harakat ma'nosiga ega, harakatning nomini jarayon holida bildiradi: *Boshoq terish oltin terish bilan barobar*.

Harakat nomi shakli fe'lni ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, ot kesim vazifalariga xoslaydi: Ega: *Kekkayish sahroda yurgan norga yarashur*. To'ldiruvchi: *Kutishni yoqtirmayman*. Qaratqich aniqlovchi: *Chekishning zarari yomon*. Ot-kesim – *Yagona maqsadimiz – o'qish*.

Harakat nomi quyidagicha yasaladi:

1. -sh, -ish affiksini fe'l o'zakka qo'shish bilan: *kelish, borish, ishlash*.

2. -v, -uv qo'shimchasi bilan; *boruv, keluv, chiquv*. Saylov, uchrashuv kabi harakat nomlari hozirda ot turkumiga siljigan.

3. -moq affiksini qo'shish bilan: *bormoq, ishlamoq, kelmoq, bormoq, olmoq*. Bu shakl bilan yasalgan harakat nomlarining aksariyat qismi otga siljigan: *ilmoq, topishmoq, quymoq, emak, chertmak*.

-sh, -ish, -v, -uv affikslari bilan yasalgan harakat nomlari otga juda yaqin turadi, -moq shakli bilan yasalganlari esa fe'lga yaqin turadi, shunga ko'ra fe'lning noaniq shakli – infinitiv, bosh shakl deb ham yuritiladi.

- r / a r : ucharga qanot, turarga joy, ko'rarga ko'z.

- r / a r qo'shimchasi sifatdoshdagi shunday qo'shimcha bilan shakldosh.

Harakat nomining sintaktik vazifasi

Harakat nomi sintaksisda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ega: *Yomg'irning sharros quyishi hammani cho'chitib yubordi*.

2. To'ldiruvchi: *U hazillashishni bilmas edi*.

3. Qaratuvchi: *Chopishning oqibati ko'rina boshladi*.

4. Kesim: *O'qimoq – ulg'aymoq*.

5. Hol: *Davolanish uchun uzoqdan kelishdi*.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'l shakllaridan qaysilari tuslanadi?
2. Fe'lning xoslangan shakllarining qaysilari omonimlikni hosil qiladi?
3. Fe'lning xoslangan shakllaridan qaysi biri barcha sintaktik vazifada kela oladi?
4. Fe'lning xoslangan shakllaridan qay biri nom ifodalaydi?
5. Fe'lga yaqin harakat nomi shaklining xususiyatlarini izohlang?
6. Harakat nomi shaklining shakldoshligini belgilang.
7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

4- ma'ruza. Fe'ning vazifadosh shakllari. Ravishdosh, uning grammatik ma'nosi, yasalishi; fe'l va ravishga xos xususiyatlari; Tuslanadigan va tuslanmaydigan ravishdoshlar. Sifatdosh uning grammatik ma'nosi, yasalishi; fe'l va sifatga xos xususiyatlari: (otlashish, shuningdek, tuslanish, zamon ifodalash xususiyatlari)

Reja:

1. Ravishdoshning grammatik belgilari.
2. Sifatdosh va uning grammatik vazifasi.
3. Fe'l shakllariga turlicha qarashlarni taqqoslang.

Tayanch so'zlar: ravishdosh, holat ravishdoshi, payt ravishdoshi, sabab ravishdoshi, maqsad ravishdoshi, ravish, sifat, sifatdosh, harakat nomi, otdosh, tuslanishli fe'l, tuslanishsiz fe'l, turlanish, sof fe'l, zamon shakli, bo'lishsizlik, leksik shakl yasovchi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Ravishdoshning grammatik belgilari

Fe'ning gapda ma'lum bir vazifani bajarishga moslashgan shakllari funksional(xoslangan) shakllar hisoblanadi, ular quyidagilar:

- 1) harakat nomi;
- 2) ravishdosh;
- 3) sifatdosh.

Ravishdosh shakli fe'lni fe'l bilan bog'lovchi vosita, fe'lni gapda hol vazifasiga xoslaydi: *Bola **pichirlab** gapirdi. **Kelguncha** kutdim.*

Ravishdosh – fe'ning ravishga yaqinlashgan lug'aviy shakli. Ravish kabi ish-harakat va holatning belgisini bildiradi, uning so'rog'iga javob bo'lib, fe'lga bog'lanib hol vazifasida keladi,

shu bilan birga, harakat-holat ma'nosini saqlaydi. Demak, unda ravishlik va fe'llik xususiyati mujassam: *U ikkilanib javob berdi.*

Quyidagi shakllar bilan yasaladi:

-(i)b, -a/y; -gancha/kancha/qancha; -gudek/kudek/qudek shakli bilan yasalgan ravishdosh holat ravishdoshi deb yuritiladi: *o'qib, yozib, sevinib, yura-yura, yig'lay-yig'lay, yeb qo'ygudek, bitirib yuborgudek, shoshgancha;*

-a/y ko'rsatkichli ravishdosh takror holda qo'llanadi: *bora-bora, chopa-chopa.*

Ravishdoshning bu shakli holni kesimga bog'lasa, ma'no va shakl jihatdan ravishdosh bo'ladi: *sevinib gapirdi.* U, shuningdek, boshqa vazifani ham bajaradi:

– yetakchi fe'lni ko'makchi fe'lga bog'laydi: *o'qib chiqdi, yoza boshladi;*

– qo'shma fe'l qismlarini bog'laydi: olib keldi;

– *uyalib kirmadi* shaklida sabab ma'nosini anglatadi.

-a/y zamon qo'shimchasi fe'lga shaxs-son qo'shimchasini biriktirganda (*boribman, boraman*) ravishdosh shakli bilan omonimlashadi.

-gach/kach/qach, -guncha/kuncha/quncha: *ko'rgach, tikkach, kelguncha* shakllari bilan yasalgan ravishdosh shakli payt ravishdoshi deb yuritiladi: *o'qigach, kelguncha, chiqquncha.* Payt ravishdoshining *-guncha/kuncha* ko'rinishi ergash gapning kesimi vazifasida kelib chog'ishtirish ma'nosini ham bildiradi: *Qoshing qaro bo'lguncha, ko'zing qaro bo'lsa-chi.*

-gani/kani/qani (ba'zan *-gali/kali/qali*) shakli bilan yasalgan ravishdosh maqsad ravishdoshi deyiladi: *Siz bilan maslahatlashgani keldim. Bu gulshan soz ekan, soz ustiga soz etgali keldik.*

Demak, ravishdoshlar ma'no jihatdan: holat, payt, sabab va maqsad ma'nolarini ifodalaydi.

Ravishdoshning bo'lishsiz shakli *-may(in)* bo'lib, faqat maqsad ravishdoshi bo'lishsiz shaklga ega emas.

Ravishdosh boshqa bir fe'l anglatgan harakatdan oldin bo'lgan yoki u bilan bir vaqtda bajariladigan harakatni ko'rsatadi, asosiy harakatning bajarilish holatini bildiradi, hol, ajratilgan izoh hol vazifasida keladi.

Ravishdoshning grammatik belgilari:

1) o'timli-o'timsizlik, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon ma'nolarini ifodalaydi: *Mastura pichirlab gapirdi. U pichirlatib gapirtirdi.*

2) boshqa so'zlarni boshqarib keladi: *Mevalar quyosh mehriga to'yib o'sdi.*

3) ba'zan ozaytirma daraja affiksi(-roq)ni qabul qiladi: *Mo'minjon bu gapni ikkilanibroq aytdi.*

4) qo'shma fe'l va yetakchi-ko'makchi fe'llarning qismlarini bog'laydi: *sotib ol, ola qol, aytayozdi.* Yetakchi fe'lni ko'makchi fe'lga bog'lashda *-b, -ib, -a, -y* qo'shimchalari faol qatnashadi.

5) murakkablashgan sodda gap tarkibida ajratilgan bo'lak vazifasida keladi: *Qish kelib, sovuq boshlandi.*

Ravishdoshning grammatik ma'nolari:

1) harakatning belgisini anglatadi: *U qiynalmay javob berdi.*

2) harakatning sababini bildiradi: *Bola qorqib kirmadi.*

3) payt ifodalaydi: *O'qituvchi kelgach, dars boshlandi.*

4) maqsad ma'nosi bildiradi: *Ishlagani bordik.*

Sifatdosh va uning grammatik vazifasi

Fe'lning sifatdosh shakli fe'lning ot bilan aloqasini ta'minlab, uni sifatlovchi aniqlovchi vazifasiga xoslaydi: *Sen yurgan yo'llardan men ham yuraman.* (Qo'shiqdan) Otlashganda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, ot kesim, undalma vazifalarida keladi: ega: *Birlashgan o'zar.* (Maqol) To'ldiruvchi: *Berganga bitta ham ko'p.* (Maqol) Qaratqich aniqlovchi: *Ko'rmaganning ko'rgani qursin.* (Maqol) Ot-kesim: *Yigit kishining uyalgani – o'lgani.* (Maqol) Undalma: *Kechikkanlar, o'rningizdan turing.*

Fe'lning sifatga yaqinlashgan lug'aviy shakli bo'lib, sifat kabi predmet-hodisaning belgisini bildiradi, otga bog'lanib sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi, sifatlar kabi otlashadi, shu bilan

birga, harakat-holat ma'nosini ham saqlaydi. Unda sifatlik va fe'llik xususiyati mujassam: *o'qigan, o'qiyotgan, chopadigan*.

Demak, sifatdosh predmetning belgisini ko'rsatadi, sifatlovchi vazifasida keladi. Sifatdoshning grammatik belgilari:

1) predmetning belgisini anglatadi: *Hayotda tutgan narsasini qo'ymaydigan zabardast qo'llar ham bo'ladi*;

2) nisbat, o'timli-o'timsiz, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalaydi: *O'qilgan kitob qadrli*;

3) boshqa so'zlarni boshqarib keladi: *Anorxon o'z Vatanini chin yurakdan sevgan qiz*;

4) otlashib kelib, ot singari kelishik, egalik affiksini qabul qiladi: *Ayрилganni ayiq yer*;

Sifatdosh quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:

1. -gan (-kan, -qan) affiksleri eng mahsuldor bo'lib, predmetning belgisini bildiradi (uzoq o'tgan zamon fe'li bilan shakldoshlikni hosil qiladi): *o'qigan bola, kelgan odam, kechikkan o'quvchi, namiqqan gilam*. Bo'lishsiz shakli *-magan* bilan yasaladi: *bilmagan, chiqmagan*.

2. -adigan, -ayotgan qo'shimchalari: *oladigan ilm, keladigan boylik, kelayotgan fasl*.

3. -r (-ar), -mas shakli bilan hosil qilingan sifatdosh belgini ifodalaydi (o'tgan zamon davom fe'li va kelasi zamon gumon fe'li shakllari bilan omonimlashadi): *oqar suv, borar joyimiz, so'nmas hayot. Ona sevmas farzand topilmas, farzand yo'qdir onani sevmas*.

4. -ajak shakli bilan yasalgan sifatdosh gapda sifatlovchi aniqlovchi bo'lib keladi: *Shoir yozilajak she'rini qayta-qayta takrorlardi*.

5. -gusi, -g'usi shakli bilan yasalgan sifatdosh ham arxaik bo'lib, predmet belgisini bildiradi, sifatlovchi vazifasida keladi: *Kelgusi avlodga Ulug'bekdan boy meros qolgan*.

6. -vchi, -uvchi qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdosh belgi ifodalab, sifatlovchi vazifasida keladi: *ishlovchi, tanuvchi, xohlovchi, boruvchi, uyg'onguvchi. Pishqiruvchi daryolar qirg'og'ini yuvib oqadi*. -vchi qo'shimchasi bilan yasalgan sifatdoshlarning katta qismi otga ko'chgan: *o'quvchi, yozuvchi, sotuvchi, sog'uvchi, tikuvchi, uchuvchi*.

-g'lik, -rlik, -gulik: *yasatig'lik xontaxta, yopig'lik qozon, qorin to'ydirarlik bir kasb, arzigulik ish*.

-mish o'tgan zamon sifatdoshining kam uchraydigan shakli: *O'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lmish Navoiy*.

-(u)vchi, -g'lik, -rlik, -gulik shakli uchun -ma+gan ko'rsatkichi bo'lishsiz shakl: *yasatig'lik* – yasatilmagan, to'ydirarlik - to'ydirmaydigan.

-(g)(u)vchi, -g'lik, -rlik, -gulik shakli bo'lishsiz qo'llanmaydi

Sifatdosh bog'langan ot tushib qolganda sifatdosh otlashadi: *Ko'rgan* (sifatdosh, aniqlovchi) *kishilar* (ot, bosh kelishikda, ko'plikda, ega) *gapirsin* – *Ko'rganlar* (sifatdosh, bosh kelishikda, ko'plikda, ega) *gapirsin*. *Ko'rgan* (sifatdosh, aniqlovchi) *paytda* (ot, o'rin-payt kelishigida, hol) *gapiradi* – *Ko'rganda* (sifatdosh, ot, o'rin-payt kelishigida, hol) *gapiradi*.

Sifatdosh, asosan, sifatlovchi-aniqlovchi (*Uyg'onguvchi bog'larni kezdin. Vizillagan tovush eshitildi*); otlashganda ega (*Eshitgan uyaladi. Ko'rgan gapiradi*); to'ldiruvchi (*Bilmaganni so'rab bilish kerak*); qaratqich-aniqlovchi (*Ko'rmaganning ko'rgani qursin*); undalma (*Eshitganlar, aytinlar*) vazifalarida keladi.

Sifatdoshning istakni ifodalovchi (kelasi zamoni ifodalovchi) -gur/-kur/-qur/-g'ur shakli ham qayd etiladi: bo'yning **uzilgur** bola, **qurg'ur** yigit, **bo'lmag'ur** gap.

Fe'l shakllariga turlicha qarashlarni taqqoslang

Diqqat qiling! Kesim gap markazi sanalguncha ravishdoshga adabiyotlarda quyidagicha qarash mavjud bo'lib kelgan: "Ravishdoshlar xususiyatiga qarab ikki xil bo'ladi:

1. Tuslanadigan ravishdoshlar.

2. Tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlar shaxs-son qo'shimchasini olib, gapda kesim vazifasida keladi: *Vatanga doimo sodiq bo'lamiz*. Tuslanmaydigan ravishdoshlar hol va ajratilgan bo'lak vazifasida keladi: *Bola ortiga qarab-qarab keldi. Yuzlari yorishib, Onaxon kirib keldi*.

Tuslanadigan ravishdoshlar quyidagi affiksler bilan yasaladi:

1. Fe'l o'zagiga -b(-ib) affiksini qo'shish bilan. Bu shakl shaxs-son bilan tuslanib, o'tgan zamon hikoya fe'lini hosil qiladi: *Avval o'ylab, keyin so'ylash kerakligini aytibdi*. Takror holda ishlatilsa, harakatning davomli ekanligi, takrorlanib turganligini ifodalaydi: *Ilk qor o'ynab-o'ynab yog'ar edi*.

Bu fe'l shaklining bo'lishsiz formasi -may, -mayin, -masdan: *Xonadan xayrlashmay chiqib ketdi*.

2. Fe'l negiziga -a, -y affiksini qo'shish bilan. Bu shakl tuslanib, fe'lning hozirgi-kelasi zamon shaklini hosil qiladi: *Uyimiz do'st bilan obod bo'ladi. A'lo baholarga o'qiymiz*.

Ayrim o'rinlarda zamon shakllaridan oldin asosga qo'shilib keladi: *yoz-a-yotirman, kel-a-yotibsan, ishla-y-digan*.

Tuslanmagan shaklda takror qo'llanib, harakatning davom qilib turishini bildiradi: *Toyg'oq yo'ldan yiqila-yiqila keldim. Dardini yig'lay-yig'lay aytdi*.

Tuslanmaydigan ravishdoshlar shaxs-son va zamon suffikslarini olmaydi, tuslangan fe'llarga bog'lanib, keladi; payt, maqsad ma'nolarini ifodalaydi, hol vazifasida keladi.

1. Fe'l o'zagiga -gani(-kani, -qani) affiksini qo'shganda, harakatning bajarish maqsadini bildiradi: *Elimni qutlagani keldim. She'riyatda -gali shakli ishlatiladi: Qo'zi bordi suv ichgali*.

2. Fe'l negiziga -gach(-kach, -qach) affiksini qo'shish bilan. Bu ravishdosh asosiy harakatning ravishdosh ifodalagan harakat tugashi bilan boshlanishini bildiradi: *Fotima xonaga kirgach, ishga berildi*.

3. Fe'l asosiga -guncha(-kuncha, -quncha) affiksini qo'shishdan hosil bo'lgan ravishdosh harakatning qayvaqtgacha davom etishini bildiradi: *Oradagi sukunat bir piyoladan choy ichguncha buzilmadi*".

Topshiriq. 1. Yuqoridagi fikr keltirilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzing.

2. Sifatdosh va harakat nomiga oid qarashlarni o'rganing!

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'l shakllaridan qaysilari tuslanadi, qaysilari tuslanmaydi?

2. Fe'lning xoslangan shakllarining qaysilari omonimlikni hosil qiladi?

3. Fe'lning xoslangan shakllaridan qaysi biri barcha sintaktik vazifada kela oladi?

4. Fe'lning xoslangan shakllaridan qay biri belgi ifodalaydi?

5. Ravishdosh qaysi vositalar bilan yasaladi?

6. Ravishdoshning qaysi shakllari fe'l zamoni bilan omonimlikni yuzaga keltiradi?

7. Ravishdoshlar qanday ma'no turlariga bo'linadi?

8. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

5- ma'ruza. Fe'l mayllari (ijro mayli, shart va buyruq-istak mayli), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liqsiz fe'l

REJA:

1. Mayl kategoriyasi.

2. Ijro mayli.

3. Shart mayli.

4. Buyruq-istak mayli.

5. To'liqsiz fe'l

Tayanch so'zlar: xabar mayli, ijro mayli, shart mayli, shartli mayl, maqsad mayli, buyruq-istak mayli, leksik shakl yasovchi, belgisiz shakl, shart holi, to'siqsiz hol, ergash gap, shart ergash gap, to'siqsiz ergash gan, ravish ergash gap.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.

2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.

6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma// Toshkent: Akademya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Mayl kategoriyasi

Harakatning voqelikka munosabatini ko‘rsatuvchi grammatik kategoriya *mayl kategoriyasi* deyiladi. Mayl kategoriyasi zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hammasi birgalikda fe‘lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish shakli hisoblanishiga ko‘ra mayl kategoriyasi harakatning voqelikka munosabatinigina emas, balki bajaruvchi bilan harakat orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, *kel, o‘qi, ishla* yoki *kelsa, o‘qisa, ishlasa* kabi shakllarda hali bajarilmagan harakat, uning bajarilishi haqida buyruq, shart ma’nolari ifodalansa, *keldi, o‘qigan, ishlayotir, kelaman, o‘qigan eding, ishlayotgan edi* kabi shakllarda real ravishda bajarilgan yoki bajarilayotgan va bajariladigan harakat haqida xabar beriladi. Demak, mayl kategoriyasida buyruq, istak, maslahat, shart, ijro etilish haqida xabar kabi turlicha ma’nolar ifodalanadi. SHunga ko‘ra mayl kategoriyasi anglatgan ma’nolar modal ma’nolar hisoblanadi.

O‘zbek tilida fe‘lning mayl shakllari quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lib, bular ma’no va morfologik ifodalanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi:

- 1) xabar (ijro) mayli;
- 2) shart mayli;
- 3) buyruq-istak mayli;
- 4) maqsad mayli.

Ijro mayli

Xabar (ijro) mayli fe‘l anglatgan harakat va holatni ma’lum zamonda bajarilishi, ijro etilishi haqida xabar beradi. Bu mayl shakli ish-harakat uch zamonning birida ijro etilganligini, uning mavjudligini yoki harakat shu zamonlarning birida bajarilmaganligini, inkor etilganligini anglatadi. Albatta, harakatning bajarilishini inkor etish xabar maylining ma’nosini o‘zgartirmaydi. CHunki bu shaklida ham real hodisa – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonlarda harakatning bajarilmaganligi ifodalanadi: *Men yoshlik qilib, bekordan-bekorga erkimni qo‘ldan berib qo‘yganman. U Onaxonning yoniga hech kimni yaqin yo‘latmadi.*

Xabar termini bu maylning xususiyatiga, ma’nosi va funksiyasiga ko‘proq mos keladi.

Chunki bu mayl shaklidagi fe'l ish-harakatning ma'lum zamonda biror shaxs tomonidan ijro etilganligi yoki ijro etilmaganligi haqida xabar beradi.

Xabar maylining ma'nosi zamon (shuningdek, shaxs-son) affiksi bilan kelgan fe'l shaklidan anglashiladi. Xabar maylining o'ziga xos xususiyati zamon kategoriyasiga ega ekanligida ko'rinadi. Grammatik zamon kategoriyasining tasviri ayni zamonda xabar mayli shakllarining ham tasviridir. Xabar maylida modal ma'nolar ham shu zamon shakllari va ayrim yuklama hamda modal so'zlar orqali ifodalanadi.

Xabar (ijro) maylining maxsus ko'rsatkichi yo'q. U fe'lning zamon va shaxs-son affikslari orqali ifodalanadi. Ijro maylidagi fe'lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelishdir.

Shart mayli

Fe'lning shart mayli boshqa biror harakat, voqea-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo'ladigan, istalgan, faraz, mo'ljal qilingan harakatni bildiradi. Shart mayli shakli fe'l negiziga -sa mayl yasovchisini qo'shish va tushlash bilan hosil qilinadi: *olsam, olsang, olsa, olsak, olsangiz*.

Shart maylidagi fe'l shakli quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Boshqa bir harakat va holatning yuzaga chiqishi uchun vosita, shart bo'lgan harakatni bildiradi, bunda shart ergash gapning kesimi bo'lib keladi; har ikkala gap anglatgan voqea-hodisalar ish-harakat ham bajarilmagan bo'lib, birining bajarilishi ikkinchisiga bog'langan, shartlangan bo'ladi. *Agar odam bo'lay desang, har ishda oqil bo'l. Shart maylidagi fe'llar ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, payt, shart va o'rin ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi: Kimda kim o'z ishi bilan maqtansa, u chin inson emas. Kimki boshqalarga yaxshilik qilib ta'na qilsa, uni hech kim hurmatlamaydi.*

2. Payt ma'nosini bildiradi: *Ertalab borsam, hech kim yo'q. Bir kuni ko'chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko'tarib kelyapti.*

3. **Ham, -da** yordamchilari bilan kelib, voqea-hodisaning bajarilishiga to'siq bo'la olmagan harakat-holatni bildiradi. Qo'shma gapda to'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lib keladi: *Nizomjon charchasa ham, ishlayverdi. Tiling to'g'ri bo'lsa-da, diling egridir.*

4. **-chi** yuklamasi bilan kelganda, buyruq-istak mayliga xos ma'nolar ifodalanadi: *Bu yerdan ketsang-chi. Mashinangizga solib bir aylantirib kelsangiz-chi.*

5. Orzu-istak ma'nosini bildiradi: *Qani endi men ham o'sha kunlarga tez yetsam.*

6. Iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi: *Opajon, shu rasmingizni bersangiz. Bu yerda shovqin solib gaplashmasak.*

7. **Nahotki** so'zi bilan kelganda, to'satdan hukm chiqarish, voqea-hodisadan hayratlanish, gumon ma'nolari ifodalanadi: *Nahotki men unga ishonsam.*

8. **Kerak** so'zi bilan kelganda, faraz, gumon, noaniqlik ma'nolari ifodalanadi: *U ham borsa kerak.*

9. **Bo'ladi** yordamchi fe'li bilan kelganda mumkinlik, imkoniyat, zaruriyat ma'nolari ifodalanadi: *Ertaga institutga bormasam bo'lmaydi.*

10. **-sa** affiksli fe'l yetakchi-ko'makchi shakllarni ham bog'laydi: *olsa bo'ladi, ketsa ketsin, borsang bo'lmaydi, o'qisang o'qi.*

Shart mayli shakli bilan ifodalangan ergash gap kesimi nomustaqil kesim deb yuritiladi: *Agar ishlov yaxshi bo'lsa, hosil mo'l bo'ladi.*

Fe'lning shart mayli asosan kelasi zamon ma'nosiga ega. Ergash gapning kesimi vazifasida kelganda, ba'zan o'tgan zamon ma'nosini ham ifodalaydi: *Tuhmatga yo'liqqan bo'lsa ham, kasbdoshlari beparvo edi.*

Buyruq-istak mayli

Fe'lning buyruq-istak mayli so'zlovchining harakatni bajarishga buyurishini, qistashini, undashini anglatadi va har bir ma'no ottenkasi o'ziga xos ohang bilan xarakterlanadi: *Ishingni bajar.*

Buyruq-istak maylining tushlanishi shunday:

Birlik.

Ko'plik.

1-shaxs *boray(-in), ishlay(-in)* *boraylik, ishlaylik*

2-shaxs *bor(gin), ishla(-gin)* *boring, ishlang(iz)*

3-shaxs *borsin, ishlasin borsin(lar), ishlasin(lar)*.

Soʻzlovchining harakatni bajarishga undashi bevosita ikkinchi shaxsga qaratilgan boʻladi, shuning uchun buyruq-istak maylining asosiy shakli ikkinchi shaxs (birlik va koʻplik) hisoblanadi: *Saflar oldida boʻl, mard boʻl jasur boʻl*.

Buyruq-istak maylining ikkinchi shaxs birligi bir koʻrinishida shaklan feʼl oʻzagiga teng keladi. Shu shaxsdan boshqa buyruq-istak shakllari hosil qilinadi.

1. Buyruq-istak maylining ikkinchi shaxs birligi uch shaklga ega:

a) qatʼiy buyruq anglatadi, bu affiksiz ifodalanadi: *Yovni quv, doʻstlarni qutqar*.

b) feʼl negiziga -gin (-gil) affiksini qoʻshishdan tuziladi. Bu shakl buyruq maʼnosini soʻrash, iltimos, maslahat tarzida ifodalaydi: *Meni kutgil va men qaytarman*.

d) feʼl oʻzagiga -(i)ng affiksini qoʻshish bilan hosil qilinadi. Bunda bir shaxsga nisbatan hurmat, baʼzan ikkinchi shaxsning koʻpligi maʼnosi ifodalanadi: *Sobirjon, ulkan gʻalabalarni koʻzlang. Sobir, Karim, keling*.

2. Ikkinchi shaxsning koʻplik shakli asosan ikki yoʻl bilan hosil qilinadi:

a) feʼl oʻzagiga -inglar affiksini qoʻshish bilan: *Qani, bolalarim, bir dam olinglar*.

b) feʼl negiziga -ingiz affiksini qoʻshish bilan: *Hech qachon bizni unutmangiz*.

Buyruq-istak maylining uchinchi shaxs shaklida buyurish, iltimos, undash maʼnolari vosita bilan bildiriladi, yaʼni toʻgʻridan toʻgʻri 3- shaxsga qaratilmasdan, 2- shaxs orqali suhbatga qatnashmagan shaxs va predmetga qaratiladi: *Kerakli kitoblarni keltirsin*.

Buyruq-istak maylining uchinchi shaxs birligi feʼl negiziga -sin affiksini qoʻshish bilan, koʻpligi esa birlik shakliga -lar qoʻshish bilan hosil qilinadi: *ishlasin, ishlasinlar*. Bu shaklda orzu-istak maʼnosi ham anglashiladi: *Shunday oʻlka doim bor boʻlsin*. Uchinchi shaxs shakli **deb** yordamchisi bilan birikib harakatning bajarilish maqsadini bildiradi: *Tashnaliging qonsin deb, suv tutdim kosa-kosa*. Uchinchi shaxs shakli tantanali chaqiriq, qatʼiy buyruq maʼnolarini ham anglatadi: *Toʻplardan oʻq uzib, salyut berilsin!* 3- shaxs shakli baʼzan 2- shaxs oʻrnida qoʻllanadi. Nutq jarayonida qatnashgan shaxsga nisbatan hurmat yoki piching, kesatq maʼnolarini bildiradi: *Davronjon, ishga borsinlar*.

Soʻzlovchi toʻgʻridan toʻgʻri oʻziga buyruq bera olmaydi, shuning uchun buyruq-istak maylining 1- shaxsida istak, harakatni bajarishga xohish, ahd maʼnolari yoki soʻzlovchining oʻzi ham qatnashgan holda harakatni birgalikda bajarishga undash kabilar ifodalanadi. 1- shaxs birligi feʼl negiziga -y(-ay) affiksini qoʻshish bilan hosil qilinadi: *oʻqi, olay*.

Taʼkidlash maʼnoni kuchaytirish uchun -in qoʻshiladi: *oʻqiyin, olayin*. 1-shaxsning koʻpligi esa 1- shaxs birlik -lik affiksini qoʻshish bilan hosil boʻladi: *oʻqiylik, olaylik*.

Koʻplik shaklida soʻzlovchi ham qatnashgan bir qancha shaxslar tomonidan harakatni bajarishga undash, shu bilan birga, 1- shaxsning istagi, xohishi kabilar ham bildiriladi: *Dalada boshlangan gapni davom ettiraylik*. Bu shaklda ham deb yordamchisi bilan birikib kelsa, harakatning bajarilish maqsadini anglatadi: *Qoʻlga kitob oldim, fan choʻqqisin egallayin deb*.

Toʻliqsiz feʼllar

Feʼl va feʼl boʻlmagan soʻzlar bilan qoʻllanib, turli grammatik maʼnolar ifodalovchi, yordamchi vazifalarda qoʻllanuvchi *edi, ekan, emish* (erur – arxaik shakl, emas – boʻlishsizlik ifodalaydi, esa – bogʻlovchi) yordamchi feʼllari **toʻliqsiz feʼllar** deb nomlanadi (ot-kesimning bogʻlama qismi vazifasida ham qoʻllanadi): *koʻrgan edi, olib edi, koʻrgan ekan, olgan emish; toza edi, yigit ekan, shu emish, beshita emish, oz edi*.

Faryodkim, garduni dun,
Aylar yurak-bagʻrimni xun,
Koʻrdiki, bir ahli funun
Charx anga kajraftor ekan.

Toʻliqsiz feʼl vazifasida *boʻl, sanaladi, hisoblanadi* feʼllari ham ishlatiladi: *Nomzodimiz tasdiq boʻldi. Ukam bu kitobni oʻqib boʻldi. Akam injener boʻldi. Bugungi daromad hisoblanadi. U doʻstim hisoblanadi. Yillik daromad sanaladi. Ukam talaba sanaladi*.

Jahonda kamsuxan kim boʻldi, asrori nihon boʻldi,
Kimiki soʻzladi koʻp, bilki rasvoyi jahon boʻldi.

Nazokat ortturay desang, misoli g'uncha xomush bo'l,
Nadinkim og'zini to ochdi gul, bargi xazon bo'ldi.

To'liqsiz fe'llar vazifasiga ko'ra tuslovchilar bilan tutashadi, ya'ni kesimlikka xoslab, bog'lama bo'lib keladi: o'quvchi edi – o'quvchiman.

Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo'q zarra xon-u monlarga,
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

To'liqsiz fe'llar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- 1) mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas;
- 2) nisbat, bo'lishsizlik, mayl, zamon kabi ma'nolarga ega emas;
- 3) shaxs-son qo'shimchalari ularga qo'shilsa ham, shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'l qatnashgan butun birikmaga tegishlidir: *olgan edim, bola ekanman, yomon emishsan*;
- 4) to'liqsiz fe'l qatnashgan birikma (asosiy fe'l+to'liqsiz fe'l) tarkibidagi to'liqsiz fe'lni har doim ham tushirib bo'lmaydi: borar edi (borar – kelasi zamon), bormoqchi edi (bormoqchi – kelasi zamon).
- 5) to'liqsiz fe'l tarkibidagi "e" tovushi tushib qolishi mumkin: *borgan edi – borgandi, kelar edi – kelardi, kelar emish – kelarmish*;
- 6) to'liqsiz fe'llar otlarga (keng ma'noda) ham, fe'llarga ham birika oladi. Ular ko'proq sifatdosh va ravishdoshga birikadi;
- 7) bu fe'llar ketma-ket qo'shilishi ham mumkin: *Opam ishdan kelgan edimikin* (edimi ekan)?
- 8) bu fe'llar qator kelgan bir necha fe'llarning oxirisiga birikadi: *gapirar, kular edi*.
- 9) to'liqsiz fe'llar gapda ko'pincha bog'lama (ega bilan kesimni bog'lovchi vosita) vazifasini bajaradi: *Otasi ishchi edi*.

To'liqsiz fe'llar ot-kesim tarkibida shaxs-son affikslari kabi bog'lama vazifasida keladi.

Ergash gapni bosh gapga bog'lash vazifasini ham bajaradi: *Po'latjon endi tashqariga chiqmoqchi bo'lib turgan edi, Hojimurod kirib keldi*.

To'liqsiz fe'llar zamon shakllaridan so'ng quyidagi tartibda qo'shiladi:

1. Uzoq o'tgan zamon: *-gan + edi, ekan, emish*.
2. Yaqin o'tgan zamon: *-di*.
3. O'tgan zamon hikoya fe'li: *-ib + edi*.
4. O'tgan zamon davom fe'li: *-r, -ar, -mas + edi, ekan*.
5. O'tgan zamon maqsad fe'li: *-moqchi, -digan + edi, ekan*.
6. Hozirgi-kelasi zamon fe'li: *-a, -y*.
7. Hozirgi zamon davom fe'li: *-yap, -yotir, -moqda*.
8. Kelasi zamon maqsad fe'li: *-moqchi, -digan + emish*.
9. Kelasi zamon gumon fe'li: *-r, -ar, -mas + emish*.

Savol va topshiriqlar:

1. Mayl qanday kategoriya sanaladi?
2. Mayl qo'shimchalari vazifasiga ko'ra qanday qo'shimcha?
3. Qaysi mayl belgisiz ifodalanadi?
4. Shart maylidagi fe'llar qanday ma'nolar bildiradi?
5. Shart maylidagi fe'llar qo'shma gapning qaysi turlarida qatnashadi?
6. Shart maylidagi fe'l qachon buyruq-istak ma'nosini ifodalaydi?
7. Buyruq-istak maylidagi fe'llar qanday ma'nolarni bildiradi?
8. Mayl qo'shimchalari sinonim shaklda ham ishlatiladimi?
9. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

6- ma'ruza. Fe'l zamonlari, ularning turlari (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'llari), o'tgan zamon fe'lining turlari: yaqin o'tgan zamon fe'li, uzoq o'tgan zamon fe'li, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li.

REJA:

1. Zamon kategoriyasi.
2. Fe'l zamonlarini o'rganilish tarixi.
3. O'tgan zamon fe'li.

Tayanch so'zlar: uzoq o'tgan zamon, yaqin o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li, hozirgi zamon davom fe'li, hozirgi-kelasi zamon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li, kelasi zamon gumon fe'li, sifatdosh, ravishdosh, shaxs-son, tushlash, sintetik shakl, analitik shakl, sinonimlik.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Zamon kategoriyasi

Zamon kategoriyasi fe'l ifodalagan harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi.

Harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi munosabatiga qarab fe'lning uch zamoni farqlanadi. O'tgan zamon nutq paytidan ilgari bajarilgan harakatni, hozirgi zamon nutq payti bilan bir vaqtda bajarilayotgan harakatni, kelasi zamon nutq paytidan keyin bajarilayotgan harakatni anglatadi.

Fe'ning o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarining har qaysisi, o'z navbatida, yana bir necha turlarga bo'linadi. Chunki bu zamon shakllari, vaqtning alohida katta qismlarini ko'rsatish bilan birga, bu qismlar ichidagi kichik paytlarni ham aks ettiradi.

Har bir zamon shakli ma'lum grammatik ko'rsatgichga ega.

Fe'ning zamon shakllari tuzilish jihatidan ikki turga bo'linadi:

1. Sintetik shaklda zamon shakl yasovchi affiks bilan ifodalanadi: *o'qiganman, o'qibsan, keladi, bormoqchi*.

2. Analitik shaklda zamon fe'ning turlicha xoslangan shakllari bilan to'liqsiz fe'ning birikishi orqali ifodalanadi: *o'qir edim, o'qimas eding, o'qimoqchi ekan, o'qiydigan edik*.

Fe'l zamonlarini o'rganilish tarixi

Mahmud Qoshg'ariy so'z turkumlari ichida fe'llarni chuqur tahlil etadi. Fe'llarning zamon, nisbat, shaxs kategoriyalari haqida ma'lumot beradi.

Fe'llar uch zamonga – o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarga bo'linadi. «**Fe'ning o'tgan zamon shakli hamma fe'llarga -di qo'shib yasaladi, hech qayerda o'zgarmaydi**», deyiladi (DLT, II tom, 41-bet).

Qizig'i shundaki, Mahmud Qoshg'ariy affikslarning turli fonetik variantlari va bu variantlar paydo bo'lishidagi morfonologik o'zgarishlar sabablari haqida ham fikr yuritadi. Xususan, o'tgan zamon shakli -di haqida to'xtalib, shunday yozadi: «O'tgan zamon fe'l yasovchi -di p, t, ch, k kabi to'rtta qattiq harflar (tovushlar) bilan qo'shilganda «d» «t»ga almashadi. CHhunonchi, tapti «tep-di», qacht «qochdi», cho'kti «cho'kdi» kabi. O'zidan so'nggi «d»ni «t»ga almashtirishda «q» ham «k»ga o'xshaydi. Chunonchi “Ol manga baqti” kabi. Bu «d»ni «t»ga almashtirish u harflarning mahrajlar qattiq bo'lgani uchundir. Bularning asli «d»dir. Yuqoridagi harflarga qo'shilganda «t» ravishda talaffuz qilish yaxshiroqdir» (DLT, II tom, 41-42-betlar).

Kelasi zamon fe'li barcha fe'l turlaridan -r qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilinishi ko'rsatiladi. Masalan, *turur* (tur fe'lidan), *kelir* (kel fe'lidan), *kulur* (kul fe'lidan). Shuningdek, *-g'ay, -qay, -kay, -gay* affikslari ham kelasi zamoni ifodalashini ta'kidlaydi: *qurg'ay, sag'qay, kelgay*. Hozirgi zamon fe'lining shakllari haqida esa nima uchundir fikr yuritilmaydi.

«**At-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya**» asarida fe'l zamonlari keng yoritiladi. Fe'llarda uch zamon ko'rsatiladi: 1) o'tgan zamon; 2) hozirgi zamon; 3) kelasi zamon.

O'tgan zamon **-di, -mish, -ib (-ip) aldi, uyaldi (uyandi), ketti, ichti** kabi.

Hozirgi zamon shakli -a, -y:

so'zlovchi: keladirman, so'ylaydirman keladirbiz, so'ylaydirbiz

tinglovchi: keladirsan, so'ylaydirsan keladirsiz, so'ylaydirsiz

o'zga: keladir, so'ylaydir keladirlar, so'ylaydirlar

Hozirgi-kelasi zamon fe'li aniqlik-ehtimollik belgisiga ko'ra ham zidlanishi, **-ir** qo'shimchasi orqali ifodalanganda hozirgi-kelasi zamon ehtimollik (gumon) ma'nosini berishi aytiladi. Masalan,

Birlik

so'zlovchi: kelgayman, chiqqayman

tinglovchi: kelgaysan, chiqqaysan

o'zga: kelgay, chiqqay

yoki:

so'zlovchi: kelasiman

tinglovchi: kelasisan

o'zga: kelasi

Turkmanlar esa kelasi zamon uchun *-ajak* va *-asar* affikslarini qo'llashi ko'rsatiladi.

so'zlovchi: kelasarman

tinglovchi: kelasarsan

o'zga: kelasar

Ko'plik

kelgaybiz, chiqqaybiz

kelgaysiz, chiqqaysiz

kelgaylar, chiqqaylar

kelasibiz

kelasiz

kelasilar

kelasarbiz

kelasarsiz

kelasarlar

Fitrat fe'lga mazmuniy va grammatik nuqtayi nazardan yondashadi. Fe'ning harakat bildirishini hamda shaxs va zamon grammatik ma'nolarini bildiruvchi shakllarga ega bo'lishini

quyidagicha bayon qiladi: «*Har bir fe'l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamoni bildiradi*». Fe'lning bu uch jihati uning uch «butog'i» sanaladi. Shu uch butoqning o'zgarishiga qarab fe'llar turli o'zgarishlarga uchrashi ko'rsatiladi.

Fitrat zamon ma'nosini ifodalashiga ko'ra, fe'lni uch zamonga ajratadi: so'nggi zamon, hozirgi zamon va o'tgan zamon. Bu fe'llarning har qaysisiga alohida-alohida to'xtaladi. «So'nggi zamon» fe'llari, o'z navbatida, buyruq, kelajak, shart, o'tinch, qo'zg'atish fe'llariga bo'linadi.

-(a)r va -(a)jak shakllari qo'shilgan fe'llar **kelajak fe'llari** hisoblanadi va har ikki shaklning shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik paradigmasini beradi:

- | | |
|-------------------------|-------------------------|
| 1 – yozar, yozmas | 4 – yozarlar, yozmaslar |
| 2 – yozarman, yozmasman | 5 – yozarmiz, yozmasmiz |
| 3 – yozarsan, yozmassan | 6 – yozarsiz, yozmassiz |

Shuningdek,

- | | |
|-------------------------------|-------------------------------|
| 1 – yozajak, yozmayajak | 4 – yozajaklar, yozmayajaklar |
| 2 – yozajakmen, yozmayajakmen | 5 – yozajakmiz, yozmayajakmiz |
| 3 – yozajaksen, yozmayajaksen | 6 – yozajaksiz, yozmayajaksiz |

-gay, -g'ay qo'shimchasi qo'shilgan fe'llar **o'tinch fe'llari**, -sa qo'shimchasi qo'shilgan fe'llar **shart fe'llari**, shart fe'llariga -chi qo'shilgan fe'llar esa **qo'zg'atish fe'li** hisoblanadi. Masalan, *yoza-chi, yozmasam-chi* kabi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Fitrat fe'lning mayl, nisbat kategoriyalarini alohida ajratmay, zamon kategoriyasi tarkibida o'rganadi.

Hozirgi zamon fe'llari -yotir, -moqda hamda -(y)dir, -(a)dir qo'shimchalari yordamida ifodalanishi bayon qilinadi va har qaysi shaklning shaxs-son bo'yicha paradigmasi beriladi. Masalan,

- 1 – yozadir, yozayotir, yozmoqda (dir)
- 2 – yozaman, yozayotirman, yozmoqdaman
- 3 – yozasan, yozayotirsan, yozmoqdasan

O'tgan zamon fe'llari ham o'z ichida uch turga bo'linadi:

- 1) ko'rilgan fe'l;
- 2) eshitilgan fe'l;
- 3) hikoya fe'li.

-di qo'shimchasi yordamida ifodalangan o'tgan zamon ma'nosi **ko'rilgan fe'l** atamasi ostida beriladi. Masalan, *yoza, yozdim, yozding* kabi.

-gan, -g'an, -mish qo'shimchalari qo'shilgan fe'l **eshitilgan fe'l** hisoblanadi: *yoza'on, yozg'onsan; yozmish, yozmishman, yozmishsan*.

-(i)b qo'shimchasi qo'shilgan fe'l o'tgan zamon **hikoya fe'li** sanaladi: *yozaibdir, yozaibman, yozaibsan*.

O'tgan zamon fe'li

Fe'lning o'tgan zamon shakllari nutq paytidan ilgari bajarilgan yoki bajarilmagan harakatni bildiradi.

O'tgan zamon fe'llari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Yaqin (aniq) o'tgan zamon. Fe'l o'zagiga **-di** zamon yasovchisi va shaxs-son affiksining ikkinchi shaklini qo'shish bilan hosil qilinadi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	oldim	oldik
2-shaxs	olding	oldingiz
3-shaxs	oldi	oldilar

Bu ma'no tomonidan o'tmishda aniq bajarilgan harakatni ko'rsatib, so'zlovchi uni o'zi ko'rgandek, o'zi shu harakatning guvohi sifatida xabar beradi: *Deputatlar bilan uchrashuv samimiy o'tdi*.

2. Uzoq o'tgan zamon shaklining turlari ikki yo'l bilan hosil qilinadi:

1. **-gan** affiksi orqali yasalgan fe'llarga shaxs-sonni birinchi shaklini qo'shish orqali.

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olganman	olganmiz
2-shaxs	olgansan	olgansiz
3-shaxs	olgan	olgan(lar)

2. -gan shaklidagi fe'l va to'liqsiz fe'ldan tuzilgan analitik shaklni shaxs-son bilan tushlash orqali hosil qilinadi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olgan edim	olgan edik
2-shaxs	olgan eding	olgan edingiz
3-shaxs	olgan edi	olgan edi(lar)

To'liqsiz fe'l sifatida *edi* qatnashsa, o'tmishda harakatning aniq bo'lganligi qayd qilinadi: *Bu voqea o'tgan yili bo'lgan edi.*

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olgan ekanman	olgan ekanmiz
2-shaxs	olgan ekansan	olgan ekansiz
3-shaxs	olgan ekan	olgan ekan(lar)

To'liqsiz fe'l sifatida *ekan* qatnashsa, harakatning o'tmishda voqea bo'lganligi so'zlovchiga keyinchalik ma'lum bo'lgani ifodalanadi, so'zlovchining diqqati nutq paytida mavjud bo'lgan harakatning natijasiga qaratiladi: *Ko'p vaqtlar o'qituvchilik ham qilgan ekanlar.*

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olgan emishman	olgan emishmiz
2-shaxs	olgan emishsan	olgan emishsiz
3-shaxs	olgan emish	olgan emish(lar)

To'liqsiz fe'l sifatida *emish* kelsa, eshitganlik ma'nosi harakatning o'tmishda bo'lgan-bo'lmaganligi noaniq, gumon ekanligi ifodalanadi: *Qalbi butkul shodlikka to'lgan emish.*

3. O'tgan zamon hikoya fe'li shakli -b, -ib affiksi orqali yasalgan fe'lni yoki to'liqsiz fe'lni tushlashdan hosil bo'ladi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olibman	olibmiz
2-shaxs	olibsan	olibsiz
3-shaxs	olibdi	olibdi(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olib edim	olib edik
2-shaxs	olib eding	olib edingiz
3-shaxs	olib edi	olib edi(lar)

Bu shakllar nutq paytidan ancha ilgari bajarilgan harakatni hikoya qilish yo'li bilan bildiradi: *Ukamni hozirgina yuborib edim.*

4. O'tgan zamon davom fe'li -r, -ar, -mas shaklidan so'ng to'liqsiz fe'lni keltirib tushlashdan hosil bo'ladi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olar edim	olar edik
2-shaxs	olar eding	olar edingiz
3-shaxs	olar edi	olar edi(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olmas edim	olmas edik

2-shaxs	olmas eding	olmas edingiz
3-shaxs	olmas edi	olmas edi(lar)

Bu shakl nutq paytidan ilgari ma'lum bir davr ichida davom qilib turgan yoki takrorlanib turgan harakatni bildiradi.

5. O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo uning voqe bo'lmaganligini eslatadigan ish-harakatni ifodalaydi. *-moqchi, -adigan, -ydigan* affiksiga edi to'liqsiz fe'lni qo'shib tushlashdan hosil bo'ladi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olmoqchi edim	olmoqchi edik
2-shaxs	olmoqchi eding	olmoqchi edingiz
3-shaxs	olmoqchi edi	olmoqchi edi(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	oladigan edim	oladigan edik
2-shaxs	oladigan eding	oladigan edingiz
3-shaxs	oladigan edi	oladigan edi(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	o'qiydigan edim	o'qiydigan edik
2-shaxs	o'qiydigan eding	o'qiydigan edingiz
3-shaxs	o'qiydigan edi	o'qiydigan edi(lar)

Fe'l zamonlarining ko'chma zamon ifodalashi

O'tgan, hozirgi va kelasi zamon ma'nolarining har biri maxsus shakl orqali ifodalanishini yuqorida ko'rib o'tdik. Ammo bir zamon shaklining boshqa zamon shakliga xos ma'noda qo'llanishi ham uchrab turadi. Bu hodisa ma'lum uslub talabi bilan bo'ladi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan sezilib turadi.

Yaqin o'tgan zamon shakli **-di** kelasi va hozirgi zamon ma'nolarida qo'llanishi mumkin. Hozir qorong'uda qayoqqa bordig-u, nimayam qildik (qayoqqa boramiz-u, nimayam qilamiz). Senga nima dedim-u, uni bajarding.

Hozirgi zamon fe'lining kelasi zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo'llanishi asosan **ket, bor, yubor, boshla** kabi fe'llar doirasida uchraydi: *Biz o'qishga ketyapmiz. Hammamiz birgalikda boryapmiz. Bularni sayohatga yuboryapmiz. Olma terimini boshlayapmiz.*

Hozirgi zamon shaklining o'tgan zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo'llanishi: *Kecha dalada chunonam ketmon chopyaptiki. Bir kuni darchani buzaman deb bolta ko'tarib kelayotibdi. Qarasam, betgachoparlik qiladigan.*

Hozirgi zamon shaklining barcha zamonga oid harakatni ifodalashi: *Ukam maktabda o'qiydi.*

Yot, tur, o'tir, yur ko'makchi fe'llariga o'tgan zamon hikoya fe'li qo'shilganda hozirgi zamon davom fe'li ma'nosini ifodalaydi: *o'qib yotibman, o'qib turibman, o'qib o'tiribman, o'qib yuribman.*

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'lning zamon kategoriyasi nima?
2. Fe'l zamonlari shaxs-sonning qanday shakllari bilan tuslanadi?
3. Qaysi o'tgan zamon shakllari to'liqsiz fe'llar bilan ishlatiladi?
4. Qaysi zamon shakllari shaklan bir xil?
5. Qaysi zamonlar fe'lining xoslangan shakllarga shakldosh?
6. Xoslangan shakllarda zamon ifodasi qanday kechadi?
7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

7- ma'ruza. Hozirgi zamon fe'lining turlari: hozirgi-kelasi zamon fe'li, hozirgi zamon davom fe'li.
Kelasi zamon fe'lining turlari: kelasi zamon gumon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li

REJA:

1. Hozirgi zamon fe'li.
2. Kelasi zamon fe'li.
3. Fe'l zamonlarining adabiyotlardagi tasnifi.
4. Fe'l zamonlarining ko'chma zamon ifodalashi.

Tayanch so'zlar: hozirgi zamon davom fe'li, hozirgi-kelasi zamon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li, kelasi zamon gumon fe'li, sifatdosh, ravishdosh, shaxs-son, tushlash, sintetik shakl, analitik shakl, sinonimlik.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Hozirgi zamon fe'li

Ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan-bajarilmayotganini ifodalaydi va ikki turli bo'ladi:

1. Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda va undan keyin sodir bo'ladigan harakatni va doimiy harakatni ifodalaydi.

-a, -y qo'shimchasini fe'l o'zagiga qo'shish va 1-shakl bilan tushlashdan hosil bo'ladi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olaman	olamiz

2-shaxs	olasan	olasiz
3-shaxs	oladi	oladi(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	o'qiyman	o'qiyimiz
2-shaxs	o'qiysan	o'qiysiz
3-shaxs	o'qiydi	o'qiydi(lar)

Hozirgi-kelasi zamon shakli bir necha ma'noda qo'llanadi:

1. Nutq paytida bajarilayotgan va nutq paytidan keyin ham davom etadigan harakatni bildiradi: *O'ktam uzoqqa tikiladi, tanish joylarni birma-bir so'roqlaydi.*

2. Nutq paytidan keyin bajariladigan harakatni – kelasi zamonni bildiradi: *Ertaga bug'doy o'tog'iga boramiz.*

3. Zamonda umumiylik ma'nosini bildiradi: *Har kun tinmay paxtasiga ishlaydi.*

4. Nutq paytidan ilgari bajarilgan harakatni bildiradi: *O'qish boshlandi: yuraklarda zavq qaynaydi.*

2. Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin boshlanib, nutq paytida ham aniq davom etib turganini bildiradi. Fe'l o'zagiga -yap, -ayotir, -moqda, -ayotib affikslarni qo'shish 1- shakl bilan tushlash orqali hosil qilinadi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olyapman	olyapmiz
2-shaxs	olyapsan	olyapsiz
3-shaxs	olyapti	olyapti(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olayotirman	olayotirmiz
2-shaxs	olayotirsan	olayotirsiz
3-shaxs	olayotir	olayotir(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olmoqdaman	olmoqdamiz
2-shaxs	olmoqdasan	olmoqdasiz
3-shaxs	olmoqda	olmoqda(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olayotibman	olayotibmiz
2-shaxs	olayotibsan	olayotibsiz
3-shaxs	olayotibdi	olayotibdi(lar)

Kelasi zamon fe'li

Kelasi zamon shakli ish-harakatning nutq so'zlanib turilgandan so'ng bajarilishi yoki bajarilmasligini bildiradi va ikki turli bo'ladi:

1. **Kelasi zamon gumon fe'li** ish-harakatning nutq so'zlangandan so'ng bajarilish-bajarilmasligi mo'ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi fe'l asosiga sifatdoshning **-r, -ar, -mas** shaklini qo'shish va shaxs-sonning 1- shakli bilan tushlashdan hosil qilinadi:

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olarman	olarmiz
2-shaxs	olarsan	olarsiz
3-shaxs	olar	olar(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olmasman	olmasmiz
2-shaxs	olmassan	olmassiz

3-shaxs	olmas	olmas(lar)
---------	-------	------------

Kelasi zamon gumon fe'lining arxaik shakli *ol-ur-man shaklida yasalgan*. Bu shakl hozir qat'iylik ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladi.

2. Kelasi zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi, fe'l asosiga **-moqchi, -adigan, -ydigan** affiksini qo'shish va 2- shakl bilan tushlashdan hosil bo'ladi.

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olmoqchiman	olmoqchimiz
2-shaxs	olmoqchisan	olmoqchisiz
3-shaxs	olmoqchi	olmoqchi(lar)

Shaxs, soni	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	oladiganman	oladiganmiz
2-shaxs	oladigansan	oladigansiz
3-shaxs	oladigan	oladigan

Fe'l zamonlarining adabiyotlardagi tasnifi

1980-yil "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi²da zamon kategoriyasi quyidagicha tasniflangan:

1.O'tgan zamon formalari:

1) **-di** affiksi yordamida yasaluvchi forma: yozdim, yozding, yozdi;

2) **-gan** affiksi yordamida yasaluvchi forma: yozganman, yozgansan, yozgan;

3) **-ib** affiksi yordamida yasaluvchi forma: yozibman, yozibsiz, yozibdi;

4) edi to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi forma: yoz**gan** edim, yoz**ib** edim, yoz**ayotgan** edim, yoz**ayotib** edim, yoz**moqda** edim, yoz**ar** edim, yoz**guvchi** edim.

2.Hozirgi zamon formalari:

1) **-yap, -yotib, -yotir, -moqda**: yoz yapman, yozayotibman, yozayotirman, yozmoqdaman;

2) **yot, tur, o'tir, yur**: yozib yotibdi, yozib turibdi, yozib yuribdi, yozib o'tiribdi.

3.Hozirgi-kelasi zamon formasi:

1) **-a, -y**: yozaman, ishlayman;

2) **-r, -ar, -mas**: ishlarman, yozarman, yozmasman.

1992-yil "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi³da fe'l zamonlari tubandagicha tasniflanadi.

O'tgan zamon fe'llari quyidagi turlarga ajratiladi:

1.Aniq o'tgan zamon: **-di**: yozdim;

2.Uzoq o'tgan zamon shakli: **-gan/ -gan edi**: yozganman, yozgan edim;

3.O'tgan zamon hikoya shakli: **-ib edi**: yozib edim;

4.O'tgan zamon davom shakli: **-r, -ar, -mas edi**: yozar edim, yozmas edim;

5.O'tgan zamon eshitganlik shakli: **-ib**: yozibman.

Hozirgi zamon fe'llari:

1.Aniq hozirgi zamon shakli: **-yotir, -yap, -moqda**: yozayotirman, yoz yapman, yozmoqdaman.

2.Hozirgi-kelasi zamon shakli: **-a, -y**: yozaman.

Kelasi zamon 4 turga bo'ladi:

1. Aniq kelasi zamon shakli: **-ajak, -gu**: yozajakman, yozgum.

2. Kelasi zamon maqsad shakli: **-moqchi**: yozmoqchiman.

3. Kelasi zamon gumon shakli: **-r, -ar, -mas**: yozarman, yozmasman.

4. Kelasi zamon lozim shakli: **-adigan**: yozadiganman.

Fe'l zamonlarining ko'chma zamon ifodalashi

² Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi. – 1980. – B.352-366.

³ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B.332-347.

O'tgan, hozirgi va kelasi zamon ma'nolarining har biri maxsus shakl orqali ifodalanishini yuqorida ko'rib o'tdik. Ammo bir zamon shaklining boshqa zamon shakliga xos ma'noda qo'llanishi ham uchrab turadi. Bu hodisa ma'lum uslub talabi bilan bo'ladi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan sezilib turadi.

Yaqin o'tgan zamon shakli **-di** kelasi va hozirgi zamon ma'nolarida qo'llanishi mumkin. Hozir qorong'uda qayoqqa **bordig-u**, nimayam **qildik** (qayoqqa boramiz-u, nimayam qilamiz). Senga nima dedim-u, uni bajardig.

Hozirgi zamon fe'lining kelasi zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo'llanishi asosan **ket, bor, yubor, boshla** kabi fe'llar doirasida uchraydi: *Biz o'qishga ketyapmiz. Hammamiz birgalikda boryapmiz. Bularni sayohatga yuboryapmiz. Olma terimini boshlayapmiz.*

Hozirgi zamon shaklining o'tgan zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo'llanishi: *Kecha dalada chunonam ketmon chopyaptiki. Bir kuni darchani buzaman deb bolta ko'tarib kelayotibdi. Qarasam, betgachoparlik qiladigan.*

Hozirgi zamon shaklining barcha zamonga oid harakatni ifodalashi: Ukam maktabda o'qiydi.

Yot, tur, o'tir, yur ko'makchi fe'llariga o'tgan zamon hikoya fe'li qo'shilganda hozirgi zamon davom fe'li ma'nosini ifodalaydi: *o'qib yotibman, o'qib turibman, o'qib o'tiribman, o'qib yuribman.*

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'ning zamon kategoriyasi qanday xususiyatga ega?
2. O'tgan zamon fe'llari shaxs-sonning qaysi qo'shimchalari bilan tuslanadi?
3. Qaysi zamon shakllari to'liqsiz fe'llar bilan ishlatilmaydi?
4. Qaysi zamon shakllari shakldosh?
5. O'tgan zamon fe'llarining qay biri fe'ning xoslangan shakllarga shakldosh?
6. Ravishdosh shakllarida zamon ifodasi qanday kechadi?
7. Qaysi zamon shakllari ko'chma zamon ma'nolarini ifodalaydi?
8. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

8- ma'ruza. Fe'ning tuslanishi. Shaxs-son (yoki tuslovchi) affiksalar. Ularning turlari: 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh tuslovchilari; ularning qo'llanish xususiyatlari

REJA:

1. Shaxs-son kategoriyasi.
2. Tuslovchi shakllar
3. Shaxs-son shakllarining ko'chgan ma'noda qo'llash.

Tayanch so'zlar: shaxs, son, tuslovchi, tuslanish, turlanish, egalik, kishilik olmoshi, tuslanishsiz shakl, birinchi shakl, ikkinchi shakl, uchinchi shakl, leksik shakl yasovchi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.

31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma// Toshkent: Akademnashr, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Shaxs-son kategoriyasi

Shaxs-son kategoriyasi fe‘l anglatgan harakatning bajaruvchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Harakatning bajaruvchisi so‘zlovchi, tinglovchi va nutq jarayonida qatnashmagan o‘zga shaxs bo‘lishi mumkin. Shaxs ma‘nolari maxsus affikslar orqali ifodalanadi, bunda ayni bir affiks bajaruvchining sonini ham anglatadi, shuning uchun bu affiks shaxs-son affiksi deyiladi.

Fe‘lning shaxs-sonda o‘zgarishi tuslanish deyiladi, shuning uchun shaxs-son affixlari tuslovchilar deyiladi. Bajaruvchi shaxs bilan harakat orasidagi munosabat predikativlik munosabatining ifodalanishi hisoblanadi. Ega va kesim munosabatini shaxs-son affiksi ko‘rsatadi. Bu esa faqat fe‘l shakllarinigina emas, shu bilan birga, boshqa so‘z turkumlarining ham shaxs-son affiksini olib kelishini ta‘minlaydi: *Men elimning yuragida yashayman. Biz talabamiz.*

Birinchi shaxs tuslovchisi harakatning bajaruvchisi so‘zlovchining o‘zi ekanligini, uning ko‘pligi esa so‘zlovchi ham qatnashgan shaxslarni bildiradi: yozaman-yozamiz, o‘qidim-o‘qidik. Ikkinchi shaxs so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki shaxslarni – suhbatdoshni bildiradi: o‘qiding-o‘qidingiz, yozasan-yozasiz. Uchinchi shaxs tuslovchi esa umuman nutqda qatnashmagan, lekin nutq o‘zi to‘g‘risida bo‘lgan shaxs yoki narsalarni bildiradi: yozdi-yozdilar. Fe‘lning birinchi va ikkinchi shaxs shakli faqat kishiga nisbatan qo‘llanadi (badiiy vosita – jonlantirish bunga kirmaydi). Shuning uchun fe‘llar birinchi va ikkinchi shaxs shaklida kelganda, gapning egasi shu shaxslarni ko‘rsatuvchi kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Fe‘ldagi shaxs-son affiksi tegishli shaxsdagi egani aniq ko‘rsatgani sababli bu shakllarda gapning egasi yashirinishi ham mumkin: *Bularni ko‘rib shodlanaman. Daryolardan kuylab o‘tardim. Avval o‘yla, keyin so‘yla.*

Badiiy asarlarda ikkinchi shaxsning birlik va ko‘pligi jonlantirish yo‘li bilan predmetga nisbatan ishlatilishi mumkin: *Yellar, yuragimga ilhom soldingiz.*

Fe‘lning uchinchi shaxs shakli kishilar uchun ham, predmetlar uchun ham qo‘llangani tufayli gapda eganing kelishi shart bo‘lib qoladi. *U barcha bilan samimiy salomlashdi.*

Tuslovchi shakllar

Tuslanishning quyidagi uch sistemasi bor:

Birinchi tuslanish shakli:

Shaxs/soni	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	-man	-miz
2-shaxs	-san	-siz
3-shaxs	-di, -ti, -dir	

Ikkinchi tuslanish shakli:

Shaxs/soni	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	-m	-k
2-shaxs	-ng	-ngiz
3-shaxs	-o	-olar

Uchinchi tuslanish shakli:

Shaxs/soni	Birlik	Ko‘plik

1-shaxs	-(a)y, -(a)yin	-(a)ylik
2-shaxs	0, -gin	-(i)ng, -ingizlar
3-shaxs	-sin	-sin(lar)

Birinchi tuslanish tarixiy jihatdan eng qadimgisi bo‘lib, kishilik olmoshlardan o‘sib chiqqan. Ikkinchi shakl esa birinchi shakldan hosil bo‘lgan. Birinchi tuslanish affikslari quyidagi fe‘l shakllarini tuslashga xizmat qiladi:

- 1) uzoq o‘tgan zamon fe‘lini tuslaydi: *eshitganman, otgansan, borgan*;
- 2) o‘tgan zamon hikoya fe‘lini tuslaydi: *aytibman, aytibsan, aytibdi*;
- 3) hozirgi zamon davom fe‘lini tuslaydi: *olyapman, olyapsan, olyapti, o‘qiyotirman, olayotibman, olmoqdasan*;
- 4) hozirgi-kelasi zamon fe‘lini tuslaydi: *yozaman, o‘qiyman*;
- 5) kelasi zamon maqsad fe‘lini tuslaydi: *o‘qimoqchiman, o‘qiydiganman*;
- 6) kelasi zamon gumon fe‘lini tuslaydi: *o‘qirman, borarsan*;
- 7) *ekan, emish* bilan tuzilgan analitik shakllarni va kesim vazifasida kelgan boshqa turkum so‘zlarini tuslab keladi: *o‘qir ekanman, talabaman, baxtliman*.

Ba‘zi zamon shakllarida uchinchi shaxs uchun -di affiksi qo‘llanadi, ko‘p hollarda esa bu shaxsning maxsus affiksi bo‘lmaydi: *keldi, kelayotir, kelar, kelmoqchi*.

Ikkinchi tuslanish affikslari quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

- 1) yaqin o‘tgan zamon fe‘lini tuslaydi: *aytdim, aytding, aytdi*;
- 2) to‘liqsiz fe‘l bilan ishlatilgan uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon hikoya fe‘li, o‘tgan zamon maqsad fe‘li va o‘tgan zamon davom fe‘lini tuslaydi: *aytgan edim, aytib eding, bormoqchi edim, oladigan edim, borar eding*;
- 3) shart mayli shakllarini tuslab keladi: *olsam, olsa, olsa*.

Ikkinchi tuslanish affikslari shaklan egalik affikslariga o‘xshaydi: *ko‘rdim, ko‘rding; ruchkam, ruchkang*. Lekin bularning biri fe‘lga qo‘shilib, bajaruvchi shaxsga munosabatni bildirsa, ikkinchisi otga qo‘shilib, biror narsaga qarashlilikni bildiradi.

Uchinchi tuslanish affikslari buyruq-istak maylidagi fe‘llarni tuslashga xizmat qiladi: *olay, olayin, ol, olgin, olsin, olaylik, oling, olingiz, olingizlar, olsinlar; o‘qiy, o‘qiyin, o‘qi, o‘qigin, o‘qisin, o‘qiylik, o‘qing, o‘qingiz, o‘qisinlar*.

Shaxs-son shakllarining ko‘chgan ma‘noda qo‘llash

Fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari o‘z ma‘nolaridagina qo‘llanib qolmay, balki biri ikkinchisi o‘rnida ham qo‘llana oladi. Birinchi shaxsning ko‘plik shakli, so‘zlovchining boshqa shaxslar bilan birgalikdagi harakatini bildirishdan tashqari, birinchi shaxs birligi uchun ham qo‘llanadi. Bunda so‘zlovchining kamtarligi yoki mag‘rurlanishi ma‘nosi ifodalanadi: *Biz bajardik. Biz do‘ndirdik (Men bajardim)*.

Birinchi shaxsning ko‘plik shakli ikkinchi shaxsning ko‘pligi uchun ham ishlatila oladi: *Qani, yozamiz bolalar! O‘quvchilar, safga tizilaylik!*

Ikkinchi shaxsning ko‘plik shakli, bir necha shaxsga murojaat ma‘nosini bildirish bilan birga, ikkinchi shaxsning birligi uchun qo‘llanib, biror shaxsga nisbatan hurmat yoki piching ma‘nosini ifodalaydi: *Samad, bu ishingizning foydasini aytsangiz*.

Ikkinchi shaxsning birlik shakli uchinchi shaxsning birligi uchun ham qo‘llanishi mumkin: *Ming marta tikilsang ham, to‘ymaysan kishi*.

Uchinchi shaxsning ko‘plik shakli hurmat yoki kesatish ma‘nosida shu shaxsning birligi uchun qo‘llanishi mumkin: *Shojalil ham xizmatga borganlar*.

Uchinchi shaxsning ko‘plik shakli ikkinchi shaxsning birligi uchun qo‘llanib, ko‘pincha hurmat, ba‘zan kesatish ma‘nosini ifodalaydi: *Qani, otaxon, yuqoriga o‘tsinlar. Nima xohlasalar hammasi bor. Shuncha ishladilar, qancha jamg‘arma orttirdilar*.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe‘lning sintaktik vazifasini qaysi shakl ifodalaydi?
2. Shaxs-son qo‘shimchasi vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha?
3. Qaysi shaxs-son qo‘shimchasi eng faol sanaladi?
4. Shaxs-son qo‘shimchasini egalik bilan qanday farqlaysiz?

5. Shaxs-son qo‘shimchalari qaysi yozuv tamoyili asosida yoziladi?
6. Shaxs-son qo‘shimchalarining omonimligini asoslang.
7. Shaxs-son qo‘shimchalarining ko‘chma qo‘llanishiga misollar keltiring.
8. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o‘zaro taqqoslang.

9- ma’ruza. Fe’lning yasalihi (affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan fe’l yasash)

Reja:

1. Morfologik usul bilan fe’l yasash
2. Sintaktik yo‘l bilan fe’l yasash

Tayanch so‘zlar: morfologik usul, affiksatsiya usul, kompozitsiya usul, qo‘shimcha, sintaktik usul, ko‘makchi fe’l, yetakchi fe’l, omonim fe’l yasovchi, sinonim fe’l yasovchi, sodda fe’l, sodda tub fe’l, sodda yasama fe’l, qo‘shma fe’l, juft fe’l, takroriy fe’l.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to‘plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma// Toshkent: Akadernashr, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Morfologik usul bilan fe’l yasash

Affiksatsiya usuli bilan fe’l yasashda ot, sifat, son, ravish, olmosh, taqlid va undov so‘zlar yasash asosi bo‘la oladi. Fe’llar morfologik yo‘l bilan fe’llardan yasalmaydi.

Fe’l yasovchilar orasida ko‘p ma’nodlilik ham mavjud: *varaqla, ishla, tuzla*(asosdan anglashilgan narsa bilan shug‘ullanish), *bug‘la, mog‘orla, muzla*(asosdan anglashilgan narsa holatiga o‘tish).

Fe’l yasovchilar orasida shakl va ma’nosiga ko‘ra qo‘shimcha turlari mavjud. Omonim fe’l

yasovchilar: *tozalala, esla – savala, quvla* (fe'ning kuchaytirma shakli). Sinonim fe'l yasovchilar: *senla – sensira*.

Fe'l yasovchilar orasida o'zlashma qo'shimchalar mavjud emas, barchasi o'zbekcha yasovchilardir.

Fe'l yasovchilar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi: *-a, -i, -la, -t, -ay; -lan, -lash, -illa*.

Ishlatilishiga ko'ra:

1. Unumli: *-la, -lan, -lash, sira*.

2. Kam unum: *-i, -ira, -a*.

3. Unumsiz: *-sit(kamsit), -sin(qiziqsin), -qir(hayqir), -sa(vaysa)*.

Hozirda fe'l yasashda quyidagi affikslar qo'llaniladi:

-la: mushtla, qorala, sizla, hozirla, tufla, shitirla, mog'orla

-lan, -lash: faxrlan, ikkilan, ajablan, yordamlash, salomlash, gazlashtir

-r(-ar): o'zgar, qisqar, eskir, bo'zar, oqar, yoshar, ko'kar, qizar

-ir: gapir, tupir, shopir

-a: sana, yasha, o'yna, osha, bo'sha, tuna, ata, shildira

-y: qoray, keksay, tikkay,

-ay: sog'ay, toray, kengay, sarg'ay, ozay, ko'pay, ulg'ay, kuchay, kamay, pastay

-sira: uyqusira, begonasira, sensira, suvsira, uyqusira, yotsira

-ira: yaltira, yiltira, qaltira, sharqira, miltira, yarqira

-k(-ik): ko'zik, kechik, birik

-q(iq): yo'liq, chiniq, zo'riq, zoriq

-i: boyi, changi, tinchi

-illa: chirilla, chirqilla, liqilla, guvilla, shuvilla

-t: to'lat, berkit, yo'qot

-ra: javra, gangra, ingra

-sa: suvsa

-ka: iska

Kamsitmoq, aybsitmoq, boshqarmoq, hayqirmoq, g'ivirsimoq, yo'qolmoq, garangsimok, kuchanmoq, yotsinmoq, qiziqsinmoq fe'llari ham yasama bo'lib juda kam miqdorda fe'llar yasaladi. Hozirgi o'zbek tilida tarixan yasama fe'l bo'lgan, lekin hozirgi til nuqtai nazaridan morfemalarga ajratib bo'lmaydigan fe'llar ham bor. Ularni yasama fe'llarga kiritib bo'lmaydi: *baqirmoq, qichqirmoq, qaqqshamoq, qurshamoq, qaynamoq, chaqna, to'g'namoq, buruqsamoq, tuzalmoq, izg'imoq, vaysamoq*.

Fe'l o'zagiga qo'shiladigan harakatning takroriyliigi, kuchli yoki kuchsiz darajasini ifodalovchi shakl yasovchi qo'shimchalar ham mavjud: bur- *a*, qashi- *la*, quv- *la*, sava- *la*, ishqa- *la*, g'aji- *la*, sur- *ka*, chay- *qa*, turt- *kila*, tep- *kila*, ez- *g'ila*, cho'z- *g'ila*, tort- *qila*, kul- *imsira*, oqar- *inqira*, qo'rq- *inqira*, shosh- *inqira*, to'l- *ish, oqarish*.

Sintaktik yo'l bilan fe'l yasash

Kompoztsiya yo'li bilan qo'shma fe'llar yasalganda ikki va undan ortiq asosning birikuvidan hosil bo'ladi, ulardan yaxlit bir ma'no anglashiladi. Ikki va undan ortiq asos birikib, qo'shma fe'l hosil qilinganda ular orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi.

Qo'shma fe'lning zamon va shaxs-son bilan tuslanishini ko'rsatuvchi affikslar har vaqt keyingi fe'lga qo'shiladi: *xitob ayladi, imzo chekdim, sotib olganman, olib kelibdi*.

Qismlari qaysi turkumdan bo'lishiga qarab qo'shma fe'llar ikki turga bo'linadi:

1. Fe'l+fe'ldan tuzilgan qo'shma fe'llar: *olib qochmoq, chiqib ketmoq, olib kelmoq, olib bor, tashlab ketmoq, aytib kel*. Qo'shma fe'lning bu turi ikki fe'lning -b (-ib) hamda -a, -y ravishdosh shakli bilan bog'lanishidan hosil bo'ladi. Qo'shma fe'llar yangi ma'no anglatishiga ko'ra nutqda mustaqil va yordamchi fe'llardan tuzilib, ikkinchi qismi tugallanganlik, takror, davom, boshlanish kabi turlicha ma'nolarni ifodalovchi analitik shakllardan farq qiladi: *tortib ol (qo'shma fe'l) – yiqila yozdi (yetakchi-ko'makchi fe'l)*.

2. Ot+fe'l (fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'l)dan tuzilgan qo'shma fe'l tarkibidagi qismlar aslida

obyekt bilan harakat munosabatini ko'rsatsa ham, qo'shma fe'l tarkibida ular orasidagi sintaktik aloqa kuchsizlanib, har ikki qism yaxlit holda bir umumiy leksik ma'noni anglatib boshlaydi, ya'ni semantik va grammatik jihatdan o'zaro uzviy bog'lanib ketib, bir leksik birlikni tashkil etadi.

Qo'shma fe'lning birinchi qismi vazifasida ot, sifat, son kabi turkum so'zlari keladi, ikkinchi qismi vazifasida **qilmoq (etmoq, aylamoq, bo'lmoq, ko'rsatmoq)** fe'li qo'llanadi. Qilmoq fe'li birinchi qismda ifodalangan narsa, belgi, xususiyatga, daraja va miqdorga ega qilish, o'shanga xos qilish, shu holatga keltirish kabi ma'nolarni anglatadi: *e'lon qilmoq, vafo qilmoq, katta qilmoq, yuz qilmoq*. Qilmoq fe'lining sinonimi sifatida etmoq, aylamoq fe'llari ham qo'llanadi: *qabul qilmoq – qabul etmoq – qabul aylamoq, obod qilmoq – obod etmoq – obod aylamoq*. Hozirgi o'zbek tilida aylamoq fe'li nisbatan kamroq ishlatiladi: *Ziyofat, keldi-ketdi, allapallagacha davom etdi. O'zingni bos, hovliqma, sabr et. Paxtazorlar qo'ynida mardona javlon aylayin.*

Ba'zan **ko'rsatmoq** fe'li **qilmoq, etmoq** fe'llariga vazifadosh bo'lib kelishi mumkin: *Ayniqsa Xadicha xolaning vaziyati majlisga ko'p ta'sir ko'rsatdi.*

«Ot+fe'l» tuzilishli qo'shma fe'llarda ikkinchi qism bo'lmoq fe'li bilan ham ifodalanadi: *tamom bo'lmoq, tajang bo'lmoq, xafa bo'lmoq, sarson bo'lmoq, ovora bo'lmoq* kabi.

Bo'lmoq fe'lining qo'shma fe'l tarkibida ikkinchi qism sifatida kelishini bu fe'lning ot kesim tarkibida bog'lama vazifasida kelishidan (student bo'ldi, injener bo'ladi kabi) farqlash kerak.

Bo'lmoq fe'li bog'lama vazifasida kelganda, qo'shma fe'l yasalmaydi, balki sodda so'z bog'lama bilan ishlatilgan bo'ladi, xolos. Bu vaqtda bo'lmoq fe'lini boshqa bog'lama bilan almashtirsa bo'ladi: *Samimiy aytilgan so'z sodda bo'ladi. Chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo'ladi. Yaxshi odamning boqishlari ham doimo go'zal bo'ladi*. Misollardagi bo'lmoq fe'lini -dir bog'lamasiga (*soddadir, ustundir, go'zaldir* shaklida) almashtirish mumkin.

Bo'lmoq fe'li qo'shma fe'lning qismi vazifasida kelsa, uni bog'lama bilan almashtirib bo'lmaydi: *Yurtni obod qilaman degan kishi o'zi obod bo'ladi. Har bahorda shu bo'lar takror, Har bahor ham shunday o'tadi*. Misollardagi bo'lmoq qismini -dir bog'lamasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ot va otlashgan so'zlar bilan *qo'ymoq, chiqarmoq, olmoq, bog'lamoq, ko'rmoq, tutmoq, kechirmoq, tashlamoq* kabi fe'llarning birikishidan asli frazeologik birliklar hosil bo'ladi; bunday birliklarni ot+fe'l tuzilishli qo'shma fe'llar qatoriga kiritish to'g'ri bo'lmaydi: *ko'ngil qo'ymoq, nom chiqarmoq, dam olmoq, umid bog'lamoq, yo'l tutmoq, qo'lga olmoq, kun kechirmoq, qadam tashlamoq, fikrga kelmoq, ko'zdan kechirmoq*. Bu xil birliklarning ma'nosi uning tarkibidagi qismlarning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki har ikki qismi yaxlitligicha ko'chma ma'no anglatadi. Masalan, *Aya, ortiqcha ortiqcha tashvish tortmang. Uzun koridordan o'ninchi palataga yo'l oldik*.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'l qo'shimcha qo'shish bilan qaysi turkumlardan yasaladi?
2. Fe'l qo'shimcha qo'shish bilan qaysi turkumdan aslo yasalmaydi?
3. Fe'l o'zakka qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra qaysi turlari qo'shila oladi?
4. Omonim fe'l yasovchilar qaysilar?
5. Sintaktik usul bilan fe'llar qanday yasaladi?
6. Fe'l bo'lmagan turkumlardan qaysi fe'llarni qo'shib fe'l yasaladi?
7. Fe'llar eng ko'p qaysi turkumdan yasaladi?
8. Fe'llarni juftlashdan qaysi turkum so'zlarni yasash mumkin?
9. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

10- ma'ruza. Fe'lning tuzilish jihatdan turlari: sodda va qo'shma fe'llar. Juft fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari. Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari: sintetik va analitik shakllari. Ko'makchi fe'llar

Reja;

1. Fe'llarning tuzilish jihatdan turlari.
2. Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari.

3. Mustaqil va yordamchi fe'llar.

Tayanch so'zlar: asos, qo'shimcha, sintaktik usul, ko'makchi fe'l, yetakchi fe'l, omonim fe'l yasovchi, sodda fe'l, sodda tub fe'l, sodda yasama fe'l, qo'shma fe'l, juft fe'l, takroriy fe'l.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O', Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Fe'llarning tuzilish jihatdan turlari

Fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takroriy bo'ladi.

1. Sodda fe'llar.

Sodda fe'l bir asosdan tashkil topadi, yasama yoki tubligiga ko'ra sodda tub fe'l (*bormoq, kelmoq, o'qimoq, yozmoq, o'tirmoq, turmoq, to'xtamoq, olmoq, chopmoq, g'ajilamoq, savalamoq, ko'rsattirmoq, kulimsirammoq*) va sodda yasama fe'lga (*kechikmoq, birlashmoq, ranjimoq, oqarmoq, garangsimoq, shodlanmoq, sanamoq, gapirmoq, ko'karmoq, yaltiratmoq*) bo'linadi.

Qo'shma fe'llar ikki fe'lning birikuvidan yoki fe'l bo'lmagan so'zning fe'l bilan birikuvidan tuzilgan bo'ladi: *sotib olmoq, olib kelmoq, tasdiq bo'lmoq, qabul qilmoq*.

Qo'shma fe'l yangi atash ma'nosiga ega bo'lgan birdan ortiq asosdan tashkil topadi. Uning tarkibi fe'l + fe'l (*sotib olmoq, olib bormoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq, chiqarib olmoq, sotib yubormoq, qarab qolmoq*) yoki fe'l bo'lmagan so'z+fe'l (*vafot et/qil, voz kech, voyaga yet, voqe bo'l, garov bog'la/o'yna, girgitton bo'l, giriftor bo'l/qil, gum bo'l/qil, gumdon bo'l/qil, da'vat et/qil, yod et/ol, jabr ko'r/qil, javob ber/ol/qaytar, jazm et/qil, jalb et/qil, jiz et, jilva qil, jilo ber, judo bo'l/qil, zabt et/qil, zada bo'l/qil, zikr et/qil, soz bo'l/ket, zomin bo'l, zor bo'l/qil, izza bo'l/qil, izn ber/so'ra, izhor et/qil, imo et/qil, inkor et/qil, intizor bo'l/et/qil, in'om et/qil, isyon ko'tar/qil, isloh et/qil, isnod keltir*) bo'lishi mumkin. Qo'shma fe'llar yasama

so‘z bo‘lib, qismlari doimo ajratib yoziladi.

Ikki fe‘lning birikuvidan tuzilgan yetakchi-ko‘makchi munosabatli fe‘llar ham shaklan qo‘shma fe‘llarga teng: *yiqila yozdi, qiynalib qoldim*.

Juft fe‘l birdan ortiq fe‘lning juftlashib birikuvidan tashkil topadi. Tarkibi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda: *aylanib-o‘rgilmoq, yeb-ichmoq, yelib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, o‘ynab-kulmoq, qo‘llab-quvvatlamoq*.

2) ikkisi ham bir xil shaklda (ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasining juftlashgan shakli ham shunga kiradi): *o‘tgan-ketgan, o‘tgan-qaytgan, o‘lib-tirilib, o‘lib-qutulib, qolgan-qutgan, qizarib-bo‘zarib, qisinib-qimtinib, qo‘llab-quvvatlab, qo‘shilib-qorilib, hormay-tolmay; aytdim-qo‘ydim, yozding-olding, chiqdi-qoldi, o‘qidik-tashladik* va hokazo.

Fe‘lning juft shakllarida birinchi qism leksik ma‘no anglatadi, ikkinchi qism esa shu ma‘noga tugallanganlik, tez bajarilganlik, jadallik, kutilmaganlik kabi ma‘nolarni bildiradi: *Xayollarim uchdi-ketdi. Bola darrov chiqdi-ketdi*.

Juft shakllar tarkibidagi har ikki komponentning bir xil morfologik ko‘rsatkichga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Takroriy fe‘l: *yurib-yurib, kula-kula, yig‘lay-yig‘lay, turib-turib, pishgan-pishgan, chiniqqan-chiniqqan*.

Takroriy shakllar ayni bir fe‘lning takroridan hosil bo‘lib, bu vaqtda birinchi komponent shart mayli shaklida, ikkinchi qism esa buyruq-istak mayli shaklida keladi: *aytsam-aytay, yozsang-yoz, borsa-borsin*. Bu shakl so‘zlovchining harakatni bajarishga bo‘lgan munosabatini bildiradi: *borsam-boray, ishlasa-ishlasin, bersang-ber*.

Sifatdosh ham takroriy shakl hosil qiladi. Bunday shakl davomlilik, takroriylik, ma‘nolarini bildiradi: *Doim yugurgani-yugurgan. Ota-onalarning kuyingani-kuyingan*.

Ravishdoshning takroriy shakllari orqali takroriylik, davomlilik, kuchaytirish, ta‘kid ma‘nolari ifodalanadi: *Temirchi kuyib-kuyib temirchi bo‘ladi. Alimardon aytib-aytib charchadi. Dardini yig‘lab-yig‘lab aytdi*.

Ko‘pgina fe‘l takror yo juft qo‘llanganda boshqa turkumga ko‘chishi mumkin: *ur-yiqit, yurish-turish, yemoq-ichmoq, yugur-yugur, chop-chop, oldi-berdi, bordi-keldi, oldi-sotdi, dedi-dedi* (ot); *kuydi-pishdi* (sifat).

Fe‘lning modal ma‘no ifodalovchi shakllari

Fe‘lning quyidagi modal shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalari haraktning miqdoriy tavsifini bildiradi, uning davomlilik, takroriylik va kuchsizligi kabi ma‘nolarni ifodalaydi:

1. **-la, -a, -ka, -qa** affikslari fe‘l asosiga qo‘shilib, takror ma‘nosini bildiradi: *ishqa – ishqala, quv – quvla, sava – savala, cho‘qi – cho‘qila, bur – bura, sur – surka, chay – chayqa*.

2. **-g‘ila (-kila, -qila)** affiksi ham harakatning davomlilik, takror ma‘nolarini bildiradi: *ezg‘ila, cho‘z–cho‘zg‘ila, turt–turkila, tep–tepkila, tort–torqila*.

3. **-imsira, -inqira** affikslari harakatning kuchsizligini uning odatdagi holatga yetmaganligini bildiradi: *yig‘la – yig‘lamsira, kul – kulimsira, oqar – oqarinqira, qo‘rq – qo‘rqinqira, shosh – shoshinqira*.

4. **-ish** affiksi ham harakatning kuchsiz darajada ekanini bildiradi: *oqar – oqarish, to‘l – to‘lish*.

Professor A.Nurmonov gap semantikasi obyektiv va subyektiv ma‘nolar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik ekanini e‘tirof etgan holda, gapning obyektiv mazmuni inson ongida aks etgan obyektiv voqelik ekanini ta‘kidlab, gap semantikasi tahlilida ushbu holat e‘tiborga olinishini aytib o‘tadi. Olim murakkablashgan gaplar xususida to‘xtalib, murakkablashuvni ikki guruhga a) ham shakliy, ham mazmuniy murakkablashuvga va b) mazmuniy murakkablashuvga ajratishni tavsiya etadi va buning natijasida murakkablashgan gaplardagi murakkablashtiruvchi unsurlar maqomini belgilab beradi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida shu paytgacha ushbu sintaktik hodisaga bo‘lgan munosabatga oydinlik kiritib beradi.

Sifatdosh, ravishdosh o‘ramli va harakat nomli tizimlar bilan murakkablashish holatini sintaktik jihatdan sodda yoki qo‘shma gapga kiritish haqidagi qarashlarga A.Nurmonovning

“bunday tizimlarda ega-kesimlik belgilarining yo‘qligi ularning gap sifatida qaralishiga imkon bermaydi va ular murakkablashgan gap sirasiga kiradi” degan nazariyasi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqil va yordamchi fe‘llar

Ma‘no xususiyatlariga qarab fe‘llar ikki turga bo‘linadi:

1. Mustaqil fe‘llar.
2. Yordamchi fe‘llar.

Mustaqil fe‘llar quyidagi xususiyatlarga ega :

1. Mustaqil ma‘noga ega bo‘ladi va gapning biror bo‘lagi vazifasida keladi: *Institutni a‘loga tamomladi. Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi.*

2. Biror so‘zni boshqarib keladi (boshqarish xususiyatiga ega): *vazifani bajardi, o‘qishga ketdi, maktabdan keldi, qishloqda yashaydi.*

3. Obyektga munosabatda (o‘timli yoki o‘timsiz) bo‘ladi: *aytdi (ishni), ketdi (xizmatdan), kuldi (bolaga).*

4. Mustaqil fe‘llar fe‘lga xos grammatik kategoriyalarga, shuningdek, funksional shakllarga ega va shu formalarga xos vazifalarda qo‘llanadi: *yugurdim* – aniq nisbat, bo‘lishli, xabar mayli, o‘tgan zamon, birinchi shaxs, birlik; *borgan* – sifatdosh, *aytib* – ravishdosh, *otish* – harakat nomi.

5. Har qanday harakat bajarilish yoki bajarilmaslikka munosabatda bo‘ladi va fe‘llar ana shu munosabatni ifodalovchi formaga egadir: *bordi –bormadi.*

6. Harakatning bajarilishi, albatta, zamon doirasida bo‘ladi. SHunga ko‘ra harakat zamon ma‘nosini ifodalovchi shakllarga ham ega bo‘ladi: *borgan, bordi, boribdi, boradi.*

Yordamchi fe‘llar harakat bildirmaydi(mustaqil ma‘noga ega emas). Ular turli grammatik ma‘nolar ifodalash uchun yoki boshqa vazifada xizmat qiladi. YOrdamchi fe‘llar asosiy xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha bo‘linadi:

1. Ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi.
2. To‘liqsiz fe‘llar.

Eslatma: So‘z yasash uchun xizmat qiluvchi va bog‘lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe‘llar: *bo‘l, qil, ayla, et: katta bo‘lmoq, tasdiq bo‘lmoq, yordam qilmoq, vafo aylamoq, tasdiq etmoq; yordamchi fe‘llar deb belgilangan.*

Ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi

Fe‘llarga birikib, turli qo‘shimcha ma‘no ifodalovchi ko‘makchi fe‘llar ikki fe‘lning birikuvidan hosil bo‘ladi: *chiq(o‘qib chiqdi), qol(uxlab qoldi), ket(cho‘chib ketdi), ber(o‘qib berdi), yoz(yiqila yozdi).* Ular tarkibidagi asosiy ma‘noni ifodalaydigan fe‘l – yetakchi fe‘l deyiladi: *o‘qib chiqdi, ko‘pa boshladi, aytib berib tura qol.* Yetakchi fe‘lning ma‘nosini izohlaydigan, to‘ldiradigan fe‘l esa ko‘makchi fe‘l deyiladi: *o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, gapirib tashla, sotib yubordi, berib tur, yiqila yozdi, gapirib berib qo‘ya qol.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomidagi kitobi “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan nashr qilindi.

Yetakchi va ko‘makchi fe‘lning qo‘shilishidan qo‘shma fe‘l, ya‘ni yangi so‘z hosil bo‘lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug‘aviy ma‘noni ifodalamaydi. Yetakchi va ko‘makchi fe‘lning birikishidan ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi hosil bo‘ladi, ya‘ni tuzilishiga ko‘ra qo‘shma shaklda bo‘lsa-da, qo‘shma fe‘l deb nomlanmaydi.

Bunday fe‘llarning birinchisi mustaqil fe‘l bilan, ikkinchisi ko‘makchi fe‘l bilan ifodalanadi. Mustaqil fe‘l tarkibida -(i)b, -a(y) affiksi bilan yasalgan ravishdosh bo‘ladi. Analitik shaklda yetakchi qism o‘z ma‘nosini saqlaydi, ammo ko‘makchi fe‘l o‘z leksik ma‘nosini yo‘qotib grammatik ma‘no (tugallik, boshlanish, to‘satdanlik, tezlik, takroriylik, davomlilik) ifodalashga xizmat qiladi: *o‘qib ketdi, yona boshladi.*

Ayrim darsliklarda bu birikmalar harakat tarzi shakllari deb ham yuritiladi.

Harakat tarzi shakllari quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

- 1.Harakatni bajarishga kirishish (o‘qiy boshladi).
- 2.Harakat bajarishga imkoniyat (bajara oladi).
- 3.Harakatning davomli muddatda ora-sira bajarish (borib turibman).

4. Harakatning kutilmaganda sodir bo'lishi (qurib qoldi).

5. Harakatni sinash maqsadida bajarish (tatib ko'rdi).

6. Harakatlarni o'z maqsadlarida bajarish (yozib oldi).

7. Harakatning boshqalar uchun bajarilishi (sotib berdi).

8. Harakatning uzoq davom etishi (sinab yuribman).

9. Harakatning favquloddagi (ishonib o'tiribman).

10. Harakatning to'la bajarilishi (bajarib bo'ldi).

11. Harakatning to'siqsiz bajarilishi (olib tashladik).

12. Harakatni bajarmaslikni qat'iy ta'kidlash (bora ko'rma).

13. Harakatning ma'lum muddatgacha davom ettirilishi (tura turgin).

Ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmaci tarkibidagi yetakchi fe'l uyushib kelishi ham mumkin: *Yil sayin tajribali dehqonlarning yeri kengayib, texnikasi ko'payib, odamlari o'sib bormoqda.*

Ba'zan ko'makchi fe'l birdan ortiq bo'lishi mumkin: *aytib berib tura qol* (*aytib* – yetakchi fe'l, *berib tura qol* – ko'makchi fe'l), *o'qib bera qol*, *o'qib bergan edi*, *sotib olib qo'ya qol*, *ado qilib qo'ya qol*.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'llarga ravishdosh yasovchi *-b -ib, -a, -y* qo'shimchalari yordamida bog'lanadi. Ayrim ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lga qo'shimchasiz ham birikadi: *yozdildi, aytsa-qo'ysa, ketsin-qo'ysin, ayt-qo'y*.

O'zbek tiliga faqat ko'makchi fe'l bo'lib keladigan fe'llar umuman yo'q. Ayrim fe'llar o'z asl ma'nolaridan tashqari ko'makchi fe'l vazifasida keladi. Bularni yetakchi fe'llarga bog'lanishi jihatidan quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) ravishdoshning *-b (-ib)* qo'shimcha turiga birikadi: *yot, o'tir, yur, kel, bo'l, bit, chiq, et, o't, yubor, tashla, tush, o'l, qara, boq, qo'y*;

2) ravishdoshning *-a, -y* qo'shimchali turiga birikadi: *boshla, bil, yoz*;

3) ravishdoshning ham *-b (-ib)* qo'shimchali turlariga birikadi: *tur, bor, ol, ber, qol, ko'r, ket* (sol ko'makchi fe'li *-b (-ib)* *-a, -y* qo'shimchasini olgan yetakchi fe'lga bog'lanadi).

Bu ko'makchi fe'llarni yana ma'no jihatidan harakat jarayonini tasvirlovchi (*boshla, kel, ket, yot, tur, yur, o'tir, bor, ber, bo'l, bit, bitir, chiq, et, o't, ol, qo'y, yubor, sol, tush, tashla, o'l, ko'r, yoz, qol*), modal ma'nolarni ifodalovchi, ya'ni so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi (*bil, bo'l, qol, qo'y, ko'p, ber, qara, boq, tur, yur, o'tip, yoz*), yo'nalish ma'nosini ifodalovchi (*ol, ber*) kabi guruhlariga bo'lish mumkin.

Yetakchi ko'makchi munosabatli fe'llarda fe'lga xos shakllar quyidagicha tartiblanadi:

1. Bo'lishli-bo'lishsizlik yetakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham, har ikki fe'lga ham qo'shila oladi: *o'qib chiqma, o'qimay chiq, o'qimay chiqma*.

2. Nisbat (daraja): yetakchiga ham, ko'makchiga ham qo'shila oladi:

a) o'zlik nisbat shakllari faqat yetakchi fe'lga qo'shiladi: *yuvina boshladi, turtinib qoldi*.

b) majhul nisbat qo'shimchalari ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *o'qib berildi, yulib tashlandi*.

v) orttirma nisbat formasi yetakchi fe'lga qo'shiladi: *kuldirib yubor, yozdirib qo'y*.

g) birgalik nisbat qo'shimchasi asosan ko'makchi fe'lga, ba'zan yetakchi fe'lga qo'shiladi: *o'qib chiqishdi, ko'rishib chiqdi*.

3. Mayl qo'shimchasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *o'qib oldi, ayta olsam, ko'ra qolgin, o'qib beraylik, bora qolingiz, berib yubormoqchi*.

4. Zamon qo'shimchasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *bilib qolgan, tatib ko'ribdi, sidirib tashladi, yig'lab o'tirardi, kirib olmoqchi edi, kelishib olaman, chiqa boshlayapti, tatib ko'rmoqchiman, tatib ko'rar*.

5. Shaxs-son qo'shimchasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *yona boshladim, ayta turayin, ko'rib yotibman, aytib qo'ysin*.

6. Fe'lning xoslangan shakli qo'shimchalari ham ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *bera olmoq, ayta olish, ko'ra boshlagan, yona boshlabdi*.

Juft ishlatilgan yetakchi-ko'makchi shaklli fe'llarga zamon, mayl, shaxs-son bir xil qo'shiladi: *aytdim-qo'ydim, aytsa-qo'ysa, yozdik-oldik, aytildi-qo'yildi*.

Borsa-borsin kabi ikki xil mayldagi fe'llar yetakchi-ko'makchi munosabatli shakl emas. *Oldi-berdi, bordi-keldi, ur-yiqit* fe'l emas, yasama otlardir.

Fe'llarni tahlil qilish tartibi va namunasi:

1. Fe'lning bosh shakli.
2. Fe'l ifodalagan ma'nosi.
3. Nisbati.
4. Bo'lishli-bo'lishsizligi.
5. Mayli.
6. Zamoni.
7. Shaxs-soni.
8. Tub yoki yasamaligi.
9. Yasama fe'llarning yasalish usuli.
10. Fe'lning tuzilish jihatdan turi.
11. Gapdagi sintaktik vazifasi.

Harakat nomi shaklining yasalishi, nisbati, otga xos xususiyatlari (egalik, kelishik shallari), gapdagi vazifasi.

Sifatdoshning yasalishi, nisbati, bo'lishli-bo'lishsizligi, zamoni, tuslanish-tuslanmasligi, otlashish-otlashmaslik xususiyati, otlashgan bo'lsa, ko'plik, egalik, kelishik shakllarining ifodalanishi, sintaktik vazifasi.

Ravishdoshning yasalishi, nisbati, bo'lishli-bo'lishsizligi, tuslanish-tuslanmasligi aniqlanadi, gapdagi vazifasi.

Yoshlarni murakkab o'rinlarga yuborishyapti. Yuborishyapti – nima qilishyapti? so'rog'iga javob bo'ladi, fe'l, harakat ifodalagan, birgalik nisbatda, bo'lishli, xabar maylida, hozirgi zamon davom fe'li, 3-shaxs, ko'plik, tub, sodda, fe'l-kesim.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'llarni juftlashdan qaysi turkum so'zlarni yasash mumkin?
2. Takroriy fe'llar qaysi mayl shaklida ishlatiladi?
3. Qo'shma fe'l bilan yetakchi-ko'makchi munosabatdagi fe'llarni qiyoslang.
4. Fe'llar qaysi turkumlarga siljiy oladi?
5. Ko'makchi fe'l va fe'l ko'makchini qanday farqlaysiz?
6. Fe'l modal shakli hosil qiluvchi qo'shimchalarni omonimlariga qiyoslang.
7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

11- ma'ruza. Ravish. Ravishning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Ravishlarning ma'no turlari: holat, miqdor-daraja, payt, o'rin sabab, maqsad ravishlari.

Ravishlarda daraja (oddiy, qiyosiy, ortirma darajalar)

Reja:

1. Ravishning leksik ma'nosi va morfologik belgilari.
2. Ravishning ma'no turlari.
3. Ravishning sintaktik vazifasi.
4. Ravishlarda shakl yasalishi.

Tayanch so'zlar: harakat belgisi, holat belgisi, morfologik o'zgarma, holat ravishi, o'rin ravishi, payt ravishi, miqdor-daraja ravishi, sabab ravishi, maqsad ravishi, hol, kesim, sifatlovchi, otlashuv, ravish yasovchi affiks, prefiks, ravishga siljish, kompozitsiya, sintaktik usul, juftlash, takrorlash, sodda ravish, qo'shma ravish, yaxlitlanish.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.

2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O', Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Ravishning leksik ma'nosi va morfologik belgilari

O'zbek tilshunosligining morfologiya bo'limi yuzasidan 14-asrdan buyon ma'lum kuzatishlar mavjud bo'lgan bo'lsa ham, uning tilshunoslikning alohida bo'limi, grammatikaning tarkibiy qismi ekanligi o'tgan asrning 30-yillaridan e'tirof etila boshladi. Fitratning «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. “Sarf” asari yozilib, 1925-30- yillarda bir necha marta nashr etildi. Shuningdek, M.Shamsiyev va Sherbeklarning «O'zbek tili grammatikasi» (1932), H.Qayumiy va S.Dolimovlarning «Grammatika» (1938), O.Usmonov va B. Avizovlarning «Grammatika. 1-bo'lim. Morfologiya» (1938-40) asarlari yaratildi; shu darsliklar orqali o'zbek tilshunosligiga «grammatika», «morfologiya», «sintaksis» terminlari olib kirildi. Lekin bular maktab o'quvchilari uchun yozilgan darsliklar bo'lib, lingvistik hodisalarni chuqur ilmiy tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yagan edi.

O'zbek tilshunosligi tarixida morfologiya bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning 40-yillaridan boshlandi. Prof. A.G'ulomovning «O'zbek tilida kelishiklar» (1940), «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» (1944) singari asarlarining dunyoga kelishi, shuningdek, U.Tursunovning ko'makchilar, X.Komilovning kelishiklar, Z.Ma'rufovning ot va sifat yuzasidan olib borgan tadqiqotlari o'zbek ilmiy morfologiyasining yaratilishidagi dastlabki harakatlardan bo'ldi.

Morfologiya bo'limi bo'yicha jiddiy ilmiy tadqiqotlar 50-yillardan ayniqsa kuchayadi. Bu yillarda barcha yetakchi ilmiy kuchlar o'zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasini yaratishga safarbar qilindi va «Hozirgi zamon o'zbek tilidan materiallar» rukni ostida A.G'ulomovning «O'zbek tilining morfologiyasiga kirish» (1953), «Fe'l» (1954), S.Usmonovning «O'zbek tilida undovlar» (1953), X.Komilovning «O'zbek tilida son va olmosh» (1953), M.Asqarova, R.Jumaniyozovlarning «O'zbek tilida ravishdosh va sifatdosh» (1953), S.Fuzailovning «O'zbek tilida ravishlar» (1953), Sh.Shoabdurahmonovning «O'zbek tilida yordamchi so'zlar» (1953)

singari asarlari nashr etildi. Ana shu risolalar asosida 1957-yilda o'zbek tilshunosligi tarixida birinchi marta o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, grafikasi, orfografiya va orfoepiyasini o'z ichiga olgan yirik asar – «Hozirgi zamon o'zbek tili» nashrdan chiqdi.

Mazkur asar bosilib chiqqandan so'ng o'zbek tili morfologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga yanada jiddiy e'tibor berila boshladi. So'zlarning morfologik tuzilishiga bag'ishlangan S.Usmonovning doktorlik, O.Qosimxo'jayevaning nomzodlik dissertatsiyalari yozildi. A.Hojiyevning «Fe'l», «Qo'shma, juft va takroriy so'zlar» (1963), «O'zbek tilida ko'makchi fe'llar» (1966), «To'liqsiz fe'l» (1970) singari yirik monografiyalari yaratildi.

O'zbek tilshunoslari erishgan barcha yutuqlarni o'zida jamuljam etib yozilgan A.N.Kononovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatikasi» (1960), 2 jildli «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1966), 2 jildli «O'zbek tili grammatikasi» (1975) asarlarining maydonga kelishi o'zbek tili grammatikasining takomillashuvida katta xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tili grammatikasini jahon tilshunosligi yutuqlari asosida tadqiq etishga e'tibor qaratildi. O.Bozorov, J.Eltazarov, Sh.Shahobiddinovalarning ilmiy izlanishlari, mualliflar guruhining «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya» (2001) asari shu yo'nalishdagi ishlardandir.

Belgi nomlari nimaning belgisini bildirishiga ko'ra sifat va ravishlarga bo'linadi. Narsaning belgisini bildiruvchi nomlar sifat, harakatning belgisini bildiruvchi nomlar esa ravish sanaladi. Masalan, *qizil* predmetning rang belgisini, *to'satdan*, *ataylab* singari so'zlar harakatning tarz, maqsad belgilarini bildirishga xoslangandir.

Ko'rinadiki, so'zlarni semantik jihatdan 2-ilovadagi guruhlariga bo'lish mumkin.

Ravish mustaqil so'z turkumiga mansub bo'lib, harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgi (sifat va ravish)ning belgisini bildiradi. Ravish morfologik jihatdan o'zgaras bo'lib, ko'pincha fe'llarga bog'lanib keladi: *Elmurod javob bershi uchun ko'p o'ylab turmadi. Ilgari bo'lgan voqeani buguncha aynan ko'chirib aytib qo'ya qoldi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

Ravish ayrim vaqtlarda sifat va otga, shuningdek, ravishning o'ziga ham bog'lanib kelishi mumkin: *Ko'p moldan oz aql yaxshi. Erta kuzakda tog' cho'qqilariga qor tushdi. Saida bu suhbatni juda diqqat bilan kuzatdi. O'sha kuni Usmonov uyiga juda kech qaytdi. Xo'roz bevaqt qichqirdi. Bevaqt tashrif hammani tashvishga soldi.*

Ravishning turlanish va tuslanish xususiyatiga ega emasligi, ko'pincha fe'lga bog'lanib, hol vazifasida kelishi uning asosiy grammatik belgisi hisoblanadi: *Aksiga qor yog'ganini qarang.* (Oybek) *G'ulomjon bu keksa dunyoda juda kam yashagan bo'lsa ham, boshidan juda ko'p uqubatlar kechirdi. Saida orqasiga qaytdi, jo'rttaga sada ostidan yurdi.*

Maxsus so'z yasovchi affikslarga ega bo'lishi (-cha, -ona, -larcha, -lab) va otga xos ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini olib otlasha olishi ravishlarning grammatik belgilariga kiradi.

Belgi bildiruvchi so'z bo'lganidan ravishlar sifatga yaqin turadi. Ravishlar harakat va belgining belgisini sifat kabi darajalab, boshqalariga chog'ishtirib ko'rsatish xususiyatiga ham ega: *Ozroq gapirsang bo'lar edi.*

Ba'zan ravishlar otga bog'lanib, predmetning belgisi va miqdorini bildiradi: *Akam harbiydan askarcha etik kiyib kelgan edi. Ularni andak gaplari borga o'xshaydi. Oz so'z – soz so'z.*

Ravishning predmetga bog'lanib belgi bildirishi uning asosiy xususiyati emas, balki sifat o'rnida kelishidir. Sifat ham ba'zan predmet emas, harakat ma'nosini bildirib kela oldi: *Salima chiroyli gapirdi.*

Ba'zi ravishlar o'zining lug'aviy ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalashga ham xizmat qiladi: *ilgari, avval, burun, ichida, so'ng, keyin* – ravishdan chiqqan ko'makchilar; *haqiqatan, avvalo, umuman, asosan, zotan, aksincha, taxminimcha, aytishlaricha* – ravishdan chiqqan modal so'lardir.

Ravishning ma'no turlari

Ravishlar ma'no jihatidan olti guruhga bo'linadi:

1. Holat ravishi.
2. O'rin ravishi.

3. Payt ravishi.
4. Miqdor-daraja ravishi.
5. Sabab ravishi.
6. Maqsad ravishi.

Holat (tarz) ravishi ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, yuz berish holatini bildiradi, *qanday?, qay tarzda?, qanday qilib?* kabi soʻroqlarga javob boʻladi: asta, sekin, tez, darrov, darhol, qahramonlarcha, piyoda, yayov, bekorga, toʻsatdan, doʻstlarcha, dafʼatan, devonavor, jabran, jisman, jufay, indamasdan, astoydil, doʻstona, birma-bir, bitta-bittalab, yurakdan, ablahlarcha, ahmoqona, qabihlarcha, razillarcha, razilona, nodonlarcha, ayyorona, aksincha, alang-jalang, alpang-talping, apil-tapil, atroflicha, aqalli, baayni, bajonidil, baittifoq, bamaylixotir, bamaslahat, baralla, aniq, ravshan, dangal, roʻyi-rost, ochiqdan-ochiq, basma-bas, basma-basiga, batamom, baqamti yuzma-yuz, bemalol, biyron-biyron, boshma-bosh, qaytadan, yangidan, boshqatdan, butkul, butunlay, tamomila, batamom, vahshiylarcha, yirtqichlarcha, yovuzlarcha, vahshiyona, vijdonan, galma-gal, guras-guras, toʻp-toʻp, zaylida, qabilida, tarzida, ziq, zoe, zohiran, zud, zoʻr-bazoʻr, insofan, lafzan, loaqal, aqalli, lutfan, mantiqan, maʼnan, ruhan, maʼsumona, maʼyusona, muzaffarona, gʻolibona, gʻoliblarcha, mutakkabirona, takabburona, mushtoqona, moʻlt-moʻlt, navbatma-navbat, namoyishkorona, naslan, noxosdan, bexosdan, qoʻqqisdan, ochnahor, paydar-pay, paqqos, pok-pokiza, pora-pora, boʻlak-boʻlak, parcha-parcha, chilpora.

Holat ravishi sintaksisda quyidagi vazifalarda keladi:

1. Ravish holi: *Karim doʻstona maslahat qildi. U sherigiga aybdorlarcha gapirdi.*
2. Kesim: *Ishlarim juda jadal.*
3. Otga bogʻlanib sifatlovchi: *Doʻstlarcha maslahat berildi.*

Payt ravishi harakat va holatning bajarilish paytini bildirib, *qachon?, qachondan beri?* soʻroqlariga javob boʻladi: hozir, boya, bugun, kecha, avval, avvalo, dastavval, oldin, endi, erta, indin, saharlab, ertalab, doim, hali-beri, erta-kech, tun-u kun, burun, bevaqt, baʼzan, abad, abadiyan, abadulobod, hamisha, abadiy, dastlab, azal, azaldan, azonda, azonlab, alohal, banogoh, barvaqt, bemavrid, hali, yaqinda, goh-goh, gohida, mangu, mudom. *Koʻp urindim, alohal boʻlmadi. Hali-beri bahor kelmaydiganga oʻxshaydi. Ikki narsa bir-biriga abad yoʻldoshdir, Biri tigʻdor ayoq boʻlsa, biri quyoshdir. (YO. Mirza) Sergey Qobilning yuragida koʻmilib yotgan sir-u asrorini bilish uchun olisdan gap boshlashga qaror berdi.*

Payt ravishi sintaksisda payt **hol** va **kesim** vazifasini bajaradi: *Bugun sen tugʻilgan kun. Mehnat qilish pallasi hozir.*

Oʻrin ravishi harakat va holatning bajarilish oʻrnini va harakat yoʻnalgan tomonni bildiradi, *qayerga?, qayerda?, qayerdan?* soʻroqlariga javob boʻladi: yuqoriga, yuqorida, yuqoridan, ilgoriga, olgʻa, toʻgʻriga, oldinda, uzoqda, pastda, shu yerda, unda-bunda, yuqoridan, quyidan, orqadan, olisdan.

Olisdan osmonga intilgan qizgʻish nur borgan sari avjlanardi. (S. Zunnunova)

Oʻrin ravishi sintaksisda **oʻrin holi**, baʼzan **kesim** boʻlib keladi: *Har yondan qoʻshiqlar eshitilardi. Mustaqillik moʻjizalari hali oldinda.*

Miqdor-daraja ravishi harakat va holatning miqdoriy belgisini yoki belgining ortiqligini bildiradi, *qancha?* soʻrogʻiga javob boʻladi. Miqdor-daraja ravishlari anglatgan maʼnosiga qarab harakatning miqdor jihatdan belgini koʻrsatuvchi va harakat yoki belgining ortiqligining koʻrsatuvchi ravishlarga boʻlinadi.

1. Harakat va holatning miqdor belgisini bildiruvchi ravishlar: sal, xiyla, picha, andak, biroz, kam, bazur, bazoʻr, zoʻrgʻa, arang, sal-pal, chor-nochor, bahuzur, bemalol.

2. Harakat va holatning ortiqligini koʻrsatuvchi ravishlar: *juda, eng, oʻta, gʻoyat, nihoyat, nihoyatda, yanada, kushod, tagʻin, tamomila, uncha, oʻbdan, oʻta, zir.*

Qancha soʻroq olmoshi ravish vazifasida ham kela oladi: *Qancha(soʻroq olmoshi) oʻquvchi keldi? Qancha(ravish) kunlar kutdim kelmading.*

Miqdor daraja ravishi gapda **miqdor-daraja holi** va **kesim** vazifasida keladi: *Tuman ichra zoʻrgʻa koʻrinar edi. Hoji gapni oʻbdan pishitdi. Guruhimizda dars qoldiruvchilar kam.*

Otga bogʻlanib **sifatlovchi** vazifasida: *Ular ancha yergacha gaplashmay ketishdi.*

Sabab ravishi ish-harakatning qanday sabab bilan bajarilganligini bildirib, *nima sababdan?*, *nima uchun?* soʻroqlariga javob boʻladi, **sabab holi** vazifasida keladi: **noiloj, noilojlikdan, ilojsizlikdan, chorasizlikdan, nochorlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor**. Oydin noiloj oldingi qatorga borib oʻtirdi.

Nega soʻroq olmoshi ravish vazifasida ham kela oladi: *Salima kecha nega (soʻroq olmoshi) kelmadi? Nega (ravish) kelmaganini oʻzi ham bilmas edi.*

Sabab ravishi sintaksisda **sabab holi** vazifasida keladi: *SHartlarga noiloj rozi boʻldim.*

Maqsad ravishi ish-harakatning qay maqsadda sodir boʻlayotganini va nima uchun yuzaga kelayotganini bildiradi: **atay, atayin, ataylab, qasddan, qasdma-qasdiga, joʻrttaga, azza-bazza**. *Omonovdek odam sizni tabriklash uchun azza-bazza trest oʻrinbosari kabinetidan chiqib kelarmidi?* (B. Rahmonov)

Maqsad ravishlari gapda **maqsad holi** vazifasida keladi. *Temur aka joʻrttaga bu gaplarni tez-tez takrorlardi. Men joʻrttaga baʼzi gaplarni teskarilikka olib koʻrsam ham, u [Zaynab] churq etmaydir.* (A. Qodiriy)

Sifat kabi ravishni ham maʼno turiga ajratish nisbiy. CHunki koʻchma maʼnoda qoʻllangan ravish bir maʼno turidan boshqasiga oʻtib ketadi: *Ishxonamiz **yaqinda** joylashgan – oʻrin ravishi. **Yaqinda** qishloqqa boraman – payt ravishi. Partalarni **nari-beri** surdik — oʻrin ravishi. U **nari-beri** dars qildi — holat ravishi.*

Ravishning sintaktik vazifasi

Ravishlar sintaksisda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Hol (tarz, oʻrin, payt, miqdor-daraja, sabab, maqsad): *Zulfiya turmush sinoviga ardonavor bardosh berdi. Bunda bulbul kitob oʻqiydi. Bu kishi yaqinda koʻchib kelganlardan. YOmgʻir benihoya kuchaygan edi. Bu yerga ilojsizlikdan keldim. Biz yuksak binolar tomon atayin bordik.*

2. Ot kesim: *YOshi ulugʻ Nazarmat bilan ishlarimiz juda koʻp.*

3. Sifatlovchi-aniqlovchi: *Bektemir soldatlarcha qadam bilan kirib keldi. Juda koʻp ishlar qolib ketdi.*

Ravishlar otlashganda:

4. Ega: *Koʻplar bu xabardan qotib qoldi.*

5. Toʻldiruvchi: *Koʻpdan quyon qochib qutilmas.*

6. Qaratqich-aniqlovchi: *Ozning barakasini sabr beradi.*

7. Kirish soʻz: *Menimcha, bu haqiqatni tan olish kerak.*

Ravishlarda shakl yasalishi

Mustaqil soʻz turkumlarining boshqalarida boʻlganidek, ravishlarda ham turli shakllar yasaladi, bu shakllarda harakat va holat belgisi turlicha tavsiflanadi, soʻzlovchi turlicha baholaydi. Ravish qiyosiy daraja shaklini hosil qiluvchi *-roq* affiksini olib yoki *eng, juda, gʻoyat, nihoyat* kabi soʻzlar bilan birikib belgining darajasini ifodalaydi, degan fikrlar shu kunda barham topdi. Ravishga *-roq* affiksi qoʻshilganda harakat va belgiga xos belgining kamligi, kuchsizligi, baʼzan esa kuchaytirish, belgining nisbiy koʻpligi maʼnosi, *eng* soʻzi bilan kelganda esa belgining ortiqchiligi maʼnosi ifodalashi daraja shakli emas, balki belgi ifodalashiga koʻra sifatga yaqin turganligi uchun bu shakllarni qabul qila oladi. Ravishlar morfologik jihatdan yaxlitlangan, yaʼni morfologik shakllari mavjud emas. *Bahorda eng oldin bodom gullaydi.*

-gina (-kina, -qina) affiksi ham sifatga xos morfologik belgi boʻlib, ular orqali yasalgan ravish shakllari harakat va holat belgisining kuchsizlanganligini yoki taʼkidlanganligini anglatadi, asosiy diqqat shu belgining oʻziga qaratiladi: *Komila sekingina kirib keldi.*

Ravishlarda juft va takroriy shakllar soʻz yasashdan tashqari shakl yasashga ham xizmat qiladi. Juft shakllar ikki ravishning juft holda kelishidan hosil boʻlib maʼnoni umumlashtiradi: *oldin-keyin, asta-sekin, nari-beri, bugun-erta, erta-kech, erta-indin.*

Takroriy ravishlar davomlilik, takroriylik, taʼkidlash, kuchaytirish maʼnolarini ifodalaydi: *koʻp-koʻp, sekin-sekin, asta-asta, endi-endi, hali-hali. Bu kishining soʻzlarini zoʻrgʻa-zoʻrgʻa tushundim.*

Savol va topshiriqlar:

1. Ravish va sifatning o'xshash hamda farqli tomonlari nimada?
2. Ravishdosh ravishga qaysi jihatlari bilan o'xshaydi?
3. Ravishning morfologik bo'linmasligini qanday tushunasiz?
4. Ravishning alohida morfologik belgilari nima?
5. Ravishning ma'no turlarini izohlang.
6. Ravishning ma'no turlariga o'xshash ma'nolar qaysi turkumlarda mavjud?
7. Ravishlar sintaksisda qanday vazifalarda keladi?
8. Ravish otlashganda qanday sintaktik vazifalar bajaradi?
9. Ravish sintaksisda qanday gap bo'lagi bo'la olmaydi?
10. Ravishlar sintaksisda qanday sintaktik vazifa bajaradi?
11. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

12- ma'ruza. Ravishlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ravish yasash. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft va takroriy ravishlar

Reja:

1. Morfologik yo'l bilan ravish yasash.
2. Sintaktik yo'l bilan ravish yasash.
3. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari.

Tayanch so'zlar: harakat belgisi, holat belgisi, morfologik o'zgarma, holat ravishi, o'rin ravishi, payt ravishi, miqdor-daraja ravishi, sabab ravishi, maqsad ravishi, hol, kesim, sifatlovchi, otlashuv, ravish yasovchi affiks, prefiks, ravishga siljish, kompozitsiya, sintaktik usul, juftlash, takrorlash, sodda ravish, qo'shma ravish, yaxlitlanish.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped

41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Morfologik yo‘l bilan ravish yasash

Ravishlar barcha so‘z turkumlaridan qo‘shimcha qo‘shish orqali yasala oladi.

Quyidagi qo‘shimchalar bilan ravish yasaladi:

- cha: o‘zbekcha, eskicha, o‘zicha, yashirincha, qisqacha, istagancha, seningcha
- chasiga: ochiqchasiga, qahramonchasiga, askarchasiga
- larcha: yigitlarcha, qadrdonlarcha, aybdorlarcha
- lab: haftalab, yaxshilab, kechalab, kilolab
- dek, -day: tog‘dek, qadimgiday, ilgariyidek
- ona: mardona, shoirona, oqilona, g‘aribona
- iga (-siga): ko‘ndalangiga, baravariga, birdaniga, sidirg‘asiga, yoppasiga
- an: ruhan, majburan, vijdonan, tasodifan
- lay, -layin: tiriklay, xomlayin, butunlayin
- n, -in, -un: ertan, yashirin, oldin, ochin-to‘qin, qishin-yozin, ostin-ustun
- siz: to‘xtovsiz, ruxsatsiz, tinimsiz
- be-: betinim, bevaqt, beixtiyor, bemahal
- aki: yodaki, qalbaki, yuzaki
- simon: uyalgansimon, hazilsimon, xafasimon
- namo: hazilnamo, uyalgannamo, oliftanamo, olimnamo
- a: shartta, taqqa, shig‘a, tappa, chippa.

O‘zbek tilida payt, belgi, miqdor, o‘rin ma’nolarini bildiruvchi ayrim so‘zlar jo‘nalish, chiqish va o‘rin-payt kelishigi affikslarini olgan holda ravishga siljigan: *zimdan, tubdan, zo‘rg‘a, jo‘rttaga, yurakdan, birdan, birga, qo‘qqisdan, azaldan, yangidan, to‘satdan, boshqatdan, bekorga, boshda, kunda, nihoyatda, odatda.*

Quyidagi boshqa turkum so‘zlari ravishga ko‘chgan:

- 1) ravishga ko‘chgan otlar: *erta-indin, kecha, oraga, orqaga, o‘rtada, o‘ngga, kechqurun, burun, yurakdan, sirtidan;*
- 2) ravishga ko‘chgan sifatlar: *yangidan, uzoqda, yolg‘ondan, yaqqol, baralla, tugal, bafurja, muttasil, vaqtli, baravar, omonsiz, o‘zgarishsiz;*
- 3) sonlar kelishik shaklida ravishga aylanadi: *birdan, birda, birga;*
- 4) olmoshlarning ravishga ko‘chishi: *unda, bunda, shunda, o‘shanda, bundan, shundan, nega, qancha;*
- 5) ravishga ko‘chgan ravishdoshlar: *osha, o‘ta, qiya, qiyo, qo‘sha, qayta, ura;*
- 6) fe‘lning sifatdosh shakllari chiqish kelishigida ravishga aylanadi: *indamasdan, shoshmasdan, charchamasdan.*

Sintaktik yo‘l bilan ravish yasash

So‘zlarni qo‘shish bilan ravish yasalganda so‘zlar o‘zaro qo‘shiladi, juftlanadi va takrorlanadi.

Sintaktik usul bilan qo‘shma ravishlar quyidagicha yasalandi:

1. *Har* belgilash va *hech* bo‘lishsizlik olmoshlari bilan o‘rin yoki payt ma’nosini bildiruvchi so‘zlarning birikuvidan: *har vaqt, hech vaqt, har on, hech zamon, hech qayerga, hech qayerdan, har mahal, har lahza, har gal, har zamonda, har yerda, har joyda.*
2. Ravish bilan ot, ravishning birikuvidan: *hali zamon, naridan beri.*
3. *Bir* so‘zi o‘rin, payt va miqdor bildiruvchi so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘ladi: *bir yerda, bir yerga, bir vaqt, bir mahal, bir paytda, biryo‘la, birvarakay, birpas, bir on, bir talay, bir muncha, bir qancha.*
4. *U, bu, shu, o‘sha* ko‘rsatish olmoshlari jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigidagi *yer, yoq, ora, o‘rta* so‘zlarini keltirish orqali: *u yerga, bu yoqda, shu orada, shu o‘rtada, o‘sha yerdan.*
5. So‘zlarni juftlash va takrorlash yo‘li bilan ham ravishlar faol yasaladi, bunda

umumlashtirish bilan birga yangi soʻz ham yasaladi: *moʻl-koʻl, eson-omon, avval-oxir, kundan kunga, yildan yilga, ochiqdan ochiq, naridan beri, ketma-ket, zoʻr-bazoʻr, tun-u kun.*

Soʻzlarni takrorlash va juftlash bilan ravish yasashda mustaqil soʻz turkumlarining barchasi ishtirok etadi:

1) ot bilan ot: *tun-kun, yildan yilga, yuzma-yuz, navbatma-navbat, qadam-baqadam, qator-qator, chaman-chaman, gul-gul.*

2) sifat bilan sifat: *eson-omon, ochiqdan ochiq, zoʻrma-zoʻraki, toʻgʻrima-toʻgʻri, chaqqon-chaqqon, biyron-biyron, ayrim-ayrim, pishiq-pishiq.*

3) feʼl formalarini takrorlash bilan: *koʻrar-koʻrmas, ura-sura, bilinar-bilinmas, qoʻyarda-qoʻymay, qoʻsha-qoʻsha, qotib-qotib, turib-turib.*

4) ravish bilan ravish: *naridan beri, oldinma-ketin, nari-beri, birin-ketin, oldin-keyin, unda-bunda, hali-beri.*

5) olmosh, son, undov va aralash holda soʻzlarni takrorlash orqali: *oʻz-oʻzidan, oʻzidan-oʻzi, oʻz-oʻzicha, shu-shu, oʻsha-oʻsha, yakkama-yakka, apil-tapil, taqa-taq, shartta-shartta, ochiq-oydin, toʻla-toʻkis, chor-nochor, vaqti-bevaqt.*

Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari

Ravishlarning tuzilish jihatdan quyidagi turlari mavjud:

Sodda ravishlar ikki turli:

1.Sodda tub: *piyoda, birdan, yurakdan, atayin, joʻrttaga, erta, yuqoriga, juda, tezda, uzoqda, yaqinda.*

2.Sodda yasama ravishlar: *ertalab, ochiqchasiga, taxminan, doʻstlarcha, eskicha, butunlayin, tirikligicha, toʻxtovsiz, shoshganicha.*

Qoʻshma ravishlar ikki mustaqil soʻzning birikishidan hosil boʻladi: *har yer, u yer, shu vaqt, bu joy, oʻsha payt, bir vaqt, birpas, birvarakay, biryoʻla.*

Juft ravishlar ikki soʻzning teng bogʻlanishidan yasalgan ravishlardir.

Juft ravishlar tubandagicha yasaladi:

1) maʼnodosh soʻzlardan: *asta-sekin, eson-omon, ochiq-oydin, uzul-kesil;*

2) qarama-qarshi maʼnoli soʻzlardan: *qishin-yozin, ostin-ustun, ochin-toʻqin, erta-kech, kecha-kunduz.*

Takroriy ravishlar: *asta-asta, tez-tez, chaman-chaman, qator-qator, takror-takror, oz-oz, kam-kam, juda-juda.*

Ravishlarni tahlil qilish tartibi va namunasi

1. Ravish va uning maʼno turi.

2. Tub va yasamali, yasama ravishlarning yasali usuli.

3. Tuzilish jihatdan turi.

4. Gapdagi vazifasi.

Topshiriqni butunlay unutibman. Butunlay – qay tarzda? soʻrogʻiga javob boʻladi, ravish, holat ravishi, oddiy daraja, yasama, morfologik usul bilan olmoshdan yasalgan, sodda yasama, ravish holi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ravishlar tuzilish jihatdan necha turli boʻladi?

2. Takroriy ravishlar qanday yasaladi?

3. Qaysi turkumlarni juftlashdan ravish yasash mumkin?

4. Ravishlar qanday usullar bilan yasaladi?

5. Ravish morfologik usul bilan qaysi soʻz turkumlardan yasala oladi?

6. Ravishlar sintaktik yoʻl bilan qanday yasaladi?

7. Ravish yasovchi omonim qoʻshimchalar qaysilar?

8. Ravish yasovchi old qoʻshimchalar mavjudmi?

9. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni oʻzaro taqqoslang.

II semester uchun

1- ma'ruza. Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar. Ularning grammatik xususiyati, turlari: asl ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilar, Ko'makchi va kelishik qo'shimchalari. Ko'makchi otlar

R E J A:

1. Yordamchi turkumlarning grammatik belgilari.
2. Ko'makchi va uning grammatik vazifasi.
3. Ko'makchilarning ma'no turlari.

Tayanch so'zlar: grammatik ma'no, lug'aviy ma'no, sintaktik vazifa, mustaqil so'z, yordamchi so'z, yakka bog'lovchi, takror bog'lovchi, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, biriktiruvchi bog'lovchi, zidlovchi bog'lovchi, qo'shma gap.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M. Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O'., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Yordamchi turkumlarning grammatik belgilari

Mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni yoki ularga qo'shiladigan modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan va mustaqil holda biror gap bo'lagi vazifasini bajarmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlar – mustaqil atash ma'nosiga ega bo'lmaydigan, so'roq qabul qilmaydigan, mustaqil gap bo'lagi bo'lib kela olmaydigan, so'z yasalishi va shakl yasalishi uchun asos bo'la olmaydigan so'zlar. Bunday so'zlar turli grammatik ma'no va munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. U mustaqil so'zda va gapda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Yordamchi so'zlar uch turga bo'linadi: ko'makchilar; bog'lovchilar; yuklamalar.

Bog'lovchi uyushiq bo'laklarni, qo'shma gapning tarkibiy qismlarini bog'lash, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi: *olma va anor, o'qidi, lekin yozmadi* kabi. Ba'zan gap boshida ham keladi: *Sitora aytdi. Lekin Munira tushunmadi.*

Yuklama ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklash uchun qo'llanadi.

Yuklamaning morfologik ma'no ifodalash imkoniyati uning sintaktik imkoniyatidan kengroq. Chunki ular mustaqil so'z va gapga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan ahamiyatli.

Mustaqil so'z ham o'rni bilan yordamchi so'zdek grammatik ma'no ifodalaydi: *juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, birmuncha* kabi ravish daraja ma'nosini ifodalaydi; *olmoq, bermoq, qolmoq, o'tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo'lmoq* kabi 40 dan ortiq ko'makchi fe'l harakat ma'nosini nutqqa moslaydi, lug'aviy ma'noga grammatik ma'no qo'shadi: *o'qib chiqdi, yoza boshladi, qo'rqib ketdi* kabi.

Ko'makchi va uning grammatik vazifasi

Ot va otlashgan so'zdan keyin kelib, ularning boshqa so'zlar bilan munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zlar **ko'makchi** deyiladi. Ko'makchilar sintaksisda ismlarni fe'llarga boshqaruv yo'li bilan bog'lashga xizmat qiladi: *onam uchun oldim, kichiklar uchun o'yingoh, hamma kabi bo'lmoq, o'tirganlar uchun aytmoq.*

Ko'makchilar maqsad (o'qish uchun kelganmiz), sabab (kasalligi uchun kelmadi), payt (sovuq kun sayin kuchaymoqda), makon (maktab tomon ketdi), vosita (eshikni hassasi bilan ochdi), o'xshatish (inson kabi yashash kerak) singari grammatik ma'no munosabatlarini ifodalaydi.

Ko'makchi mustaqil so'z bilan birga kelib, oldin turgan so'zni keyingi so'z bilan sintaktik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishikka o'xshaydi. *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* gapida ko'makchi yordamida "holat" grammatik ma'nosi yuzaga chiqib, *ishonch* so'zi *qaraymiz* so'ziga bog'lanadi. *Telefon orqali gaplashdim* gapida ko'makchining "vosita" ma'nosi yuzaga chiqib, *telefon* so'zini *gaplashdim* so'ziga bog'lagan. *Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* gapida yordamchi so'zlar "atalganlik" ma'nosini ifodalab, *biz* so'zini *bo'lib kelgan* so'ziga bog'lagan. Ko'rinadiki, grammatik ma'no va vazifa birgalikda yashaydi.

Umumiy grammatik belgilari. Ko'makchi morfologik jihatdan o'zgarmaydi: turlanmaydi, tuslanmaydi. So'z yasalishi, shakl yasalishi uchun asos bo'lmaydi.

Ko'makchi o'zidan oldingi mustaqil so'zga vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi grammatik ma'no va munosabatni berish uchun qo'llanadi va u bilan bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi: 1) vosita: *Ismat bobo hassasi bilan (to'ldiruvchi) eshikni ochdi.* 2) sabab: *O'qiganligi uchun (sabab holi) javob berdi.* 3) maqsad: *O'qish uchun (maqsad holi) keldi.* 4) payt: *Kelgandan so'ng (payt holi) gaplashamiz.* 5) makon: *Tom boshida (o'rin holi) tog'ora.*

Ko'makchili so'z to'ldiruvchi va hol, ayrim holda kesim bo'lib keladi.

Ko'makchilarning ma'no turlari

Ko'makchilar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Asl ko'makchilar o'zlarining avvalgi lug'aviy ma'nolarini yo'qotib, butunlay ko'makchiga aylanib qolgan so'zlardir: bilan, uchun, kabi, singari, uzra, sari, sayin, qadar, yanglig', dovur, to, doir, oid, orqali, sababli, haqida, to'g'risida, xususida.

Ot ko'makchilar ot (*tomon, taraf, old, ust, orqa, yuzi, o'rnida*) va ravish (*ilgari, avval, burun, ichida, so'ng, keyin*)dan chiqqan ko'makchilardir.

Fe'l ko'makchilar fe'ldan o'sib chiqqan ko'makchilar: *yarasha, ko'ra, qaraganda, qarab, boshlab, tortib, bo'ylab.* Ot va fe'l ko'makchilar o'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi sifatida qo'llanaveradi: *Komil onasini vrachga boshlab bordi* gapida boshlab so'zi yetakchi fe'l hisoblansa, *Bugundan boshlab hasharga chiqadigan bo'ldik* gapidagi boshlab so'zi esa ko'makchi bo'lib kelyapti.

Vazifadosh ko'makchi – aslida mustaqil turkumga mansub lug'aviy ma'noli so'z, lekin ko'makchi vazifasini bajarayotganda faqat grammatik ma'no ifodalaydi: *tomon, qarab, qaramay, qaraganda, qaramasdan, boshqa, bo'lak, tashqari, sababli, tufayli, so'ng, oldin, keyin, beri, ko'ra, bo'yicha, uzra, chog'i, osha, bo'ylab, ichra, bo'yi, chamasi, haqida, to'g'risida, holda, yo'sinda, qarshi, yarasha, asosan, binoan, muvofiq, qarata, o'zga, buyon, burun, ilgari, boshlab, badaliga,*

davomida, vajidan, evaziga, borasida, bobida, misoli, tortib; ko'makchi otlar: ost, ust, tepa, old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o'rta (-i/-si egalik va -ga/-da/-dan kelishik qo'shimchasi bilan).

Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'z quyidagi turkumdan ko'chib o'tgan: 1) otdan: *tomon, haqida, chamasi, misoli, holda, yo'sinda, bo'yi; osti, tagi, usti, oldi, orqasi, yoni, bo'yi, ichi, orasi, o'rtasi + -ga/-da/-dan;* 2) sifatdan: *boshqa, bo'lak, o'zga, tashqari, sababli, chog'li, to'g'risida, qarshi, muvofiq;* 3) ravishdan: *so'ng, oldin, burun, ilgari, keyin, beri, nari, bo'yicha, uzra, ichra, asosan, binoan;* 4) fe'lning sifatdosh shaklidan: *qaraganda, qaramasdan;* 5) fe'lning ravishdosh shaklidan: *qarab, qaramay, ko'ra, osha, bo'ylab, yarasha, qarata, boshlab, tortib.*

Ko'makchilar bosh, qaratqich, jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqarib keladi:

- bilan, uchun, kabi, singari ko'makchilari bosh kelishigidagi ot va qaratqich kelishigidagi olmosh bilan birga keladi: *do'stim bilan, onam uchun, inson kabi, shuning uchun, shuning bilan, shuning singari;*

- bilan, uchun ko'makchilari she'riyatda qisqargan holda bila, **ila, -la, -chun** shakllarida qo'llanishi ham mumkin. -la, -chun shakllari o'zidan oldingi so'zga chiziqcha orqali qo'shiladi: *Qo'l-la sozlab bo'lmas men yaratgan haykalni. Hayotim sening-chun ayladim fido.*

- bo'ylab, uzra, orqali ko'makchilari faqat bosh kelishikdagi so'zlar bilan birga keladi: *vodiy bo'ylab, osmon uzra, telefon orqali.*

- qadar, ko'ra, yarasha, qaraganda, tomon ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi otlarni boshqarib keladi: *tongga qadar, qoidaga ko'ra, gappingga qaraganda, maktabga tomon, mehnatiga yarasha.*

So'ng, keyin, ilgari, burun, avval, buyon, boshqa, tashqari, tortib kabi ko'makchilar esa chiqish kelishigidagi otlar bilan birga keladi: *do'stimdan so'ng, bayramdan keyin, onadan boshqa, vazifalardan tashqari.*

Ko'makchining qo'llanishiga ko'ra turi. Ko'makchi biror kelishik bilan ham birga qo'llanadi va shunga ko'ra uning quyidagi turi ajratiladi:

1) bosh kelishikdagi so'z va ba'zan qaratqich kelishigidagi olmosh bilan: *bilan (qalam bilan, sening bilan, sening-la), uchun, kabi, singari, yanglig', sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog'li, osha, bo'ylab, uzra, ichra, bo'yi, chamasi, haqda/to'g'rida, haqida/to'g'risida, holda/yo'sinda;*

2) qaratqich kelishigidagi so'z bilan: *ost, tag, ust, old, orqa, yon, qarshi, bo'yi, ich, o'rta, bosh;*

3) jo'nalish kelishigidagi so'z bilan: *tomon, qadar, ko'ra, qarshi, qarab, qaraganda, qaramasdan/qaramay, yarasha, doir, asosan, binoan, muvofiq, qarata;*

4) chiqish kelishigidagi so'z bilan: *so'ng, keyin, boshqa, bo'lak, tashqari*

Ko'makchining morfologik ma'no ifodalash imkoniyati uning sintaktik imkoniyatidan keng. Chunki ular mustaqil so'z va gapga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan ahamiyatli. Shu sababli ko'makchi kelishik bilan qo'llanishga ehtiyoj sezadi.

Ko'makchilar grammatik vazifa jihatidan ayrim kelishiklar bilan sinonim hisoblanadi: uchun, tomon ko'makchilari jo'nalish kelishigi bilan (*onam uchun oldim – onamga oldim, maktab tomon bordim – maktabga bordim*); orqali, bilan ko'makchilari o'rin-payt va chiqish kelishiklari bilan (*telefon orqali gaplashdim – telefonda gaplashdim, radio orqali eshitdim – radiodan eshitdim*) bilan sinonim bo'la oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun ko'makchi, bog'lovchi va yuklama yordamchi so'z turkumi deyiladi?
2. Tilshunoslikda leksema va yordamchi so'z qanday farqlanadi?
3. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlarini taqqoslang.
4. Asl va ko'makchi o'rnida ishlatiladigan yordamchilarning jadvalini tuzing.
5. Ko'makchi ot va ko'makchi fe'llarni qanday farqlaymiz?
6. Ko'makchilar qaysi kelishik shakllaridan so'ng ishlatilmaydi?
8. Qaysi ko'makchilar bir necha kelishiklardan so'ng ishlatilishi mumkin?
9. Ko'makchilarning qaysilari kelishik shakllari bilan ham, yolg'iz tarzda ham ishlatiladi?
10. Qaysi ko'makchilar bog'lovchi vazifasida qo'llana oladi?

11. Ko‘makchilar urg‘uni qanday qabul qiladi?
12. Ko‘makchilarning imlosini eslang.
13. Ko‘makchilar orasida sinonimlik qanday yuzaga keladi?
14. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o‘zaro taqqoslang.

2- ma’ruza. Bo g‘lovchilar. Ularning grammatik xususiyatlari. Bo g‘lovchilarning qo‘llanishiga ko‘ra turlari: yakka bog‘lovchilar va takroriy bog‘lovchilar. Grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra bog‘lovchilarning turlari: teng bog‘lovchilar (biriktiruvchi, ziddovchi, ayiruvchi); ergashtiruvchi bog‘lovchilar (aniqlov, sabab, shart va to‘siqsizlik, cho g‘ishtiruv – o‘xshatish bo g‘lovchilari)

REJA:

1. Bog‘lovchining morfologik xususiyatlari.
2. Bog‘lovchining ma’no turlari:
 - a) teng bog‘lovchilarning vazifasi;
 - b) ergashtiruvchi bog‘lovchilarning xususiyatlari.

Tayanch so‘zlar: grammatik ma’no, lug‘aviy ma’no, sintaktik vazifa, yordamchi so‘z, mustaqil so‘z, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, tobe bog‘lanish, teng bog‘lanish, qo‘shma gap, sof ko‘makchi, vazifadosh ko‘makchi, ot ko‘makchi, fe‘l ko‘makchi, urg‘u.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to‘plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Bog‘lovchining morfologik xususiyatlari

Bog‘lovchilar qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va uyushgan bo‘laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan yordamchi so‘zlardir. Bog‘lovchilar grammatik

jihatdan o'zgaraydi va mustaqil leksik ma'noga ega emas. Masalan: *Fahm va idrok oqil, qobil kishining saodatidir. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur) Hayotdagi eng besamar narsa – boylik va eng katta ezgulik bilimdir. (G.Lessing)*

Keltirilgan misollarda va bog'lovchisi gap bo'laklarini, aniqrog'i uyushiq egalarni (1-gap) hamda gaplarni (2-gap) o'zaro teng aloqada bog'layapti.

Qo'llanishiga ko'ra bog'lovchilar 2 xil bo'ladi:

1. Yakka bog'lovchilar: *va, ammo, agar, chunki, go'yo va h.k.*

2. Takrorlanuvchi bog'lovchilar: *dam, goh, ba'zan, bir, yo va h.k.* (bulardan yo, yoki bog'lovchilari yakka holda ham ishlatiladi).

Yakka bog'lovchilar uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanadi: *va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, go'yo, go'yoki, -ki, -kim.*

Takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari bilan birga aynan takrorlanadi: *dam..., dam, ba'zan ..., ba'zan, ham..., ham, bir..., bir, yoki..., yoki, yo..., yo, goh..., goh, xoh..., xoh.*

Takroriy bog'lovchilar takrorlangan gap bo'lagi yoki ayrim gaplarning oldida qo'llanadi. Takroriy bog'lovchilarning ayrimlari yakka holda ishlatilishi ham mumkin (yo, yoki), bu o'rinda yakka bog'lovchi sanaladi: *Bu o'lka jannat yoki bo'stonga o'xshatilsa.*

Ayrim takroriy bog'lovchilar faqat takror ishlatilgandagina bog'lovchi sanaladi, yakka ishlatilganda o'zi mansub bo'lgan so'z turkumiga tegishli bo'ladi: *bir – son, ham – yuklama, ba'zan – ravish.*

Ba'zan gapda bir bog'lovchining o'zi ikki va undan ortiq o'rinda uyushgan bo'laklar orasida kelib, ularning teng munosabatda ekanini ko'rsatish yoki ikki xil bir gap tarkibida kelishi mumkin. Bu o'rinda bog'lovchilar takroriy sanalmaydi.

Bog'lovchining ma'no turlari

Bog'lovchilar grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Teng bog'lovchilar.

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Gap bo'laklari va qo'shma gap qismlarini teng aloqada bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar teng bog'lovchilar deyiladi.

Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni ifodalaydi:

a) gapning uyushiq bo'laklarini teng bog'laydi:

b) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng bog'laydi:

Teng bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Biriktiruvchi bog'lovchilar: *va, hamda; bilan – ko'makchisi; ham, -u, -yu, -da – yuklamalari.*

Ular uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bog'laydi. Bulardan tashqari, bilan ko'makchisi, -u(-yu), -da yuklamalari ham ayrim hollarda biriktiruv bog'lovchilari singari ishlatiladi. *Baland va hashamatli shiypon ko'zlarni qamashtirardi. (Sh.R.) Ota-bola jimgina uyga qaytishardi-da, ikkovi ikki uyga kirib ketishardi. (S.Ahm.)*

2. Zidlovchi bog'lovchilar: *ammo, lekin, biroq, balki, holbuki; -u, -yu, -a yuklamalari.*

Zidlovchi bog'lovchilar ular ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bog'laydi. Ba'zan -u(-yu) yuklamasi ham zidlovchi bog'lovchi sifatida ishlatiladi. *Sochim nimjon, lekin qalin. (O.O'sarov.)*

3. Ayiruvchi bog'lovchilar: *yo, yoki, yoxud, yoinki, goh..., goh, dam..., dam, bir..., bir, ba'zan..., ba'zan, xoh..., xoh.*

Ayiruvchi bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bir-biridan ajratib bog'laydi. Bunda bir vaqtlilik ham, galma-gallik ham ifodalanadi. Ayiruv bog'lovchilar ko'pincha takrorlangan holda ishlatiladi. *Bu yerda qovun tekin. Uzib beraymi yo o'zingiz uzasizmi? (S.Ahm.)*

Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi grammatik jihatdan bir-biriga tobelash yo'li bilan bog'laydi, shuning uchun ular ergashgan qo'shma gaplarda ishlatiladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi 5 turga ajratiladi:

- 1) aniqlov bog'lovchisi;
- 2) sabab bog'lovchisi;
- 3) maqsad bog'lovchisi;
- 4) chog'ishtiruv bog'lovchilari;
- 5) shart va to'siqsizlik bog'lovchilari.

Aniqlovbog'lovchi -ki (-kim) qo'shma gap tarkibidagi gaplarni izohlash, aniqlash ma'nosi bilan bog'laydi. Shuni unutmaki, tarbiyaning otasi – mehnat. (H.N.)

Sabab bog'lovchilari qo'shma gap tarkibidagi gaplarni sabab ma'nosi bilan bog'laydi. Ularga *chunki, negaki (shuning uchun, shu tufayli, shu sababli – ko'makchili konstruksiya) bog'lovchilari* kiradi. *Paxtani bunkerdan to'kish oson narsa, chunki bu ishni mashinaning o'zi bajaradi. (N.S.)*

Maqsad bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi gaplarni maqsad ma'nosi orqali bog'laydi. *O'zingizdan keyin so'nmas shon-shuhrat qoldiring, toki ko'pdan ko'p avlod sizlarning qahramonligingizdan o'rnak olsin. (M.Osim)*

Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki so'zlari bo'lib, ular qo'shma gap tarkibidagi gaplarni o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosi orqali bog'laydi. *Bu gullarni Azizxon, go'yo ona o'z farzandini ardoqlagani kabi ardoqlardi. (S.Jamol.)*

Shart va to'siqsiz bog'lovchilari agar (gar), garchi, garchand, bordi-yu, mabodo, basharti so'zlari bo'lib, ular shart va to'liqsiz ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.

Masalan: *Agar kundalik hayotda hushyorlik ko'rsatilmasa, hushyorlik degan so'z quruq gap bo'lib qoladi.*

Savol va topshiriqlar:

1. Bog'lovchining morfologik vazifasini belgilang.
2. Bog'lovchilar sintaksisda qanday faoliyat ko'rsatadi?
3. Teng va tobe bog'lanishni bog'lovchilar qanday amalga oshiradi?
4. Bog'lovchining ma'no turlari adabiyotlarda qanday berilgan?
5. Bog'lovchilar ishlatilishiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
6. Bog'lovchilarning qaysilari boshqa turkum so'zlari o'rnida ishlatiladi?
7. Bog'lovchi turkumi o'rnida qaysi so'zlar keladi?
8. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning qaysisi ham sodda gap qismlarini, ham qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi?
9. Qaysi bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lashda eng faol sanaladi?
10. Bog'lovchi va bog'lamani qanday farqlaysiz?
11. Bog'lovchi qaysi jihatidan olmoshlarga yaqin turadi?
12. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

3- ma'ruza. Yuklamalar. Yuklamalarning grammatik xususiyatlari. Yuklamalarniig tuzilishiga ko'ra turlari: so'z yuklamalar va affiks yuklamalar. Yuklamalarning ma'no turlari: so'roq va taajjub, kuchaytiruv va ta'kid, ayiruv va chegaralov, aniqlov, gumon, inkor yuklamalari

REJA:

1. Yuklama va uning grammatik xususiyatlari.
2. Yordamchi so'z turkumi tahlili.

Tayanch so'zlar: grammatik ma'no, lug'aviy ma'no, sintaktik vazifa, yordamchi so'z, mustaqil so'z, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, tobe bog'lanish, teng bog'lanish, qo'shma gap, sof ko'makchi, vazifadosh ko'makchi, ot ko'makchi, fe'l ko'makchi, urg'u.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.

6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
7. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M. Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 290 b.
16. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma// Toshkent: Akademnashr, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Yuklama va uning grammatik xususiyatlari

Ayrim so‘z va gap mazmuniga qo‘shimcha ma’no yuklovchi yordamchi so‘zlar **yuklama** deyiladi. Yuklamalar so‘z va gaplarga ta’kid, so‘roq, kuchaytiruv, chegaralash kabi ma’nolarni yuklaydi. Yuklamalar morfologik jihatdan o‘zgarmaydi, so‘z yasalishi va shakl yasalishi uchun asos bo‘lmaydi, mustaqil gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi. Shunga ko‘ra ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) so‘roq va taajjub yuklamalari gap ma’nosiga so‘roq, ajablanish, buyruq ma’nolarini yuklaydi: *-mi, -chi, -a// -ya*. *-mi, -chi, -a, -ya* (so‘roq yuklamalari so‘roq gaplarni hosil qilishda ishtirok etadi); *-a, -ya, -mi taajjub, -chi ta’kid ma’nosida ham ishlatiladi;*

2) kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari gapning ma’lum bir bo‘lagi yoki butun bir gap ma’nosini kuchaytirib, ta’kidlab keladi: *axir, hatto//hattoki, -oq// -yoq, nahot//nahotki, -ku, -da, -ki// -kim, -u// -yu, ham; tim, qoq, liq, lim, g‘irt, g‘arq, shilta, jiqqa;*

3) ayiruv va chegaralov yuklamalari o‘zi qo‘shilgan so‘zning ma’nosini ayirib-chegaralab keladi: faqat, faqatgina, *-gina(-kina, -qina)*, (yolg‘iz, xolos, bir, bor-yo‘g‘i – vazifadosh yuklamalar);

4) aniqlov yuklamasi so‘zga o‘xshatish-qiyoslash ma’nosini yuklaydigan yordamchi so‘z: *xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq;*

5) gumon yuklamasi gap yoki so‘zga gumon manosini yuklaydi: *-dir;*

6) inkor yuklamasi gapdagi fikrning inkorini bildiradi: *na, hech, sira.*

Yuklamalar tuzilishga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

a) so‘z yuklamalar; *axir, hatto, nahotki, xuddi, faqat;*

b) qo‘shimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -ku, -da, -a, -ya*

Ba’zi yuklamalar so‘zga qo‘shib, ba’zilar chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Chunonchi: *-chi, -ku, -da, -a, -ya* yuklamalari har doim chiziqcha bilan yoziladi. *Havo ochildi-yu, quyosh harorati sezilmadi.*

-mi, -gina (-kina, -qina): -dir, -oq (-yoq) yuklamalari esa hamma vaqt so‘zga qo‘shilib yoziladi.

Ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida ham kela oladi. Agar yolg'iz holda ishlatilsa, birlashtiruvchi bog'lovchi (Daftar ham kitob), uyushiq bo'laklarning oldidan takror ishlatilganda ayiruv bog'lovchi vazifasida keladi: *Ham tabiiy, ham hayotiy, ham siyosiy jumboqlar favqulodda ko'p.* (As.M.)

Ham uyushiq bo'laklar ketidan takrorlanib kelganda uyushiq bo'laklarni ajratib ko'rsatish uchun qo'llanadi: Opam go'zallikda ham, sho'xlikda ham, o'yinga ustalikda ham o'rtoqlaridan qolishmaydi. (O)⁴

Imlosi: *-mi, -gina//kina//qina, -oq//yoq, -dir, -ki//kim* yuklamalari so'zga qo'shib yoziladi. *-chi, -a//ya, -ku, -da, -u//yu* yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi.

Yuklamalar tuzilishiga ko'ra so'z (*faqat, axir, hatto//hattoki, na – na, xuddi, naq, nahot//nahotki, ham, xolos, hech, sira, naq*) va qo'shimcha yuklamalarga (*-a//ya, -mi, -chi, -oq//yoq, -ki//kim, -gina//kina//qina, -dir, -u//yu, -ku, -da*) bo'linadi.

Yordamchi so'z turkumi tahlili

Yordamchi so'z turkumi tahlili – uchta yordamchi so'zlarning turi, xususiyatlarini aniqlash. Tartibi: 1. Yordamchi so'zlarning qaysi guruhiga kirishi. 2. Vazifasiga ko'ra turi. 3. Qo'llanilishiga ko'ra turi. 4. Tuzilishiga ko'ra turi.

Namuna: *Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bog'da ishlaydi.* (Oyb.) *Men-ku chidayapman. Faqat opasiga qiyin...* (S.Ahm.)

Buyon – ko'makchi, sof ko'makchi; chiqish kelishigidagi so'zni boshqarib kelgan; so'z shaklidagi ko'makchi.

Va – bog'lovchi, teng bog'lovchi; yakka qo'llanadi; so'z shaklidagi bog'lovchi.

Ku – yuklama, ta'kid yuklamasi; qo'shimcha yuklama

Savol va topshiriqlar:

1. Yuklamalarning ma'no turlarini adabiyotlar bo'yicha qiyoslang.
2. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra necha turli?
3. Yuklamalarga qaysi turkum so'zlari siljiy oladi?
4. Yuklamalar o'rtasidagi omonimlikni ta'riflang.
5. Yuklamalardagi ko'p ma'nolilik qanday yuzaga keladi?
6. Yuklamalarning sintaktik vazifasini belgilay olasizmi?
7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

4- ma'ruza. Alohida guruh so'zlar. Modal so'zlar, ularning ma'no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari

REJA:

1. Modal so'z, uning grammatik xususiyatlari.
2. Modal so'zlarning ma'no xususiyatlari.
3. Modal so'zlarning sintaktik vazifalari.

Tayanch so'zlar: modal so'zlar, undov so'z, his-hayajon undovlar, haydash-chaqirish undovlari, buyruq-xitob undovlar, inkor-tasdiq so'zlar, taqlid so'zlar, grammatikalizatsiya, fuksiyadoshlik, sinonimiya, omonimiya, antonimiya, otlashish, turlanish, sintaktik vazifa, morfologik belgi, his-hayajon gap, kirish so'z, so'z-gap.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

⁴ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I. v.b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi. 1980. – B.427.

6. Mirziyoyev Sh. Buy uk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M. Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari // Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Qodirova X. Qomus // Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma // Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Modal so‘z, uning grammatik xususiyatlari

So‘zlovchining o‘zi bildirgan fikrga, voqea-hodisalarga munosabatini ifodalovchi so‘zlar modal so‘zlar (lotincha “modus” – usul, o‘lchov) deyiladi. Bunday munosabat fikrning aniqligi yoki noaniqligi nuqtai nazaridan bo‘ladi. Modal so‘zlar morfologik jihatdan yaxlit, ya‘ni morfemalarga bo‘linmas.

Ayolsiz hovli, tabiiy, supurib-sidirilmagan bo‘ladi. Bu, shubhasiz, haqiqat. Demak, ishlash mumkin. Mamlakatimiz, albatta, buyuk, gullagan yurtga aylanadi. Esga tushsa, achinaman, albatta.

Modal so‘zlar ham sof va boshqa turkumlardan siljigan bo‘ladi.

1. Sof modal so‘zlar: *demak, albatta, albat, hoynahoy, xullas, xullasi, xullasi kalom, modomiki, darvoqe, essiz, haytovur, ajabo, hayriyat, hayriyatki, shukr, xo‘p, mayli, binobarin, shoyad, ishqilib, taajjubki, koshki, haqiqatan, darhaqiqat, filhaqiqat (arxaizm), nafsambiriga, muhaqqaq, aslida, asli, aslan, afsuski, shekilli, nachora, avvalo, avvali, avvalambor, kerak, lozim, shart, darkor, bor, yo‘q.*

2. Boshqa turkumdan siljigan modal so‘zlar:

1) otdan: *haqiqatdan ham, darhaqiqat; chog‘i, aftidan, chamasi, afsus, attang, nazarida, odatda, baxtimizga, ehtimol, shart, mazmuni;*

2) sifatdan: *tuzuk, durust, to‘g‘ri, yaxshi, tabiiy, shubhasiz, so‘zsiz, to‘g‘rirog‘i, yaxshisi, rost, kerak, lozim, darkor;*

3) sondan: *birinchidan, ikkinchidan, birlamchi, ikkilamchi;*

4) olmoshdan: *o‘z-o‘zidan (aniq), har qalay, bundan tashqari;*

5) fe‘ldan: *demak; aytganday, aytmoqchi, desangiz, aytaylik, ko‘rasizki, ishonasizmi, kechirasiz, o‘ylaymanki, bilasizmi;*

6) ravishdan: *haqiqatan, avvalo, zotan, umuman, asosan, aksincha, taxminimcha, aytishlaricha, menimcha, seningcha, sizningcha, ochiqchasiga;*

7) bog‘lovchidan: *balki.*

Masalan: *Bularning hammasi endilikda orqada qolib ketgan gaplar edi, albatta. (Ch.Ayt.) Umuman, ezgu ishning kechi yo‘q. (O.Muxtorov) Xullas, cho‘lga shiddat bilan hamla qilayotgan to‘fon kundan kunga kuchayardi. (J.Abdullaxonov) Darvoqe, Anvarga ko‘p mehnatim singgan. (A.Qod.)*

Kerak, lozim, shart, darkor modal soʻzlari harakat nomi bilan ishlatilib kesimlik soʻzlari boʻlib keladi. Bu modal soʻzlar bilan ishlatilgan harakat nomi egalik qoʻshimchasiz ishlatilsa, shaxsi topilmas (*Yetti oʻlchab bir kesish kerak*), egalik qoʻshimchalarining 1- va 2-shaxsi bilan ishlatilsa, shaxsi maʼlum gap (*Birni kesib oʻnni ekish kerak*), 3- shaxs egalik bilan ishlatilsa, shaxsi nomaʼlum gap (*Oʻz vaqtida borishi kerak*)ning kesimi boʻlib keladi.

Modal soʻzlarga siljigan soʻzlar oʻz turkumi doirasida leksik maʼno ifodalaydi, gap boʻlagi vazifasida keladi, modal maʼno ifodalaganda esa, bu xususiyatlarini yoʻqotadi: *Sizning aʼlo oʻqishingiz shubhasiz. – Shubhasiz, yangilik eskilik ustidan tantana qiladi. Xatning mazmuni shunday edi. – Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. Har bir ishning chamasi bor, har daryoning kemasi bor. – Yoʻlchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan doʻst boʻlib, uning butun sifatlarini, fazilat va kamchiliklarini yaxshi sinagan edi. Bizning ehtimolimiz toʻgʻri chiqdi. – Ehtimol, ketmon bilan yer agʻdarishga ham toʻgʻri kelar. U nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham shirin muomalada boʻlar edi. – Onajonim, balki bir kun men ham shoir boʻlarman.*

Modal soʻzlarning maʼno xususiyatlari

Modal soʻz quyidagi grammatik maʼnolarni ifodalaydi:

1) ishonch va tasdiqni: *toʻgʻri, albatta, shubhasiz, soʻzsiz, shaksiz, tabiiy, haqiqatan, haqiqatdan ham, darhaqiqat, filhaqiqat, muhaqqaq, voqean, nafsambiriga, muqarrar*; Men, **albatta**, koʻzingizning oq-u qorasi boʻlgan yolgʻiz qizingizni yaramas, boʻlmagʻur kishiga tutib berarsiz, deb bilmayman.

2) shubha va gumonni: *aftidan, chamasi, shekilli, chogʻi, ehtimol, balki, haytovur*; **Ehtimol**, sizda ham shunday hollar boʻlgandir: tun yarmidan oqqanida birdan uygʻonib ketasiz.

3) afsuslanish, achinishni: *afsus, afsuski, esiz, attang, ajabo, koshki, shoyad, taassufki, baxtga qarshi, nachora, aksiga olib*; **Nachora**, hayot nimaniki taqdim etgan boʻlsa, oʻshandan ortigʻini qaytib olmaydi.

4) biror voqea-hodisadan qoniqish, xursandlikni: *hayriyat, shukr, baxtimizga*; Bobur koʻzini ochganini sezib, Qosimbek uning tepasiga keldi: – **Xayriyat-e!..** Amirzodam, bizni muncha qoʻrqitdingiz?

5) mavjudlik, tasdiqni va inkorni: *bor, yoʻq, xoʻp, mayli, yaxshi*; YAxshi, men sizni doimo qoʻllab-quvatlayman.

6) bayon etilgan fikrning avvalgi fikr bilan munosabati va tartibini: *demak, shunday qilib, inchinun, shuningdek, darvoqe, zero, har holda, xullas, umuman, madomiki, binobarin, birinchidan, birlamchi, avvalo, jumladan, masalan, oxiri, dastlab*; **Xullas**, insonning inson boʻlishi uchun kerakli gaplar deyarli Shayx Saʼdiy “Guliston”ining oʻzidayoq aytib oʻtilgan.

7) bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini: *menimcha, sizningcha, bizningcha, uningcha, fikringizcha, fikrimcha, fahmimcha, nazarimda*. **Chamamda**, onalarning biz tushunmaydigan, bizning oʻlchovimizga sigʻmaydigan oʻz olami borgan oʻxshaydi.

Har bir turkumdagi modal soʻzlar oʻzaro sinonim boʻladi: *aftidan, chamasi, chogʻi, shekilli, ehtimol, haytovur*.

Sinonim modal soʻzlarning bir qismi oʻzaro maʼno qirrasida, koʻpchiligi esa nutqda ishlatilishiga koʻra farq qiladi. Masalan, *shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz* sinonimlaridan oxirgisida maʼno kuchliroq: fikrning qatʼiyligi hech qanday eʼtirozga oʻrin qolmagan holda taʼkidlanadi, avvalgilaridan qatʼiylilik bu darajada emas.

Ammo modal soʻzlar oʻrtasida antonimlik hodisasi boʻlmaydi.

Modal soʻzlarning sintaktik vazifalari

Modal soʻzlar sintaktik vazifa bajaradi, lekin gap boʻlaklari vazifasida kelmaydi. Modal soʻzlar sintaksisda gap boʻlaklari bilan sintaktik munosabatga kirishsa ham, sintaktik aloqaga kirishmaydi.

Modal soʻzlarning koʻp qismi gapda kirish soʻz vazifasini bajaradi: *ehtimol, bugun u kelar. Essiz, taqdir ekan, qaydan bilibmiz, Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz. (Uygʻun, I.Sulton)*

Modal soʻz dialoglarda, oldingi fikrga munosabatni ifodalovchi javob tariqasida yakka oʻzi kelganida ham kirish soʻzlik holatini saqlaydi, gap boʻlib kelish esa uning ikkilamchi sintaktik vazifasi boʻladi. Bunday vazifada **albatta, shubhasiz, ehtimol, balki** kabi modal soʻzlar keladi.

– *Hammangiz ham birvarakay to‘y qilasiz! – Albatta!*

Agarda bunday javoblarning to‘liqligini tiklasak, ya’ni fikrning o‘zini ham qaytarsak, modal so‘zning mohiyat e’tibori bilan kirish bo‘lak vazifasida ekani ko‘rinadi. Yuqoridagi misollarda to‘liq (fikrni ham o‘z ichiga olgan) javob *To‘y qilamiz, albatta!*

– *Bugun teatrqa borasizmi?*

– *Shubhasiz. / Shubhasiz, do‘stim!*

Modal so‘z gap bo‘laklari bilan ishlatilsa, so‘z-gap emas, kirish so‘z vazifasini bajaradi: *Shubhasiz, borolmayman.*

Boshqa turkumlarda bo‘lgani kabi modal so‘zlarda ham oraliq uchinchilik mavjud. Shu sababli bor, yo‘q kabi modal so‘zlar otlashib ot turkumiga xos morfologik belgilarni qabul qilib, ot bajargan sintaktik vazifani bajarib keladi: *Bor boricha, yo‘q holicha. Borga yondashar, yo‘qdan qochar. Borning ishi farmon bilan, yo‘qning ishi armon bilan. O‘lim to‘y emas: borning pulini sochadi, yo‘qning sirini ochadi.*

Fe’lning inkor ma’noli shaklini yasash uchun xizmat qiladi: *Anchadan beri borganim yo‘q.*

Bor, yo‘q so‘zlaridan ba’zi turkumlar yasaladi: *borliq, yo‘qchilik, yo‘qla, boricha.*

Modal so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi. *Bildimki, afsona, qo‘shiq va o‘yin jon topgan u shahlo ko‘zlardan, shaksiz.*

Ba’zan modal so‘z nutq oqimida pauza bilan ajralib turmaydi, shunga mos holda yozuvda ham ko‘pincha vergul bilan ajratilmaydi. Shunda ham modal so‘z gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan bog‘lanmaydi, gapga modal ma’no beradi. Modal so‘zlar punktuatsiyasini yagona qoidaga bo‘ysundirish maqsadida bunday modal so‘zlarni ham yozuvda vergul bilan ajratish tavsiya qilinadi. Faqat *balki, shekilli* modal so‘zlarigina istisno tarzida vergul bilan ajratilmasligi to‘g‘ri bo‘ladi. Aks holda sun‘iylik tug‘iladi. Masalan, quyidagi gaplarda modal so‘zlarni pauza bilan aytib va vergul bilan ajratib yozib ko‘ring: *O‘rmonjon, bu soatning to‘g‘riligiga shubhalandi shekilli, o‘z soatiga qaradi. Balki siz, sigir ham gapiradimi, dersiz*⁵.

Ha, xo‘p, mayli singari so‘zlar tasdiq so‘zlar; yo‘q, mutlaqo singari so‘zlar inkor so‘zlar sanaladi. bunday so‘zlar dialogik nutqda -mi so‘roq yuklamasi orqali ifodalangan so‘roq gaplarning javobi bo‘lib keladi⁶.

Savol va topshiriqlar:

1. Modal so‘zlar ma’no jihatdan necha turli bo‘ladi?
2. Modal so‘zlarning morfologik belgilarini aniqlang.
3. Modal so‘zlar sintaksisda qanday vazifalarda keladi?
4. Sof modal so‘zlarni sanab o‘ting va ularni izohlang.
5. Boshqa turkumlardan modal so‘zga siljigan so‘zlar jadvalini tuzing.
6. Boshqa turkumdan siljigan modal so‘zlarning morfologik belgilarini aniqlang.
7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o‘zaro taqqoslang.

5- ma’ruza. Undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his-hayajon (emotsional) va buyruq-xitob undovlari

REJA:

1. Undov so‘z va uning grammatik xususiyatlari.
2. Undov so‘zlarning ma’nolari.
3. Undov so‘zlarning sintaktik vazifasi.

Tayanch so‘zlar: modal so‘zlar, undov so‘z, his-hayajon undovlar, haydash-chaqirish undovlari, buyruq-xitob undovlar, inkor-tasdiq so‘zlar, taqlid so‘zlar, grammatikalizatsiya, fuksiyadoshlik, sinonimiya, omonimiya, antonimiya, otlashish, turlanish, sintaktik vazifa, morfologik belgi, his-hayajon gap, kirish so‘z, so‘z-gap.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar hamda axborot manbalari:

⁵ Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Тошкент: Фан, 1975. – Б.384.

⁶ Mahmudov N., Nurmonov A... Ona tili. 7- sinf. Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – Б.107.

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O', Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Undov so'z va uning grammatik xususiyatlari

His-hayajon, buyruq, istak, chaqiriq, tabrik, haydash kabi turli ma'no qirralarini ifodalovchi so'zlar **undov so'zlar** deyiladi. Undov so'zlar sintaktik vazifa bajarganda gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirisha olmaydi hamda gap bo'lagi vazifasida ham qo'llanmaydi. Undov so'zlar boshqa yordamchilar va alohida olingan so'z turkumlari singari morfologik bo'linmas, ya'ni ma'noli qismlarga ajralmaydi: *hormang, bor bo'ling, yashang*. Undovlar yasalmaydi, boshqa turkumlarning yasalishi uchun asos bo'ladi. Barcha undovlardan fe'llar yasaladi: *uhlamoq, salomlashdi, dodlamoq, voyvoylamoq, ohlamoq, oh tortmoq, uh tortmoq, voy demoq, dod solmoq, oh urmoq, pisht demoq*.

Undovlar undov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov so'z turli ohang bilan talaffuz qilinib, turlicha ma'nolarni ifodalashi mumkin: *Hay-hay, qanday mazali (rohatlanish, zavqlanish). Hay-hay, tegma (buyurish). Hay-hay yigitlar, bu yoqqa! (undash, ta'kidlash) Hay-hay, shakkoklik qilmang (fikrdan qaytarish)*.

Nutq jarayonida so'zlovchilarning yoshi, amali nuqtai nazaridan undovlardan foydalanish ham ma'lum darajada farq qiladi. Xususan, o'zidan katta yoshdagilarga murojaat qilinganda yoki ma'lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslar hoy deb murojaat etmaydi yoki balli undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yo qilayotgan ishlaridan mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi. Shuningdek, undovlar og'zaki so'zlashuv, badiiy, qisman publitsistik uslubda keng qo'llanilib, rasmiy va ilmiy uslubda qo'llanish doirasi chegaralangan. Ba'zan xat janrida, ma'lum voqea-hodisalar bayoni yuzasidan o'zaro maktublarda yoki ishqiy maktublarda undovlar qo'llanilishi mumkin. Rasmiy doiralarning xatlarida

undovlar umuman ishlatilmaydi, chunki rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtirolardan xoli bo'ladi⁷.

Undov so'zlar turlicha emotsiya – his-hayajonni ifodalashiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. His-hayajon undovlari.

His-hayajon undovlari quyidagi ma'nolarni anglatadi:

– sevinch va shodlik: *oh, eh, o, bay-bay*;

– o'kinch, qayg'urish va azob: *oh, e-voy, voyey, voy-voy*;

– taajjub va hayronlik: *iya, iye, i-i, e-e, o'h-ho*;

– nafrat, piching: *eh, tfu, e, iya, iye*;

– charchash, toliqish: *uf, uh, voy-voy, voyey*;

– qizg'anish: *oho, huv, hu*;

– chaqirish: *hoy, huy, hey, allo, labbay*;

– ma'qullash, rag'bat: *barakalla, yashang, hormang, ofarin, bor bo'ling, marhamat*.

His-hayajon undovlarining o'zi undov gap bo'lib kelishi yoki gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin. Bunday gaplar oxiriga doimo undov belgisi qo'yiladi.

2. Haydash-chaqirish (buyruq-xitob) undovlari.

Undovlarning bu turi kishilarini, hayvon va parrandalarni haydash, chaqirish uchun qo'llanadi: *hoy, huy, hay, tu-tu, mah-mah, qurey-qurey, kuch-kuch, beh-beh, chuh, pisht, kish, dirr, xo'o'sh, xo'o'k, tak-tak*.

Barcha etiket so'zlar undov bo'ladi: *salom, xayr, assalomu alaykum, va alaykum assalom, rahmat, balli, hormang, barakalla, qani, bas, ofarin*.

Undovlar otlashishi mumkin, otlashgan taqdirga ular otga xos barcha grammatik belgilarga ega bo'ladi – turlanadi: egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi (*Voy-voyingni yig'ishtir. Oh-vohlaringni bas qil.*), otga xos sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Ega: *Dod-voylar eshilib turardi*.

2. To'ldiruvchi: *Kim ohingga quloq tutadi?*

3. Qaratqich aniqlovchi: *Oh-vohlarning cheki bormi?*

4. Undov so'zlar deb so'zi bilan ishlatilsa, ravish holi: *"Oh-voh" deb og'ir kunlarni o'tkazdi*.

5. Degan so'zi bilan ishlatilganda sifatlovchi-aniqlovchi: *Tantana ishtirokchilarining tashakkur degan so'zlari yog'ildi*.

Undov so'zlar sintaksisda his-hayajonsiz gapni his-hayajonli gapga aylantiradi: *Eh, Vatanimiz qanday go'zal!*

Hoy, hay undovlari undalma vazifasida keladi (*Hoy, kimsan?*), agar undalma bilan ishlatilsa his-hayajon ifodalashga xizmat qilib, undalma vazifasini bajarmaydi (*Hoy bolam, imoningni saqla!*)

Undov so'zlar yakka, juft va takroriy holda qo'llanadi: *voy, dod-voy, kisht-kisht*.

Undovlar demoq so'zi bilan kelganda, qo'shtirnoqqa olib yoziladi: *U "oh" deb yubordi*.

Yozuvda undov so'zlardan keyin vergul qo'yiladi: *eh, eshakning qulog'iga tanbur chertibman-da*. Undalmalardan oldin kelganda undov so'zdan keyin vergul qo'yilmaydi: *Oh Vatan, bunchalar go'zalsan!*

Savol va topshiriqlar:

1. Undov so'zlar deb nimaga aytiladi?
2. Undov so'zlar nima uchun morfologik yaxlitlangan deyiladi?
3. Undovlarning ma'no jihatdan qanday turlari bor?
4. Undov so'zlarning morfologik xususiyatlarini sanab o'ting.
5. Undov so'zlar qaysi jihatlari bilan yordamchi so'z turkumlaridan farqlanadi?
6. Undov so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasini qanday izohlaysiz?
7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni o'zaro taqqoslang.

6- ma'ruza. Taqlid so'zlar. Ularning Grammatik xususiyatlari, otlashishi, taqlid so'zlarning

⁷ Nurmonov A. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II tom. Toshkent: Ilm ziyo, 2010. – B.260.

sintaktik vazifasi;turlari: tovushga taqlid va shu'la-harakatga taqlid so'zlar

REJA:

1. Taqlid so'z va uning grammatik xususiyatlari.
2. Taqlid so'zlarning ma'nolari.
3. Taqlid so'zlarning sintaktik vazifasi.

Tayanch so'zlar: modal so'zlar, undov so'z, his-hayajon undovlar, haydash-chaqirish undovlari, buyruq-xitob undovlar, inkor-tasdiq so'zlar, taqlid so'zlar, grammatikalizatsiya, fuksiyadoshlik, sinonimiya, omonimiya, antonimiya, otlashish, turlanish, sintaktik vazifa, morfologik belgi, his-hayajon gap, kirish so'z, so'z-gap.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar hamda axborot manbalari:

1. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 276 b.
2. Ikromova R., Muhamedova D., Hamroyev M. Ona tilidan mashqlar to'plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 186 b.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 488 b.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet. – 2006. – 464 b.
12. M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari// Toshkent: Sharq, 2015. – 400 b.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 290 b.
23. O'zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
28. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
32. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Ozbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
33. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili // Toshkent, 2009. – 304 b.
34. Mengliyev B., Xoliyorov O., Qodirova X. Qomus// Toshkent, 2013. – 272 b.
35. Mengliyev B., Xoliyorov O., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma// Toshkent: Akademiya, 2018. – 512 b.
36. www.tdpu.uz
37. www.pedagog.uz
38. www.ziyonet.uz
39. www.edu.uz
40. tdpu-INTRANET.Ped
41. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
42. www.rtm.uz
43. www.kspi.uz

Taqlid so'zlarning ma'nolari

Borliqdagi predmetlarning hamda tabiat hodisalaridagi turli tovushlar, sharpa va ko'rinishlariga taqlidni bildiruvchi so'zlar taqlid so'zlar deyiladi. Taqlidiy so'zlar ham morfologik jihatdan o'zgar olmaydi. Lekin ot turkumi o'rnida qo'llanib, otlashadi. Taqlidiy so'zlar ham yasalmaydi, yasalish uchun asos bo'ladi:

1. Fe'l (Barcha taqlid so'zlardan fe'l yasash mumkin): *yaltira, yarqira, chirilla, gurilla, dang'illa, yiltira, jiz etdi, paq-puq qildi, jimirla.*
2. Ot: *qahqaha, qarsak, bizbizak, sharshara, taqa, hushtak, jizza, hiqildoq, shaqildoq.*
3. Sifat: *po'rsildoq, bilqildoq, so'lqildoq.*
4. Ravish: *tappa, guppa.*

Taqlidiy soʻzlar mazmunan ikki xil boʻladi:

1. Tovushlarga taqlid bildiruvchi soʻzlar.

Tovushga taqlidni bildiruvchi soʻzlar kishilar va hayvon, parrandalarga xos tovushlarga taqlidni (*hoʻng-hoʻng, piq-piq, inga-inga, shivir-shivir, gʻovur-gʻovur, dup-dup, duk-duk, miyov, vang, moʻoʻ, maa, zuv-zuv, viz-viz, gʻuv-gʻuv*) hamda tabiatdagi jonsiz narsalarga taqlidni (*paq-paq, paq-puq, chirs, chars-churs, gumbur, tiq-tiq, chiq-chiq, taq-tuq, qasir-qusur, qars, jarang-jurung, chirt*).

2. Shuʻla, koʻrinish, obraz, holatga taqlidni bildiruvchi taqlid soʻzlar.

Taqlid soʻzlarning bu turida bir lahzali aks etgan shuʻla, obraz (*yalt, jimir*) shaxs va predmetlarning tashqi qiyofasi va holati (*dir-dir, moʻlt-moʻlt, hang-mang, jovdir-jovdir, likang-likang, lapang-lang*), predmetlarning turgʻun holatdagi koʻrinishiga taqlid (*lang, milt-milt, lip, yarq-yurq, yarq-yarq, duv-duv, yilt-yilt*) kabi maʼnolar anglashiladi.

Taqlid soʻzlar yolgʻiz (*paq, gup*), juft (*taq-tuq*) va takror (*milt-milt*) holda qoʻllanishi mumkin.

Taqlid soʻzlarning sintaktik vazifasi

Taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlar singari sintaksisda gap boʻlaklari vazifasida kela oladi:

1. Ravish holi: *Oydinda yiltiragan luchchaki shaftolilar duv-duv toʻkildi.*

2. Sifatlovchi aniqlovchi: *Atrofdan gʻir-gʻir shabada esardi.*

3. Kesim: *Yoʻllar bilch-bilch.*

Taqlid soʻzlar ham ismlar kabi otlashishi mumkin, otlashgan taqdirda u otga xos grammatik xususiyatlarga ega boʻladi – turlanadi va quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1. Toʻldiruvchi: *Qurbaqalarning vaqir-vuqiriga oʻrganib qolganmiz*

2. Ega: *Zalda gʻovur-gʻovur koʻtarildi. Ichkarida soatning chiq-chiqi eshitilardi.*

3. Qaratqich aniqlovchi: *Gʻovur-gʻuvurning tinishini kutdik.*

Savol va topshiriqlar:

1. Taqlid soʻzlar deb nimaga aytiladi?

2. Taqlid soʻzlarning xususiyatlarini aniqlang.

3. Taqlid soʻzlar qaysi jihatlari bilan mustaqil soʻzlarga yaqin?

4. Taqlid soʻzlar sintaksisda qanday vazifalarda keladi?

5. Taqlid soʻzlar haqida adabiyotlardagi qarashlarni taqqoslang.

6. Tovushga va holatga taqlidni bildiruvchi soʻzlarni misollar orqali izohlang.

7. Taqdim etilgan adabiyotlardagi mavzuga oid fikr-mulohazalarni oʻzaro taqqoslang.